

821
Ch-20

A N I L C H A N D R A



SO‘QMOQDAGI
SO‘QIR SARGUZASHHTI

JAHON ADAABIYOTTI TURKUMIDAN

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач

604.16.15.21.

9 12

829
Ch 20

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

ANIL CHANDRA

ANIL CHANDRA, 1960-yilning 15-sentabrda Indoneziya
valifif mamlakatining hukumatining offisindan
yuridik "mamaylik" (government) vazirligiga tashrif
qilish uchun 14-iyulga qarab qo'shilgan. O'zgari
shaxs uchun bu kuch qo'shilishi.

SO'QMOQDAGI SO'QIR
SARGUZASHHTI

Hikoyalar

BU HIKOYALAR UZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILYOATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

UZBEKISTON RESPUBLIKASI O'ZGARIBOZORI
DELEGATLIGI TOSHKENT VILYOATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

UZBEKISTON RESPUBLIKASI O'ZGARIBOZORI
DELEGATLIGI TOSHKENT VILYOATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

UZBEKISTON RESPUBLIKASI O'ZGARIBOZORI
DELEGATLIGI TOSHKENT VILYOATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

ZIYO NASHR



Toshkent
2020

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILYOATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

NASHRIYOT DAN

Tahrir hay'ati:

Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,
Xurshid Do'smuhammad, Suvon Meliyev,
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboy
Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'ravayev

Tarjimonlar:

III Olim OTAXON va b.

Chandra, Anil.

Ch 20 So'qmoqdag'i so'qir sarguzashti. [Matn]: hikoyalilar/Anil Chandra;
tarjimonlar: O. Otakona va b. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020. – 144 b.
ISBN 978-9943-6439-3-2

Adirlikda qo'y boqib yuradigan bolakayni bobosimiga olib
ketadilar. Otasi va akasi urushga ketadi. Vatan himoyachilari tog'dagi
so'qmoq orqali o'tib, dushman askarlariga hujum qilmoqchi bo'ladiilar.
Lekin tog'dan o'tish uchun bu yerlarni yaxshi biladigan hushyor
yo'l boshlovchi kerak bo'ladi. Ana shunda ko'zo qiz bolakay ularga
yordamga keladi...

Aziz kitobxon! Qo'lingizdag'i to'plamdan o'rin olgan hikoyalar
qalbingizga yorug'lik olib kirishiga ishonamiz.

UO'K: 821.21-32
KBK 84(5Hind)

Biz o'tgan mingylliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan
hissa qo'shgan, uni o'zgartira oigan xalqimiz. Madaniyat, san'at, axloq,
falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajoddolarimiz qoldirgan ulkan
meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan
e'tirof etilib, o'rganib kelimadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy,
Burhoniddin Marg'iloni, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu
Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin
Naqshband, Abullays Samarcandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugna-
kiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin
Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajoddolarimiz
borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar
deyishga haqlamiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati,
tarixi, jahonshumul shon-shuhrat bilangining cheklanib qolmasligi lozim.
Ajoddolarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot
tarziga doimo hushyor nigoҳ va iibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga
muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'reganadigan bo'lsak, mutafakkir
ajoddolarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy
tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan
birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi
bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajoddolarimiz ularni o'qib, uqi-
shar ekan, o'z milliy madaniyatlarni rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda
qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilg'anlari, xorij
mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'ikelgan.
Eng muhimmi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariiga nis-
batan shaxsiy to'ximlari, xulosalar va tanqidiy nuqtayi nazarlar bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini tako-
millashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir payida, o'mishda
yashab o'tgan buyuk ajoddolarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz,
jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalarini bilan izchil va tizimli
tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehti-
yojni nazarida tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrii ishga qo'l urishga
bel bog'iadi. Ya'nijoriy yildan e'tiboran jahon nasti namunalarining yuz
jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingлиз, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jiddikda Ch. Dikkens, L. N. Tolstoy, A. Dyuma, N. V. Gogol, O.de Balzak, A. P. Chekov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G. G. Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muharam o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May, Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Butsati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chander, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarning aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarni o'qishga mayassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jiddlik jahon nashrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratiga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'r'in o'rgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hummatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jiddikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyatni va axloqiy o'chamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jiddigi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mafhor, texnik imkoniyatlar oshegan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli miyat bilan boshlayotgan ishimizdagagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlari maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatlil qilsin!

SO'QMOQDAGI SO'QIR SARGUZASHTI

Suhbir Chavxon qoyatoshga o'tirdi, uning do'ppisi ko'zlarini to'sib qo'ygan, qaynoq tuproq yalang oyoqlarini qizitardi. Bu oyoqlar bolaga qayerdaligini bildirishdi. Ular tosh va qum, o'simlik va butalarni sezgan holda manzilda adashmasdilar. Qarshisida esa qushcha sayrardi. Bola uning nima demoqchiliginini tushundi. Suhbirning ko'zlarini ojiz edi, shuning uchun tabiatdag'i barcha Jonzot-u o'simliklar unga aso bo'lardi. Bola bu haqda akasi Rajbir va bobosi Shivpriya Chavxonidan boshqa hech kimga gapirmagan. Chunki ular bolaning xayolparastligidan hecham kulishmasdi-da.

Suhbirning yoshi o'n to'rtda, odamlar unga achinish hissi bilan boqishlarini u juda yaxshi tushunadi. Biroq bola ko'r bo'lsa-da, bu betakror olamning naqadar go'zalligini his qila olayotganini bilishgandami, aksinchcha, unga havas ko'zlar bilan qaragan bo'lardilar. Odamlar maysga igan shudringni ko'rishmaydi. Ular barmoqlar orqali his qilinadigan marsalar – tuxum, toshlar, g'adir-budur qoyalar, teri kabilarni sezishmaydi. Odamlar hech nimani isiga qarab ajrata olishmaydi. Ular hidsezmas burunkari bilan go'zalikni sezmay o'tadilar.

Suhbir kumni otasining yuzlab echkilariga podachilik qilib o'tkazadi. Bola ularni ikkiga ajralgan tuyoqlari tovushi va hidiga qarab boshqaradi. Echkilar ham bola chaqirishi bilan kelishadi. Agar bola hushtagini chalssa, poda yig'ilib, daladagi qo'riqqa yo'l oladi.

Quyosh nurlari kamaya boshladi – bolaning eti junjikdi. Demak, shom tushgan, o'yladi Suhbir va hushtagini olib, sokin ohangda chala boshladi. O'tlayotgan echkilalar boshni ko'tarib, bolaga qarab qo'yishdi va u tomon kela boshlashdi. Hammasi to'planganini sezgan bola ularni tog'dan pastga ergashtirgancha, qo'riqqa keta boshladи. Ertasahar ularni yana shu taxlit olib chiqib o'tlatadi. Suhbir o'z hayotidan mammun, baxtli edi.

Biroq o'sha kuni u tog'daligida, Jhansi qirolichasi Lakshmi Bay Angliyaga qarshi urush e'l on qiddi. Suhbir bu-ni ota va akasi otlarini jangga tayyorlayotganidan bilib oldi. Ular oila a'zolari bilan xayrashib, multiqlarini yelkalariga osgancha uydan chiqib ketdilar. Bola tuyoq tovushlari to eshitilmay qolguncha jum o'tirdi. Keyin onasini so'roqqa tutdi:

– Endi biz nima qilamiz, ona?

– Bobongnikiga ketamiz, boshqa iloj yo'q.

– Hozir kechqurun-ku. Men u yerlarni bilmayman, adashib qolamiz.

Bola birinchchi marta ko'rligidan nadomat chekdi.

Ular ertalab yo'lga chiqadigan bo'lishdi. Tongda ona-bola otlarni aravaga qo'shishdi, qoramol va echkilarni yig'ib, o'n besh kilometrlik safarga tayyorlashdi.

– Ketdik, Suhbir, hamma narsa tayyor bo'ldi.

Bolaning qo'lida paketga o'rog'liq narsa bor edi.

– Men akamning eski to'pponchasini olvoldim. Agar biror xavf tug'ilsa, menga mo'ljalini ko'rsatsiz va men o'q uzaman.

Ona-bola aravaga o'tirishdi.

– Men hech kim emasman, – dedi Suhbir bordaniga. – Men begona joyda, oyoqlarim manzilni menga ayтиб berolmaydigan yerda hech kim emasman... – Biroz o'tib Suhbir yana tilga kirdi: – Menga ayтиб bering, ona, nimalarni

ko'ryapsiz? Echkilarimni o'tlatadigan tog' hali ham shu atrofdami?

Ona unga atrofnii ta'riflab borardi. Nihoyat, manzilga yetib kelishganida, bobosi uyda yo'q ekan. Qishloqda barcha keksa va yosh bolalar ko'rimmasdi. Suhbirning yolg'iz o'tirgancha kutishdan o'zga chorasi yo'q edi. Ertasiga ham hech qanday yangilik bo'lmadi. Bola bobosining fermasida o'zini yaxshisi eta boshlagandi, lekin baribir u o'z tog'in qo'msardi.

Bir kuni fermaga askarlar kelishdi – horigan ot-ulovlarda charchagan erkaklar. Suhbir jon qulog'i bilan tinglardi: ular otdan tushishdi, o'zaro gaplasha boshlashdi.

– Siz mening otamni yo akamni ko'rmaddingizmi? – Suhbir qo'qqisdan so'radi.

– Sen kimsan?

– Suhbir Chavxon. Mening ko'zim ojiz. Otam Tantia Topning armiyasida.

– Biz ham Tantia Topga qarashli askarlarimiz. Agar ularni ko'rsak, so'raganiningni aytib qo'yamiz.

Bola uzodan yana otlar dupurini eshitdi. Lekin u hozirgi askarlarining otiga o'xshamasdi: tovushidan og'ir va to'pori otlar edi.

Bola sharaq-shuruq zanjir tovushi va qilichlarning nozik ohangini eshitib turdi. Ular ingilzlar edi.

– Shu yerdan o'tgan askarlarga ko'zing tushmadimi, ey bola? – so'radi ulardan biri Suhbirdan.

– Kun bo'yishu yerda edim, – javob berdi u, – hech nimani ko'rmadim.

– Bu bilan hech narsaga erishholmaysan, bola, – dedi ikkinchisi. – Askarlar to'g'ri shu yo'ldan ketishgandi. Hali uzoqqa ketmagan bo'lishsa kerak. Otlari charchagan.

To'g'ri, otlari juda charchagandi, o'yjadi bola. Bola garchi ko'rmasa-da, askarlarining qay tomon ot choptirgанини hali yo'qolmagan ot isi tufayli sezgandi.

– Qani ketdik, ularga yetib olaylik.
Askarlar bolani aylanib o'tib, yo'llarida davom etishdi.
Suhbir ularning o'ttiz chog'li ekanligini taxmin qildi.
Uzoqdan o'q ovozi eshitildi. Uchta, to'rtta... Bu bizz-ning odamlar, o'yldi bola, inglizlar bunaqa o'q uzmaydi. Inglizlarniki tezkor va kuchli. Tog'larda aks sado beradi. Suhbir otasi va akasidan xavotir ola boshladi.

Bola ortga – fermaga qaytdi.

– Ingлизларга дуч келмадингми? – со'ради онаси.

– Дуч келдим. Улар мен билан гаплашди. Улар Тантia Topdag'i askarlarimizning ortidan quvayotgandi. Otam va akamning jamoasidan ekan ular.

– Biror yangilik kelib qolar...

– To'g'ri, yangiliksz yashash qiyin, ona. Erkaklarga ham qiyin, ular urushda qatnashadi. Bugun juda qo'rqidim. O'zimiznikilar va dushman bilan to'qnashdim. Inglizlarga o'zimiznikilarni sotmadim. Ular ko'rligimni sezishmadim. Oh, ona, qo'llimdan nima ham kelardi? O'sha tun Suhbir uxlay olmadi. Agar uxlama, urush haqida o'ylab, qayg'urib, go'yo askarlarga yordam berayotgandek tuyuldi. Tushida u o'z jang maydonini tuzdi – otlarning kishnashi, qilichlarning jarangi, miltiqlarning paqillashi, odamlarning chinqirig'i – bari qulog'i ostida yangragandek bo'ldi. Yarim tunda turiboq onasiga hay-qirdi:

– Onajon, zo'r tush ko'rdim. Akam ot minib ketayotgan ekan. Menga miltiq bering, iltimos!..
Suhbir o'qlarmi miltiqqa joylab, tashqariga chiqdi.

– To'xta, bo'lmasa otaman!

Bola o'ziga o'zi gapirib qo'ydi.

– Sen miltiqni nima qilasan?

Bola ovoz kelgan tomonga burildi. Bu akasining ovozi edi.

– Rajbir... sen bu yerda nima qilyapsan, keldingmi, bolam? – ona farzandlari sari intildi.

– Onajon, hozir tushuntirib o'tirishga vaqt yo'q. Men Suhbirni olib ketgani keldim. U Tantia Topga kerak.

– Tantia Topga? Nima, Suhbirni ham urushga olib ketasanni?

– Men u yerda nima qiliшим lozim? – so'radi Suhbir ham.

– Yo'lda aytib beraman, qani ketdik!

Suhbir akasining otiga mingashdi. Osmondan esa yom-g'ir quyardi. Qiziq, qayooqqa ketyapmiz ekan, o'ylandi bola. Yo'lda toshlar ko'p edi. Suhbir birdan o'z tog'ining hidini his qila boshladi.

– Deyarli kelib qoldik, – dedi akasi.

Rajbir uni otdan tushirdi. Atrof zim-ziyo edi.

– Suhbir keldimi? – bu otasining ovozi edi.

– Shu yerdaman, dada.

– Xo'sh, bola qani? – bu Tantia Top edi.

– Biz bu yerdamiz, – dedi Rajbir ham. – Unga barini tushuntiriting. Men indamadim.

– Quloq sol, Suhbir, – Tantia Top gap boshladı. – Biz yuz kishimiz. Ingлизlar esa shimoldan yuzlab jangchilari bilan biz tomon ot surmoqda. Biroq ular bizning qayer-ga berkinganimizni bilishmaydi. Ularni dengizdan kechib o'tayotganlarida o'rab olmoqchimiz. Ya'ni pistirma...

– Tushundim, – dedi bolakay. – Ularga ikki tomondan hujum qilmochisiz.

– Ha. Lekin bir narsa xato bo'ldi. Ingлизlar tog'dan yashirinchcha yo'l topishibdi. Biz aynan shu tundayoq ularni yengishimiz lozim, yo'qsa kech bo'ladi. Afsuski, tog'dan o'tadigan bosnqa yo'mi ham bilmaymiz. Bilsan, bu so'qmoqlar juda tor, podachilarning yo'li. Ayniqsa, tunda hech nimani ilg'ab bo'lmaydi. Akangning aytishicha, bu log'dagi so'qimoqlarni besh qo'idek bilar ekansan.

– Demak, men ham endi armiya askari bo'larkanman-da?
– Ha, Suhbir, sen yo'lboshchimiz bo'lasan. Axir, bu tog'da butun umring o'tgan-ku.

Suhbir darrov ularga yo'l boshladi. Ko'zlar bilan emas, hidilar, sezgilar, oyqqlari nimani his etayotganiga qarab... har bir tosh, daraxt, hid tanish edi.

– Bu echkilar yo'li, – shivirladi otasi unga. – Bu yerga kelishningni bilmagandim, bolam. Axir, toyib ketish mumkin-ku?

– Men toymayman. Bu mening tog'im.

Tunda askarlarining ochiq ko'zlar ham hech nimani ko'ra olmasdi. Faqat Suhbirning ojiz ko'zlar barchasini ko'rар, sezar va yo'l boshlardi.

– Biz kelib qoldik, – dedi Suhbir.

Tantia Top yengil nafas oldi. Suhbirning otasi uni band toshga o'tqazib qo'ydi.

– Shu yerdan qimirlama. Bizni kut...

Bola kutishi kerakligini tushundi. Qolganlar jang sari otlanishdi. Birozzdan so'ng nariroqdan o'q tovushlari eshitildi. Bir payt bola Tantia Topning „Ular qochishyapti!“ degan gaplarini eshitib qoldi. Olovning achimsiq hidi ufurdi. Suhbirning burni achishdi.

– Suhbir, shu yerdamisan? – otasi uning yomiga kelgandi.

– Ha, dada.

Kimdir uning qo'llaridan ushladi. Bu Tantia Top edi.

– Senga rahmat, bolakay. Sening xizmatingsiz biz ularni topolmay, yengillardik.

Barcha bolaning atrofimi o'rab oldi va qo'llari bilan yelkasini qoqishdi.

– Hali sen afsonaga aylanasan, – dedi keksa bir askar. – U, „Suhbir haqida doston“ deb ataladi.

Suhbir esa ojiz ko'zlar bilan barchaga minnatdorona boqardi.

IKKINCHI HAYOT

Quyosh nurlari janob Parmarning qalin darpardalarini yorib o'tib, xonaga yorug'lik bag'ishladi. Qariya esa yon-boshiga ag'darildi va sukumatga quoq tirdi. Shimla yanqidagi bu uy juda osuda; hoynahoy nabiralari allaqachon maktabga jo'nashgan bo'lsa kerak. Kun esa har galgidek bugunning o'ta uzoq va dilkun o'tishidan darak berardi. Qariya o'mridan turib, gazetasini qo'liga olarkan, kun rejasini tuzmadi, chunki qiladigan ishning o'zi yo'q edi....

„G'irt yolg'izman!“ o'yildi qariya deraza osha yuksak tog'larga qarab qo'yarkan. Olimmag'an soqollari hamda qonsiz ko'zlarini uning naqadar tushkunlikka tushib qolganidan darak berardi. Tunov kuni joyida yotganida narigi xonadan kelinining gapirayotganini eshitib qoldi:

– Otamning hech nima bilan ishi yo'q, biror narsaga qiziqiy demaydi. Nuqul xonasida ko'milib o'tirgani-o'tirgan. Hatto dasturxonga taklif qilsam ham indamaydi.

Qariya bu gaplarni tinglagach, pichirlab qo'ydi: „Axir, ilgari unday emasdim. Onalarin tirikligida mutlaqo bunday emasdim...

Tog' cho'qqilaridan qor ko'chishi shundoqqina uyga eshitilib turardi: gum-gum; bu yoz kelishidan darak. Birdan qariyaning yuragida tog'ga chiqish istagi tug'ildi. Nima qipti, qushlar unga sherik bo'ladi, qorli cho'qqilar bilan sirlashadi. Ertasiga janob Parmar oilasiga tog'ga chiqish niyatini bildirdi. Kechki ovqat mahali nabiralari ham birga bora-

miz, deb turib olishdi, bobo ular bilan yakshamba kuni tog'-ga chiqishga so'z berdi.

Yakshamba kuni ular barvaqt uyg' onishdi. Yarim soatda tayor bo'lishib, tog'ga olib chiqadigan bextatar so'qmoq bo'ylab keta boshlashdi. Shu atrofda sayr qilayotgan bir ayolning xonish qilganini eshitgan sayohatchilar biroz to'xtashdi. Qariya unga yaqinlashib, biroz suhbatlashgan bo'ldi.

— Yoshingiz nechada, xonim?

— Oltmish yettidida, — ayol javob berdi. Uning sochlari kalta kesilgan, yuzi cho'zinchoq, ko'zlar esa charaqlab turardi.

U qariyadan ikki yosh kichik ekan.

— Ancha yosh ko'rinxiksiz, — deb qo'ydi janob Parmar.

Ayol jilmayib qo'ydi.

Qaytishda ular ayolni yana uchratishdi. U bir to'da keksalar qurshovida, guruh bo'lib sayohatga chiqishibdi. Biliishicha, ayolning ismi Vidyay ekan.

— Bular nabiralarigizmi? — so'radi Vidyay yo'l-yo'lakay. Shundan so'ng janob Parmar ham har kun tongda ug'onib, yangi do'stlari bilan tog'ga chiqishni odat qildi.

Yengil badantarbiyadan so'ng esa uyg'a qaytib nabiralarini maktabga kuzatardi. U deyarli har kuni Vidyani uchratardi, ular bir-birlari bilan inoqlashib ketishdi. Biliishicha, ayol beva ekan, qizi va kuyovi bilan birga yasharkan. Uning oilasida ham o'zimki kabi muammolari borligini sezgan qariya, ayolning kayfiyatini ko'tarishga urinardi.

— Ular kechasi bilan televizor ko'rib, uyqumni burzishsa-da, bolalarimga bir nima deyolmayman. Men birov bilan gaplashgim kelgan payt esa ular o'z ishlari bilan mashg'ul bo'ladilar. Go'yo o'zimni ortiqchadek sezaman. Hatto o'zim uchun biroz pul so'rashga ham iyumanaman, —

tan oldi bir kuni ayol. — To'g'ri, qizim va kuyovim yomon emas, lekin baribir ortiqchaligimni bilaman. Odamlar men-ga shafqat bilan nazar tashlashlarini esa istamayman.

O'sha suhbatdan so'ng ertasisiga yomg'irli kunlar boshlandi. Tinimisiz yog' ayotgan tomchilar hech tinay demasdi. Qariya sheriklarini ancha payt ko'rolmadi. Janob Parmar derazadan tog'ga tikilgancha kun o'tkazardi.

Bir kuni ularning eshilari taqilladi. „Nahotki Vidyabo'lsa“, degan o'ydan quvongan qariya pastki qavatga tushdi. Eshikni ochishi bilan esa jilmayib turgan o'sha qadrondiga ko'zi tushdi.

— Bilasizmi, — gap boshladi ayol, — biz tomonda yomg'ir yog'mayotgandi, shu yerdan o'tayotganimda quyib yubordi. Shu sababli uyingizdan qo'nim topishga qaror qildim.

Janob Parmarning oyog'i uvushib turganiga qaramay, ayolni tushlikka qolishga ko'ndirdi. Birgalikda ovqat tayyorlashdi. Qariya birinchchi marta hafsal bilan taomga tutindi. Ketayotib Vidyu uni ham o'z uyiga taklif etdi. Shunday qilib, ular haftada ikki marfa birga tushlik qilishni odat qilishdi. Albatta, qariya bu haqida oilasidagilriga aytdi. Biroq bu narsa ularmi qiziqiturnmadи.

— Bugun otamizing „sevgani“ yana kelibdi-da, — deb qo'yardi ba'zan kelini o'g'liga.

— Qayerdan bilding?

— Idishlar o'z joyiga qo'yilmagan.

Er-exotin rosa kulishdi, Parmar ham jilmayib qo'ydi.

— Xo'sh, yangi onamizni qachon olib kelasiz? — davom etardi kelini kulgancha.

Biroq bunday gaplarga janob Parmar ahamiyat bermasdi. Axir, yoshi yetmishdan o'tgan bo'lsa, yana uylanishga balo bormi? Biroq u har gal tushlikdan so'ng ayol bilan xayrlasharkan, ko'ngli huvullab qolardi. Bir kuni tushlik navbatli Vidyaga kelganda, u uyiga chaqirma-

di. Buning sababini bilmagan qariya esa xonasiga yana biqinib oldi.

Xullas, yomg'ir mavsumi tugach, quyosh hamma yoq-ni yorita boshladi. Qariyanning qalbiga ham nur kirib keldi. Va aylolga go'nig'iroq qillishga qator qildi.

- Hamma qariyalar yig'ilib tog'ga ketayapmiz, - aldadi
Parmar. - siz ham bizga qo'shilasizmi?

Ayol biroz o'ylandi va rozilagini bildirdi. Qariya xur-sand bo'lgancha soqolini qirdi. Ko'zguga qarab o'zidan ko'ngeli fo'ldi-da uchbrashuvga oshindi

Ular salomlashishgach, yo'll bo'ylab jum keta boshladilar. Birdan Virdva sirpanih ketayozdi.

— Ehtiyot bo'ling! — qariya uni suyadi. — Manavi has-sani ushlab oling.

Parmar hassasini unga tutqazib qo'yib, o'zining beli og'riy boshlaganini sezdi.

- Qaribman, - dedi sekin. Hamrohing bo'lmasa, bu
cho'qiga yetolmas ekansan.

— Mening qizim ham shu gapni aytidi: biz keksaydik... —
dedi Vidya ham.

- Bilasizmi, Vidyā... - qariya gapini topolmay qoldi.
- Qizim shunday degandan so'ng, - ayol uning holati-

ni tushundi, – ikkimiz haqimizda ko'p o'yladim. Shuning uchun sizni tushlikka chaqirmadim. O'ylab olishim lozim

edi.
- Ular nima desa desin, Vidyā. Kel, keksalikda bir-

birimizga suyanchiq bo'laylik, birga qadam tashaylik...
Axir, qancha umrimiz qoldi o'z?!

*Qarhyā kōş p gaplamı aymħoqchi edi, biroq tiliga keli-
madi.*

- Mel tutsunuyapınan. EKIM... odamıza Nima deydi?
- Nima ham deyishardı odamlar? O'zimiz haqımızda
O'zimiz zavot'ummasak hech kim o'syləndərdi bizi. Men

unchadan beri pensiya pulimni yig‘aman. O’shang Solan yaqinidan bir uyni ikkimiň uchun mo’jallab qo‘ydim, bir-galikda umrbod yashashimiz uchun...

— Lekin qizim va kuyovimning yuziga qanday qarayman? Necha yildan beri bevalik nomimni saqlab kelaman,

Ular ko'p bahslashishdi. Oxiri Vidya so'nggi gapni
endи shu yoshga yetganda...

ایرانیان (ZHI)

-Buyog'i Xudoga ayon, taqdirimizni qo'shgan bo'lsa...
Ular yana savr qilishdi. Ora-sira - Tolib qolmadinemmi?"

deb so 'rab qo'yishardi. So'ng shafaq uzra bir-biriga suyan-gancha, ko'ngillarida uyg'ona bosqlagan baxtivorlik hissi-

ni tuydilar. Quyosh ham ularga saodat tilab bosh egayot-ganga o'xshardi...

and the following morning he sold

- Meniki esa Nutan. Yoshim oltida.
- Xursandman, Nutan.
- U kulib yubordi.
- Sen quvnoq ekansan, – dedim men ham jilmayib. So'ng bu yerdan ketdim. Ketgunimcha uning hayotbaxsh kulgisi meni ta'qib etib bordi.
- Yana keling, Prabxaji, – dedi u ortimdan. – Baxtli kunlarimizni davom ettiramiz.

Kunlar va haftalar bir-biriga egizakdek o'tib borardi. Otamning azoblari-yu, onamning dard chekishlari bunga hamohang bo'lardi. Quyoshli tonglarning birida men dengiz burgutli qurib ketgan, shudring tomchilarini eslatuvchi uyani ko'rib qoldim. „Men darhol sohilga borishim lozim“, deya denigizga shosholdim. Dengiz bo'yida uni kutu boshladim. Uzoqdan ko'rinishi bilan negadir g'alati bo'lib ketdim.

- Salom, Prabxaji, – gap boshлади у. – Men bilan o'ynagingiz keldimi?
- O'ynashimni istaysanmi? – dedim qandaydir alam bilan.
- O'zingiz bilasiz, ayta qoling.
- Yolg'izlik o'yiniga nima deysan? – davom etdim istehzoli kulib.

Biroq Nutan gapimdan kulib yubordi:
– Bu o'yinni bilmas ekanman.
– Unda yur, shunchaki sayr qilamiz, – dedim uning yuzidagi samimiylikni ko'rib.
– Qayerda yashaysan? – so'radim undan.
– Shu atrofa, – u nariroqdagi uylarni ko'rsatdi. Yo'l bo'ylab faqat Nutan gapirib ketdi, mening xayolim esa boshqa yerlarda kezardi. Biz Nutanning uyiga yetgach, u bugun kunni juda maroqli o'tkazganini aytди. Qiziq, o'shanda birinchi marta unga qarab chin qatombordan kulib qo'ydim.

BAXT KELTIRGAN SHABNAM

Men uni birinchi marta Mumbaydag'i sohil bo'yida uchratgandim. U qumdan saroy yoki shunga o'xshash nimadir yasash bilan ovora, ko'zlar esa dengizga boqib chaqnardi.

– Salom, – u birinchi bo'lib gap boshladи.

Men boshimni irg'ab javob qaytargan bo'ldim. Kayfiyatim yo'qligi uchun jilmayib qo'yishga ham yaramadim.
– Men qurish bilan bandman, – davom etdi u.

– Ko'rib turibman. Nima bu? – so'radim e'tiborsizlik bilan.

– Eh, bilmasam. Shunchaki qumni juda yaxshi ko'raman.

„Bu yaxshi“, o'yladim men va qumda sirpanib uning shippagini o'ynay boshladim.

– Bu tomchi-yu shabnamlardan qurilgan uy! Qarang, u qaldirg'ochning uyasiga o'xshaydi, – dedi qizcha quvonib.

– Nima deding, tomchi...

– Ha, bu baxt shabnami. Onamning aytishicha, shabnamlar o'zida baxt olib yurar va uni bizga ularshar ekan.

„Alvido, baxt!“ – pichirladim o'zimga o'zim, – „Assalom, qayg'u!“

Yo'linda davom eta boshladim. Mening asablарим buzilgанди, chunkи у qizning hayoti to'la-to'lis, hech qanday dardi yo'q edi.

– Ismingiz nima? – u meni to'xtatdi.

– Prabxa. Mening ismin Prabxa Ativl.

Oradan uch haftalar o'tgach, biz yana sohilda uchrashdik. Mening hatto Nutan bilan salomlashishga ham xoshim yo'q edi.

– Bugun mendan xafa bo'lma, – dedim men. – Yolg'iz qolmoqchiman.

Nutanning ichidan dardli xo'rsiniq eshitildi:

– Nega unday deysiz?

Mening jahlim chiqib, unga o'shqirdim:

– Chunki mening onam o'ldi!

Ichimda esa „Nega bu gapni unga aytayapman?“ deb o'yladim.

– Oh, – dedi Nutan. – Unda baxtsiz kun bo'libdi-da...

– Ha, kecha ham, undan oldingi kun ham, umuman, har kunim baxtsiz... endi ket.

– Og'ridimi?

– Nima?

– Joni og'ridimi? Onangiz o'layotganida...

– Og'rimay bo'ladimi? – men bazo'r shivirladim.

Bir oylardan so'ng men yana sohilda hozir bo'ldim. Biroq Nutan negadir ko'rinnasdi. O'zimmi aybdor sezib, qizchani sog'inayorganimni angladim. Nutanni izlab, uning uyiga yo'l oldim. Eshikni ko'zları shishgan bir yosh ayol ochdi.

– Salom. Mening ismim Prabxa. Qizingiz bugun sohiga kelmadи, uyda bo'lsa kerak?

– Oh, Prabxaji, sizmisiz? Uyga kira qoling... Nutan siz haqingizda juda ko'p gapirgandi. Agar u sizni bezor qilib yuborgan bo'lsa, iltimos, kechiring.

– Unchilik emas, u juda quvnoq qiz ekan. Hozir qayerda?

Ayol xo'rsinib gap boshladi:

– Nutan o'tgan hafta vafot etdi. U oqqon dardi bilan ko'p kurashdi, sizga bu haqda aytmagannidi?

Men zo'rg'a a stolga suyanib, o'zimni tutishga harakat qildim.

– U sohilni juda sevardi, – davom etdi ayol. – Shuning uchun u yerga borishiga to'sqinlik qilmasdym. Sohilda udardini unutardi, qo'lidan hamma ish kelishiga ishonardi. Baxtli kunlarining maskani edi u yer. Biroq so'nggi kunlar-da ahvoli og'irlashib qoldi... – ayolning ovozi titradi. – Siz-ga bir narsani berib qo'yishimni tayinlagandi. Biroz kutib turolasizmi, topib chiqay...

Mening esa boshim gangib qolgan, quloqlarimga ishonmas, hamma eshitiganlarim tushga o'xshardi. Bu bechora ayolni esa nima deb ovutishni bilmasdym.

Ayol menga konvert tutqazdi, uning ustiga qing 'ir-qiy-shiq harflar bilan „Prabxajiga“ deb yozilgandi. Ichimi ochildim. Bu bo'yoq bilan bolalarcha chizilgan surat edi. Unda sap-sariq keng sohil, ko'm-ko'k dengiz, oq-qora qushlar tasvirlangan, ostiga esa „Sizga shabnamlar baxt olib kelsin!“ deb yozilgandi. Ko'zlarim yoshga to'ldi, yuragim anglab bo'lmas tuyg'ular iskanjasida qoldi. Ayolning qo'llaridan tutdim:

– Meni kechiring, kechiring...

Surat hozirgacha men bilan birga, uni ishxonamga osib qo'ygamman. Bu beshtagina so'z, mana necha yildirki, meni baxtisizlikdan asrab kelmoqda. Bugun men Nutan ikk-miz orzu qilgan narsaga erishdim: uning shabnamlari men ga chindan ham Baxt ato etdi.

– Salom. Mening ismim Prabxa. Qizingiz bugun sohiga kelmadи, uyda bo'lsa kerak?

– Oh, Prabxaji, sizmisiz? Uyga kira qoling... Nutan siz haqingizda juda ko'p gapirgandi. Agar u sizni bezor qilib yuborgan bo'lsa, iltimos, kechiring.

monlashmoqda. Men quruq g'o'lakardan oshxonagan keltirib qo'ydim. Onam juda tejamkor bo'lgani uchun g'o'lani avaylab ishlattardi. Shuning uchun doim dimog'i tutunga to'lardi. Men esa bir bog'lam g'o'lani qalab, olov yoqishga kirishdim. So'ng onam uchun qovurilgan non taylorladim. Men onam shu yog' surtilgan nomni yegach, tuzlib ketadi, deb qattiq ishonardim. Keyin choy damlab, piyolalarga quydim.

– Hammasini to'g'ri qildimmi? – so'radim onam kelgach.

- Qaynagan suvdan qoldimi? – dedi onam asta.
- Yarmini choy uchun damlab, qolganini olib qo'ydim, – dedim tezgina.
- Men hech nimaga yaramaydigan onaman...
- Bu mening aybim, – dedim choy ho'plab, – axir, choy damlash uchun choynakka qancha quruq choy solish kerakligini eslolmayman. Ha, o'tirganingizda shol ro'molningizni o'rab oling.
- Men tezda o'mnidan turib, qaynagan suv va bo'sh piyola keltirdim. So'ng kamroq quruq choy solib, me'yordagidek, och rangli choy damladim. Nonushtadan so'ng eshik yoniga borib, maktabga oshiqayotgan tengdoshlarimni kuzatdim.
- Tezroq chiqqa qol, Xari, kech qolasan, – baqirishdi ular.
- Bugun borolmayman. Onamning tobi yo'q, ularga qarab turishim kerak.
- Birorta shifokorni chaqirib kelaymi? – so'tradim onamdan.
- Yo'q. U meni shifoxonaga yuboradi, unda sen nima qilasani? Yaxshisi, dörixonaga borgan-da, yo'talga qarshi kuchli dori olib kela qol.
- Menga yozib bering. Yozib olmasam, nomini uthib qo'yishim mumkin. Ha, „kuchli dori“ deb katta-katta

KICHKINA TABIB

Ertalab uyqudan uyg'onishim bilan oshxonadan onamning yo'ulgani eshtildi. Garchi uning bir necha kundan buyon mazasi yo'qligini sezsam-da, tuzukroq e'tibor ber-magan ekanman. Biz Kasauliga kiraverishdag'i izvosh o'tadigan ko'chada yashardik. Bu yer Shimlaga yaqin, Himatning kichik shaharchalaridan biri edi. Xullas, yo'tal kuchayib borardi. Men kiyinib, shippagimni oyog'imga ilgancha pastki qavatga tushdim. Onam sillasi qurigandanmi, kichkina stulga o'tirib qolgandi. U oshxona kamiminini yoqishga urungan, biroq ishi chappasiga ketgan, shekilli. Shuning uchun nochor qiyofada, yuragi tez-tez urgancha hansirab qolgandi. Men uning yoniqa chopdim.

- Tuzukmisiz, oyin?
- Ikki daqiqada o'zimga kelaman, – dedi u jilmayishga urinib. – G'o'lalar nam tortib qolibdi. Tutun bo'g'zimni achitib yo'taltirdi, xolos.
- Xonangizga bora qoling, olovari o'zim yoqaman.
- Axir, hali bolasan-ku? – dedi u kuyunib. – Men hali ishga borishim kerak.
- Bu ahvolda ishholmaysiz, – dedim men. – Bugun maktabdan qolib, sizga ko'z-quloq bo'laman.
- Sen o'zingga bir piyola choy damlab icholsang, mam-nun bo'lardim, bolam, – dedi onam aybdorona.
- So'ng o'midan turib, tebrangancha tepa qavatga ko'tarildi. Qadamlaridan sezdimki, uning ahvoli tobora yo-

harflar bilan yozing-a. Tushlikka nima ola kelay, sut va nomni?

– Ha, – dedi onam.

Maktabni ortda qoldirib, yo'linda davom etdim. Bu yerda katta tepalik bor edi, men uni kesib chiqayotib, o'n daqiqacha to'xtab, atrofini kuzatdim. Pastida maktab bog'i, stadion, o'tloq go'yo suratda chizilgandek yastanib yotardi. Men shu yerda kun bo'y qolib, tabiatni tomosha qilishni istadim.

Uyga kelganimda, tepa qavatda Urmila xolaning onam bilan o'tiganiga ko'zim tushdi. U onamning yaqin dunganasi edi, uni doim „xola“ deb chaqirardim. U o'rta yoshlarda bo'lib, aqliraso, biroz mish-mishga o'ch, biroq taqvodor ayol edi.

– Yaxshimisiz, oy!? – so'radim men.

– Tuzuk, – onam jilmaydi.

– Bugun o'mingizdan turmang, – dedi Urmila xolam.

– Sizga choy damlab beraman, – dedim.

– Yaxshisi, men damlay qolay, – dedi xolam.

– Yo'q, siz ovora bo'lmang, xolajon. Men buni o'rganib oldim.

– U juda yaxshi bola-da. Katta bola! Hozir bunaqalarni uchratish qiyin. Bugungi zamон bolalari yovvoyi va berahm bo'slib ulg'aymoqda.

Tush vaqtı onam ko'chada biroz o'ynab kelishim-ga ruxsat berdi. Lekin men uzoqqa ketmadim. Chunki bilardim, agar uydan uzoqlashsam, o'yunga berilib ketib onamni unutib qo'yishim mumkin. Kun g'ira-shira bo'lgach, men oshxonadagi lampamoyni yoqdim. So'ng shamdonni lipillatib, onamning xonasi tomon yo'l oldim. Maqsadim onamga kitob o'qib berish edi. To'g'ri, hali mening talaffuzim unchalik kelishmaydi, boisi biz endigina bir bo'g'linli so'zlarini o'rganayotgandik. Lekin shari-

latib o'qib, validamni xursand qilmoqchi edim. Kechroq Urmila xolam yana keldi. Qaytayotganida eshik yonida to'qnashdik.

– Agar ertalabgacha ahvoli o'nglanmasa, shifokor chiqramiz, – dedi u yelkasi osha menga qarab.

– Nega? Ahvollari shunchalik yomonmi?

– Unday demoqchimasman-u... lekin, menimcha, u zotiljamga yo'liqqan.

– Doktor onamni shifoxonaga olib ketmaydimi?

– Shunga umid qilamiz. Agar olib ketsa, buning yomon tomoni yo'q. Kasal bo'lgandan ko'ra davolansa yaxshi-ku, to'g'rimi? Ha, uyingda brendi bornmi?

– Bor...

– Uni isitib onangga ichir. Xiyla kuch bo'ladii. Lekin onam brendini rad etdi. Men majburlab qoshiqda issiq brendi ichirdim. Keyin onam uyquga ketdi. Men ham shamlarini o'chirib, o'mimga borib yotdim. Biroq ko'zimga uyqu kelmadи. Ko'nglim bo'lmay onamning yoniga bordim. Peshanasini ushlab ko'rsam, issiq ekan, o'zi tinxmay alahsirardi. Men qo'rqib, yonlariga yotib oldim. Agar chindananam zotiljam bo'lsa, unda nima qilamiz?

Ertalab onam o'nglanmadи. Men esa ularning yonlariда parvona edim. Kaminga olovni o'zim yoqdim, onamga sut qaynatib berdim. Keyin Urmila xolamning eshigini qoqib, ahvoldidan boxabar qildim.

– Unda shifokor chaqirish kerak, – dedi u.

Men biroz qarz olish maqsadida sal nariroqda yashaydigan tog'ammikiga yo'l oldim. So'ng shifokorming yoniga bordim. Uyga kelgach, shifokorga suv,sovun va toza sochiq uzatdim. Tushlikka unnay boshladim.

Tushlikdan keyin shifokor meni chaqirdi. U xo'ppa semiz, gulduros tovushli kishi bo'llib, o'zini shaharchanning eng yaxshi shifokoriman, deb hisoblardi.

- Xo'sh, mana buni olib kela olarmikinsan? – dedi u qo'lidagi dorilar yozilgan qog'ozga qarab. – Bu dori „Jekson“ dorixonasidagina bor, xolos.
- Borib kelaman, – dedim shoshib, uming shifoxonadan so'z ochmaganiga quvongancha.
- U juda uzoqda. Qayerdaligini bilasanmi, ishqilib?
- Topib boraman.
- Uning aqli yetarmikin? – shubhalanib so'radi shifokor onamdan.
- U dunyodagi eng aqlli bola, katta yigit bo'lib qolgan...
- Unda mayli. Onanga g'amxo'rlik qil, avayla. Ko'-pincha bunga kattalar ham amal qilmaydi...
- Onam menga „Jekson“ dorixonasiga qanday borishni tushuntirdi, keyin qo'llimga jiggarrang dorilar qog'ozini tutqazdi. Men yo'l-yo'lakay katta bolaligimdan mammun jilmayardim. Ma'buda Parvatidan esa onamga timmay sog'liq tilardim. Agar doridan pul ortsa, onam uchun o'n paysaga shirimlik sotib olishni ham mo'hjalladim. Ibodatxona yaqinidagi „Jekson“ dorixonasini topib bordim. U yerda bir kichkinka qizni uchratdim.
- Sen biroz navbat kutishing lozim, – dedi qiz.
- Nega? – hayron bo'ldim men.
- Dorixonachi amaki mening dorimni tayyorlaguncha kutishing kerak.
- Men dorilar ro'yxatini amakiga uzatgach, qiz o'tirgan stulming yoniga cho'kdim.
- Qayerliksan? – so'radi qiz. – Men Kolonel tarafda turaman. Dori kim uchun?
- Onamga.
- Kasal bo'lib qoldimi?
- Qattiq yo'talyapti.
- Balki, zotiljamdir, – dedi qiz o'ylanib. – Opam ham

o'tgan yili zotiljam tufayli olamdan o'tgan. Men olmoqchi bo'lgan dori esa narigi opamga. U doim darmondori ichib turishi kerak. Qayerda yashayman deding?

Men yashash joyimni tushuntirdim: baland tog'lar yonbag'ridagi uycha. Keyin qiz o'zining uyini ta'riflab berdi. „Ularning uyi biznikidan chiroyli ekan“, deb o'yladim men uni tinglagach. Qizcha gapdon, ochiqko'ngil edi. Biz amaking chaqirganini ham eshitmay qolibmiz.

– Mana, – dedi amaki qizga shisha idishdag'i dorini uzatib. Qiz unga yigirma besh paysa berib, rahmat aytdi va menga o'girildi:

– Semiki tayyor bo'lguncha birga o'tirib turaman. Qiz dori tayyor bo'lguncha men bilan o'tirdi. Amakiga yigirma besh paysa berdim va biz tashqariga chiqdik. Origan pulimga shirinlik sotib oldim va qiz bilan to'ngaga o'tirib, uni yeyta boshladik. Atrofdagi yosh nihollar, osmondag'i quyosh, mayin shabada, hatto soyalarimiz ham ajoyib edi.

– Mening dorim juda achchiq, – dedi u. – Xohlasang, ichib ko'r, judayam yomon.

Men uning shishasidagi dorini bir ho'plab ko'rdim. U chindananam juda taxir edi. Keyin u mening dorimdan tatib ko'rdi.

– Juda shirin ekan, – dedi so'ng. – Yo'taldorilar o'zi shirin bo'ladi. O'zing ham ichib ko'rgin. Chindan ham dori og'zimga yozdi, u xuddi shokoladga o'xshardi.

– Menga yana ozgina ber, – dedi u.

– Unda tugab qoladi-da...

– Qara, hali tagida ko'p-ku!

Unga yo'q deyolmadim. Qizning sochlari och tusa, ko'zlar kattakatta, chiroyli edi. Birozdan so'ng men

shishaga qarab, xavotirga rusha boshladim. U deyarli bo'-shab qolgandi. „Endi nima qillaman?“ o'yladim men.

– Oxirigacha ichib qo'ya qol, – dedi qiz. Men uning aytganini qildim. Keyin bo'sh shishaga qarab, ma'buda Parvatiga qilgan nolamni esladim. Afsuski, ortgan pul – yigirma besh paysani ham ishlatib qo'ygandim. Men asabiylasha boshladim, qiz esa menga ahamiyat bermassi. U meni al-dab, dorini so'nggi tomchisigacha ichib qo'ydi. Qo'llarimni yuzimga bosib yig'lab yubordim.

– Nega yig'layapsan? – so'radi u hayron bo'lib.

– Onam kasal, biz esa uning dorisini ichib qo'ydik.

– Yosh bolaga o'xshamasang-chi! Po'kagi chiqib, dori to'kilib ketdi, desang hech nima qilmaydi. Axir, shunaqa bo'lishi ham mumkin edi.

– Men ma'buda Parvatiga so'z bergandim. Pulni onanga sarflayman, deb. Lekin uni sen uchun ishlatib yubordim. Men jahl bilan shishani otib yubordim va yugurib ketdim. Meni endi faqat bir narsa – mo'jiza qutqara olardi. Men ibodatxonaga kirib, ma'budaga iltijo qila boshladim. Aybim uchun tavba qilib, menga yordam berishini o'tindim: qani endi uyga borganimda onam tuzalib ketgan bo'lsa...

U yerdan qaytarkanman, go'zal tabiat ko'zimga balo bo'lib ko'rindari.

Uyimizda sukunat hukmron edi, faqat olovning charshurs tovushi eshitilardi. Onam hamon to'shakda cho'zilib yotgandi.

– Nima gap, o'g'lim? – dedi u xonaga yaqinlashishim bilan.

– Men dorini yo'qotib qo'ydim.

Shunday degach, o'qdek uchib o'zimni yotog'imga tashladim va yig'lab yubordim.

– Oh, yuzingni yuv, bolam. Bunda sening aybing yo'q. –

Onam ortimdan kirib, sochlarni siladi. – Tanang judayam issiq, bir nima bo'ldimi?

– Men dorini ichib qo'ydum, – aybimni tan oldim.

– Hechqisi yo'q, – shivirladi onam. – Hali o'zing go'-daksan-da... Bu mening aybim, seni katta bola deb urintirib qo'ydum. Endi yechinib, joyingga yot.

Onam o'midan turib, oyoq kiyimimni yechib qo'ydi. Men esa tezda uxbab qoldim. Onamning chiqib ketganimi ham sezmadim. Ko'zlarimni g'ira-shira ochib, Urmila xola tepamda jilmaygancha peshnamni silayotganini pay-qadim.

– Hechqisi yo'q, – dedi xolam. – Ancha uxlab olding. Onasining o'miga yotib olibdi-da...

Keyin onamning lampamoy ko'tarib yonimda o'tirganimi ko'rdim. U menga jilmayib qo'ydi. Mening ko'nglim joyiga tushdi. Chindan ham mo'jiza sodir bo'lgandi...

Onam ortimdan kirib, sochlarni siladi. – Tanang judayam issiq, bir nima bo'ldimi? – dedi onam. – Hali o'zing go'-daksan-da... Bu mening aybim, seni katta bola deb urintirib qo'ydum. Endi yechinib, joyingga yot. – Hechqisi yo'q, – dedi xolam. – Ancha uxlab olding. Onasining o'miga yotib olibdi-da... Keyin onamning lampamoy ko'tarib yonimda o'tirganimi ko'rdim. U menga jilmayib qo'ydi. Mening ko'nglim joyiga tushdi. Chindan ham mo'jiza sodir bo'lgandi...
— — — — —

- Men bilan yur, Ajay. I dushen shuňatun haçan TV dased
Ular ayvondan chiqib, tashqaridagi oyoq kiyim do'ko-
niga yo'l olishdi.
- Shu yerda o'tir, – buyurdi muallima.
- So'ng sotuvchiga yuzlandi:
- Mana bu bolaga loyiq keladigan botinkangiz bormi?
- Sotuvchi uning o'lchamini so'ragach, Ajayga loppa-
loyiq bir botinkani tutqazdi. Qo'lidagi karton qutini qu-
choqlab olgan bolakay o'qituvchisiga ergashdi, biroq ular
gaphlashishmay, kiyim do'koniga kirishdi. Bu yerda o'qitu-
vchisi Ajayga yangi ko'yak va shim sotib oldi. Bola pesh-
taxtadagi narxlarga qarab, umrida buncha pulni ko'rma-
ganligi uchun esankiradi. Xariddan so'ng ular maktabga
qaytishdi va bir piyoladan issiq choy ichishdi. Ajay esa o'z
minnatdorchilagini qanday ifodalashni bilmasdi.
- Endi esa uyingga bora qol, – dedi muallima birozdan
so'ng.
- Bu yaxshiliqingizni hech qachon umutmayman!... –
shivirladi bolakay xonadan chiqar ekan.
- Bir qancha vaqtidan so'ng maktab yopildi, o'quvchi va
o'qituvchilar quvildi. Ajay esa minnatdorchilik bildiro-
may qoldi, boisi o'qituvchisi yo'qolib qolgandi.
- Ajay faqat bir maqsadda – muallimasi ko'ziga uyalmay
qarash va qilgan yaxshiligi zoye ketmaganligi, bilimli in-
songa aylanganligini isbotlash uchun tinim bilmay izlanardi.
O'qishga ixlos qo'ygan Ajay ulg'ayib yetuk muhandis bo'ldi.
Uylanib, ikki o'g'ilning otasiga aylandi. To'qson birinchi yil-
ga kelib, Ajay yurak xurujitufayli kasalxonaga tushdi. Shun-
da o'sha qadrdon o'qituvchisini yodga oldi va izlashlarini
buyurdi. U Kumar xonim tirikligiga umid qilar va qayerda
yashashi bilan juda qiziqardi. Avgust oyida, nihoyat, qish-
log'idagi maktabdan xat keldi, uni Kumar xonimning o'g'li
yozgandi. Aytishicha, Kumar xonim va janob Kumar o'n

MINNATDORCHILIK GULLARI

Ajay Prasad birdan qizardi. Nega uning muallimasi
bolaga peshonasini tirishtirib, norozi qarayapti ekan? O'n
yoshli bolakay tik qomatli, yuzida hamisha tabassum bilan
yuradigan Kumar xonimmi juda hurnat qillardı. Muallima
doim uning boshini silab, berilgan topshiriqning javobini
so'rар, о'quvchisi ham vazifalarни to'ppa-to'g'ri bajarardi.
Lekin bugun nima bo'ldi? Bola nima xato qildi ekan?

Maktabdan uyaq qaytgach, Ajay ko'zguga qarab o'qi-
tuvchisining tund qiyofasini jlonlantirishga urindi. Balki,
kiyimi yaroqsiz va yupun bo'lgani uchun shunday qildimi-
kan? Axir, hozir Leknovda ellik uchinchı yilning izg'irin
qahratoni kezmoqda.

Ajayning otasi elliqinchi yilga qadar temir konida usta
bo'lib ishladi. So'ng esa kon yopildi. Ishsizlikdan sarson
bo'lgan kezlar esa onasi bir xonaddonda xizmatchi bo'lib
ishlay boshladı. To'rt farzandli bu oila uch xonali kata-
lakdek uyda istiqomat qilishardi. Kechasi esa kalamushlar
bolalarni bezor qillardı.

Kumar xonim bu kalamushlar haqida bilmasa kerak.
Ajayning boshi qotdi. Axir, u'a lochi o'quvchi-ku, ingliz
tilini hammadan zo'r biladi. Xullas, o'sha tun Ajay muallili-
masidan so'rab barini oydinlashibir olishga qaror qildi.
Biroq ertsasiga ertalab maktabda bu qat'iy qaror quyoshda
qolgan yaxmalakdek erib ketdi. Xayriyatki, darsdan so'ng
Kumar xonimning o'zi bolani maktab avyoniga boshladi.

besh yil avval nafaqaga chiqib, Dehradunga ketishgan ekan. Xatda ularning telefon raqami ham keltirilgandi.

– Allo... – Ajay muallimasi ovozini darhol tanidi.

– Kumar xonim, bu Ajay! Ajay Prasad.

Ajay o'zini obdan tanishtirgach, Sheyla Kumar gap boshladi:

– Ajay, meni kechirasan, seni esolmayapman. U payt-larda och va yupun bolalar juda ko'p edi...

– Hechqisi yo'q, – dedi Ajay va yaqin orada muallimasi yoniga borib uchrashmoqchiligini bildirdi.

– Oh, Ajay, yo'l juda olis-ku?

– Masofaning ahamiyati yo'q, sizni ko'rmoqchiman. Ayol bir muddat jum bo'lib qoldi.

– Men o'sha esingda qolgan o'qituvchining emasman. Hozir juda keksayib, munkillab qolganman.

– Men ham, albatta, yosh bolakay emasman.

Ajay ahvoli o'nglangach, Dehradunga yo'l oldi. Po-yezddan tushib bir dasta qizil attirgul xarid qildi va ayolning manzilini ko'zlab keta boshladi. Sheyla Kumar o'quvchisini eng yaxshi sarisini kiyib, yuziga doimiy tabassumini qo'ndirgancha kutib oldi. Ular stol atrofida qirq yillik xotiralarini gurunglashishdi.

– Sizni, siz olib bergen kiyimlarni ko'p eslardim, – dedi Ajay. Ular xayrashishar ekan, Sheyla xonim o'quvchisi uni yo'qlagani uchun qanday minnatdorchilik bildirishni bilmasdi.

– Oh, Ajay, tilimga so'z kelmaydi.

– Qo'yavering, bir vaqtlar men ham sizning holingizga tushgamman. Mana, niroyat, rahmat aytishga fursat yetibди. Menga qilgan yaxshilingiz xuddi mana shu gullardek samimiy va begard edi. Endi siz shu gullarni asrang...

– Menimcha, bir safar seni kechiramiz, – dedi u kulib.

IYULNING MAYIN SHABBODASI

Malini Tembi Punadagi „Grimfild“ maktabiga muallima bo'lib kelganda yigirma beshinchchi yozini qarshi olgan edi. Ayni paytda bu yoz Dipak Pradanga o'n olti yoshni tuhfa etgandi. Muallima maktabga qadam qo'yishi bilan noq bolalar uni tabriknomalar va pushti gullarga ko'mib tashlashdi. Qiz shunga munosib: juda go'zal edi. Hammaning nazarida, u jazirama iyulda mayin bir shabbobada day bo'lib kirib kelgandi. Yilning aynan shu kunlari ob-havo g'alaati bo'lardi: na issiq, na sovuq. Malini bu yerga kelgandan so'ng go'yo hamma narsa o'z iziga tushgandek bo'ldi.

Birinchi kuni darsning ilk daqiqalarida Malini o'zism-sharifini doskaga yozganidan keyin sinfxona negadir yorishib ketgandek bo'ldi. Bu paytda Dipak qo'lidagi bir parcha qog'ozni g'ijimlab, kimlargadir otish bilan band edi. Darsdan so'ng hamma ketgach esa negadir qo'liga artichini oldi-da, yozuv taxtasini yog' tushsa yalagudek qilib tozaladi.

– Nima qilyapsan? – so radi Tembi xonim stolidan turib bolaga o'girilar ekan. U doskaddagi mashqlarni hali tekshirib bo'lmagandi.

– Doskada bo'sh joy qolmabdi, yordam berish uchun artib qo'ydim. Lekin keyin sizdan so'ramaganim yodimga tushdi...

– Menimcha, bir safar seni kechiramiz, – dedi u kulib.

Ertasiga Dipak yo'lini kesib o'tib, o'qituvchisi yashay-digan uyning qarshisidan chiqdi. Tembi xonim endigina eshikdan chiqayotgan ekan.

- Men shu yerdaman, – dedi bola.
- Qanday yaxshi, – dedi o'qituvchisi ham. – Kutilma-gan tashrif bo'ldi.
- Kitoblariningizni ko'tarishib yuborsam maylimi?
- Albatta. Rahmat, Dipak.

Ular bir necha daqqaq indamay borishdi. Qiz unga mu-loyimlik bilan nazar tashlar va bolaning xursandligidan o'zi ham jilmayardi. Ular maktab binosiga yetib kelish-gach, bola unga o'girildi.

– Yaxshisi, shu yerda ajralamiz. Boshqa o'quvchilar noto'g'ri tushunishi mumkin.

– Shunday deb o'ylaysammi?
– Axir, men o'quvchingiz, siz esa o'qituvchimsizsiz-ku, – dedi Dipak chin dildan kuyunib.

– Dipak... buni o'ylama.

Malini yo'lida davom etdi.

Bir necha hafta ular dars payti gaplashmadilar. Bola har kuni dars tugagach, qiz yozuv-chizuv ishlari bilan bandligi-da, indamay doskani tozalar edi. Ba'zan bu sukunat kechki soat beshgacha ham cho'zilar, qiz ishlarini tugatgach, Dipakning bir chetda jumgina kutib o'tirganiga guvoh bo'lardi.

– Uyga qaytadigan vaqt bo'ldi, – derdi Tembi xonim. Shundan keyin bola darrrov o'qituvchisinинг sumkasini ko'tarib olardi. Ular keng dala bo'ylab ketishar va turli mavzularda gaplashardilar.

– Katta bo'lganingda kim bo'lmochqisan, Dipak? – so'radi o'sha kuni xonim.

– Havo kuchlari uchuvchisi. Men osmonning eng ba-land nuqtasiga chiqmoqchiman va chiroyli tabiatni o'sha yerdan turib kuzatmoqchiman, xuddi qushlar kabi.

– O, maqsading yuksak ekan.
– Bilaman, shuning uchun qattiq harakat qilyapman, – keyin bola bir zum o'ylanib qoldi. – Bir iltimosimga xo'p deysizmi?

– Ha, nima ekan u?
– Men har yakshanba uyingiz yonida joylashgan mar-kaziy xiyobondagi ajoyib ko'lga boraman. Ko'lda bir gala o'rdrag-u baliqlar bor. Balki, siz ham menga sherik bo'larsiz?
– Kechir, yakshanbada men band bo'laman.

– Baribir kutaman.
– Taklifing uchun rahmat.

– Sizni xafa qilib qo'ymadimmi?
– Albatta yo'q, Dipak. Nima so'rasang ham haqqing bor. Bir necha kundan keyin Tembi xonim bolaga „Yozning tungi orzulari“ nomli kitob berdi. Dipak uni tuni bilan o'qib chiqar, so'ngra ikkisi kitob haqida usoq subbatlashishardi. Dipak qiz bilan kunora ko'rishardi. Malini esa unga doim „Boshqa yonimga kelma“, demoqchi bo'lар, biroq bu ish qo'lidan kelmasdi. Bola qizdan maktabga ketish va qaytish chog'i Shekspir, Tagor va Kipling haqida so'rashni yoqti-rardi. Suhhbat chog'i qiz unga qaramaslikka harakat qilar-di. Biroq bir kuni darsdan so'ng bola doimgidek artikchni qo'liga olib, doskani hafsalá bilan artayotgan paytda Mali-ni undan ko'zlarini ololmay bir dam tikilib qoldi...

Yakshanba kuni Dipak ko'lbo'yida baliq tutib o'tirgan-di. Birdan xonimming u tomon kelayotganini ko'rib o'mi-dan turdi.

– Men shu yerdaman, – kuldji qiz.
– Kelganingiz uchun rahmat! Juda xursandman!

– Menga baliqlarni ko'rsat.
Ular ko'l bo'yida o'tirishdi. Yengil shabada qizning sochlarini va sarisini o'ynoqlab, bola tomon hilpiratib uchirar edi. Dipak uning yonidan bir necha qadam nariga surildi.

- Bاليق tutish shunchalik zavqı ekanligini bilmagan
ekanman! – dedi qız.
- Kelganingizdan shunchalik baxtlimanki!..
Nihoyat, ko'l bo'yida Malimi Tembi va Dipak Pradan
uchrashishgandi. Ular soatlab osmonga tikilib o'tirishdi,
Kiplingni o'qishdi va baliq tutishdi.
- Dushanba kuni ertalab Dipak qizning uyidan chiqishi-
ni uzoq poyladi, lekin xonim allaqachon bir o'zi maktabga
ketgandi. Dars payti esa „Boshim og 'riyapti“, deb vaqtli
jo'nadi. Lekin seshanba kuni ular darsdan so'ng yana birga
qolishdi. Dipak doimgidek doskani tozalar, qiz esa daftar-
larni tekshirardi. Nihoyat, saat beshni ko'rsatib bong urdi.
– Dipak, yonimga o'tir, – qiz uni chaqirdi.
– Ha, xonim, – Dipak artikchini joyiga ildi.
Malini o'yga cho'mib yigitga tikildi.
- Dipak, sen bilan nima haqida gaplashmoqchiligidimi
sezgandursan.
- Ha... men haqimdamii?
- Yoshing nechada, Dipak?
- O'n oltida. Yaqinda o'n yettiqa to'laman.
- Men necha yoshdaligimni bilsarsan?
- Ha, yigirma besh. Men ham to'qqiz yıldan so'ng yigir-
ma beshga to'laman. Xonim, buni aytishim kerakmi, yo'qmi,
lekin o'zimni xuddi siz bilan tengdoshdek sezaman...
– Ha, ba'zan buni eplaysan ham.
- Meni kechiring..
- Gapimmi eshit. Oramizda nima bo'layotganini tushu-
nishing men uchun juda muhim. Avvalo, biz faqat do'st
ekanligimizni aytib o'tay. Mening hech qachon sendek
o'quvchim, umuman, sen kabi insonim bo'lmagan.
Yigit bu gapdan qizardi. Qiz o'midan turdi.
- Balki, sening hayotingda ham hali men kabi o'quituv-
chi bo'lmagandir?

- Siz juda ajoyib insonsiz. Judayam, judayam yaxshi-
niliz, xonim.
- Bu haqda ko'p bosh qotirdim, Dipak. Tuyg'ularimni
pisand qilmayapti, deb o'ylama. Sen oddiy yigit emassan.
Bizning betakror, yoqimli kunlarimiz birga o'tdi. Lekin bu
xato edi...
– Men to'qqiz yosh katta va o'n besh santimetrlar
roq bo'lganimda hammasi yaxshilik bilan tugarmidi?
– Ehtimol. Biroq unday emasku. Biz odamlar bir-bi-
rining yoshi va ko'rinishiga qarab muomala qiladigan dun-
yoda yashayapmiz, Dipak. Ba'zan insonlar o'zlarini istagan
ishga qo'l urolmaydilar. Negaligini tushuntirib berolmay-
man.
- Nima qilishimiz kerak unda?
- Hech nima. Meni boshqa maktabga o'tkazishlarini
yo'rab ko'raman.
- Bunday qiliishingizga hojat yo'q, – dedi yigit. – Biz
ko'chayapmiz. Oilam bilan.
- Buning menga aloqasi yo'qmi?
- Yo'q, yo'q, otam shurchaki Mumbaydan ish topibdi. Bu
yerdan 150 km uzoqda, xolos. Ko'rishib tursak bo'ladimi?
- Ha, lekin bundan nima foyda?
- Befoya, ha, befoya...
Sinfida usoq jumlik cho'kdi.
- Nega bunday bo'ldi o'zi? – dedi yigit mahzun.
- Bilmadim. Hech kim bilmasa kerak. Ming yildan
so'ng ham buning sababini bilolmaydilar.
Ular bir-birlariga qaradilar. Vaqt o'tib borardi.
- Bir narsani hech qachon unutmama, – dedi nihoyat qiz. –
Hayot kutilmagan sovg'alarga boy. Dardingga davo bo'-
luvchi insonni hali uchratasan. Yaratgan neki dard bersa,
davosimi ham benardi. Menga ishonasannmi?
- Ishonishni istayman... Sizni sira unutmayman.

(Hindiston)

Qiz o'midan turib doskani arta boshladi. shuji №2 –
– Sizga yordam beraman.

– Yo'q, yo'q, uyingga bora qol...

Yigit maktabni tark etdi. Ortiga qarab, derazadan xonimning hali ham doska tozalayotganiga guvoh bo'ldi.

Dipaklarning oilasi keyingi haftada shahardan ko'chib ketdi. Shu bilan Dipak yigirma ikki yil bu yerga qadam bosmadi. O'ttiz to'qqiz yoshida uylangach, nihoyat, Punganaga kelishga ahd qildi. Bahor kunlарining birida u mashinasini Puna tomon bursdi va bu yerda bir kun qolishni rejalashtirdi.

Dipak rafiqasini mehmонxonada qoldirib, shaharchani bir o'zi sayr qildi va yurak yutib Malini Tembi haqida so'radi.

– E, ha, bechora o'qituvchi. U 1952-yili vafot etdi, sen ketganindan bir yil o'tgach, – dedi keksa o'qituvchi.

– U... turmushga chiqqanmidi?

– Yo'q, chiqmadи. O'lmidtan oldingi oylar juda g'amgin va baxtsiz ko'ringandi.

Ertasi kuni odamlar Dipakning xotinini ko'rishganini aytishdi. U xuddi iyulning mayin shabbodasi kabi go'zal ekan. Shu kunlarda havo tushunarsiz edi: na sovuq deysiz, na issiq. Dipakning rafiqasi kelgach, go'yo hamma narsa iziga tushgandek tuyuldi...

Standard ga'zib bo'lgan qiz qo'shishni qilibeni til o'ttizdi. Javosha qiz qo'shishni qilibeni til o'ttizdi.

– Oyijon, Xudo qayerda? U odamlarga qanday yordam berishi mumkin? Mening uy vazifalarimi tayyorlashga ham ko'maklasharmikin?

– Xudo Ko'kda yashaydi, o'g'lim. U tepadan turib odamlarni kuzatadi va muhtoj kimsalarga yordam qo'lini berishi mumkin. U o'g'lim, qayta qurayman...

VARATGANNING YERDAGI FARISHTASI

Ishdan qaytayotgandim. Bir payt ko'cha chetida tur-gancha qo'lidagi fleytasini sotishga urinayotgan bir bolakayga ko'zim tushdi. U o'tgan-ketganlarga yalingan-cha, buyumini xarid qilishlarini so'rар, ammo shoshqaloq odamlar unga e'tibor ham bermasdilar. Bolakay yig'lar-di... Rahmim kelib, unga biroz pul tutqazdim. Ammo u keskin rad etdi.

– Yo'q, xola, men gadoy emasman. Mana shu... fleytam-ni sotib oling, menga pul juda zarur, iltimos!...

Menga fleytaning keragi yo'q edi. Buni unga tushuntiedim va pulni olaverishini aytdim. Bolakay baribir ko'n-mudi.

– Ololmayman, uyimdagilarga halol pul berishni istayman. Bisotimda shugina fleytam bor...
Uyga keldim. Erimga bu noxush voqeani gapirib berdim.

– Xudoning o'zi unga ko'mak bersin! – qo'shib qo'ydim gapimning so'ngida.

Bir chetda o'g'lim gaplarimni eshitib turgan ekan. U yugurib huzurimga keldi va so'roqqa tutdi:

– Oyijon, Xudo qayerda? U odamlarga qanday yordam berishi mumkin? Mening uy vazifalarimi tayyorlashga ham ko'maklasharmikin?

– Xudo Ko'kda yashaydi, o'g'lim. U tepadan turib

odamlarni kuzatadi va muhtoj kimsalarga yordam qo'lini berishi mumkin. U o'g'lim, qayta qurayman...

cho'zadi. Uning qudratı cheksiz. Ammo sening uy vazifangga yordam berolmaydi. Chunki bu sening yumushing, tushundjingmi. bolaginam?

- Odamlarga tepadan turib qanday yordam beradi

unda? Yerga tushib qarashsa bo'lmaydimi?
— Xudo bирорта bandasi orqali o'sha g'arib insonga ko'mak ko'rsatadi. Xudodan yordam so'rasarak, kimdir yoki nimadir orqali so'ragan narsamiz, albatta, yetib keladi.

— Unda nega anavi bolaga Xudo yordamchi yubormadi? Balki, Xudo sizni yordamchi qilib yuborgandir... Bu gapni eshitib qizariib keldim. Tumi bilan uxlolmadim. Ertaga, albatta, o'sha fleytani sotib olishga qaror qildim. Bugun bermoqchi bo'lgan pulimga ozgina qo'shsam bo'ldi, fleytani olaman. Tong otishi bilan ishga otlandim. Ko'chaga chiqib o'sha bolakay turgan joyga halloslab yetib keldim. Ammo... u yo'q edi. Kunlar kunlarga ularadi, ammo ishga ketishimda ham, qaytishimda ham uni ko'rmasdim. Balki, Xudo unga boshqa bir inson orqali ko'mak yuborgandir... Bu fikr menga ancha tasallি berdi. Biroq... nega bunday sharafli ishni vaqtida bajarolmadim:

Odamzod doim buyuk ishlar xayolida yuradi. Go'yoki
bir bolakayga yordam qo'lini cho'zish oddiy, xashaki ish-
deklaratsiyasi tiboraa olmavdi.

Oradan vaqt o'tdi. Buni unutib yubordim. Yana o'z dumyomga sho'ng'ib ketdim. Ammo o'g'limming qalbida o'sha so'zlar bir umrغا muhrlanib qolgan: „Yaratgan banchasi orqali ko'mak yuboradi...“ U kambag'al do'stlariga o'z o'yinchoqlaridan ulashishni kanda qilmaydi. Men esa bundan ba'zan raniyman.

- Hamma o'ynichoqlaringni berib yuborsang, o'zingg' nima coladi - deb kovish turaman O'g'lim esa:

- Xudo mening dilimga soldi, anavi o'yinchog'i yo'ca
nimia qoradi, - deu koyiyo turanian. O g'ini esa.

holgu bersang, men senga undan-da ko'p beraman, de-
yandek bo'idi, - deydi jilmayib.

Men esa shu zahoti jahldan tushib, bolamni quchib

- Xudo menga yordam berishingiz uchun sizni – onam-ni yaratgan ekan, buni bilib oldim, – deydi u ham bo'yim-dan quchoqlab.

Bug'rimga Yaratganning mitti farishtasini bosib o'tirishimdan juda baxtivor bo'lib ketaman...

Journal of Health Politics, Policy and Law, Vol. 30, No. 3, June 2005
DOI 10.1215/03616878-30-3 © 2005 by The University of Chicago

...and I am still learning how to do it.

Karim MALLESH (Hindiston)

O'ZGARGAN QAROR

Yuqori muktaboga endigina o'tgan paytalarim o'zim tengi bir bolani uchratib qoldim. U ham men kabi muktabadan qaytayotgandi. Uning ismi Kayl ekan. Kayl qo'lida bir dunyo kitob ko'targancha ketib borardi. O'zimcha o'ylab qoldim: „Juma kuni shuncha kitobni uyiga olib ketib nima qilarkin? Juda o'qimishli, shekilli“.

Men esa dam olish kumлari do'stlarim bilan futbol o'y-namoqchi va o'tirishga bormoqchi edim. Unga tan bergancha yo'limda davom etdim. Sal yurgach, bir to'da yigitlar Kaylini o'rab olgанига ko'zim tushdi. Yigitlar uning atrofida sakrashar, kitoblarini irg'itishar, Kayl esa chang bo'lган kitoblarini yig'ish bilan ovora edi. Uning ko'zoynagini buzilib ketdi. Yugurib uning yoniغا bordim. Ko'zoynagini topishga ko'maklashdim. Nigoohlari juda alamli edi. Unga ko'zoynagini tutqazar ekanman, dedim:

– Bu yigitlar ahmoq o'zi. E'tibor berma.

U menga qaradi.

– Rahmat.

Uning lablari jilmaydi.

Bu baxtli nigoohlardan ta'sirlanib, unga ko'maklashishga qaror qildim. Kitoblarini yig'ishtrayotib, uyi qayerdiligi so'radiim. Menga yaqin yerda yasharkan.

– Qiziq, negadir oldin seni ko'rmagan ekanman, – dedim men.

– Men xususiy muktabga qatmayman, – izoh berdi u. Ilgari xususiy muktabda o'qiydig'an bolalar bilan tanishmagan edim. Biz yo'l-yo'lakay gaplashib ketdik. U juda sumimiy bola ekan. Unga yakshamba kuni men va do'stlarim bilan futbol o'ynashni taklif qildim. U rozi bo'lди.

Dam olish kunlarini u bilan o'tkazgach, Kaylini yashiroq bilib oldim. Bilganim sari u menga yоqib borardi. Dushanba kuni u yana o'sha kitoblarni ko'targancha maktabiga ketayotgandi. Yo'lida uni to'xtatdim:

– Shuncha kitobni olib kelib-olib ketib mushaklaringni o'stirmoqchimisan deyman?

– U kulib qo'yidi va ko'tarishib yuborishim uchun kitoblarning yarmini berdi.

Keyingi to'rt yil ichida Kayl va men yaqin do'stlariga aylandik. Muktabni bitirayotib kiradigan kollejimiz haqidagi suhbatlasha boshladik. Kayl Jorjtaunda, men esa Dukdu o'qishni ma'qul ko'rdik. Garchi boshqa-boshqa yerlarida o'qisak-da, do'stligimiz buzilmasligini bilardik. Men shifokor, u esa futbol muktabi ochish maqsadida tadbirkor bo'lishga qaror qilgandik.

Muktabidagi bitiruv kechasiga Kayl xayrashuv nutqini tayyorlashi kerak ekan. U notiqlik bo'yicha mashq qila boshladi.

Uning bitiruv kechasiga bordim. Kayl juda xush kayfiyatda edi. Hatto ko'zoynaklari ham o'ziga yarashib turarli, Buni qarangki, yuqori muktabda uni ko'p qizlar yaxshi ko'rarkan. Kayhning nutq oldidan hayajonlanayotganini ozdim. Shu sabab uning yonida daldab o'ldim:

– Hey katta yigit, hammasi yaxshi bo'ladi!

U menga mimmatdorona nigohlarini tikdi:

– Rahmat!

Kayl tomoni qarorini bir qirib oldi-da, sahnada nutqini boshladi:

– Bitiruv kechasi, bu o'tgan yillar ichida bizga ko'mak-lashgan barcha-barchaga minnatdorchilik bildirish kechassisidir. Ota-onalarimiz va ustozlarimiz, sizga ta'zim, lekin birinchil o'rinda do'stlarimizga! Men bugun inson hayotida do'stlarning o'mni naqadar yuksak ekanligi haqida so'zla-moqchiman.

Uning hikoyasi menga-da notanish edi. Biroq uni ting-lagach, ko'zlarimga yosh keldi. Aytishicha, o'sha bizlar tanishgan kun Kayl o'zini o'lidirmoqchi bo'lib, kitoblarini ham maktabidan shu maqsadda uyiga eltilib qo'yayotgan ekan. Toki keyin onasi sarson bo'lib, uning buyumlarini maktabidan uyga tashimasligi uchun. Xullas, o'sha kuni meni uchratib qolgach, bu fikridan qaytibdi.

– Senga rahmat, do'stim, – u menga qaradi, – sen men-da yashashga ishtiyoq uyg'otding!

Yig'ilganlar menga hayrat ila boqishdi. Kayning ota-onasi ham menga qarab jilmayishdi. Men esa biringina daldam va tabassumim bilan kelajagi buyuk bir insonni saqlab qolganimidan shod edim. Odamlardan shirin so'z-niz va mehringizni ayamang, do'star!

Bir kuni ranglar o'rtasida bahs boshlanibdi. Ular qaysi rang eng yaxshi ekanligi borasida ko'p tortishibdi. Axir, hammalari o'zicha chiroyli, kerakli va sevimli edilar-da. Yashil rang so'z ochibdi:

– Men eng zaruriy rang bo'laman. Chunki hayot va umid belgisiman. O'tloqlar, daraxtlar, yaproqlar, umuman, tabiat mendan rang olgan. Men bo'lmasam, butun jonzot va o'simliklar tirk bo'lmas edi. Axir, atrosga bir nazar tashlang, meni ko'rmas!

Moviy rang uning gapini bo'libdi:
Sen faqtgina Yer haqida o'ylayapsan, ammo osmon va dengizlar-chi? Ularning hayotimizdag'i o'rnni o'ylab ko'rmaddingmi? Axir, hamma narsaning asosi suv-ku? Osmon bo'lnasa, yong'ir-u qor yog'masa, nima bo'lishini tasavvur qilyapsizlarmi? Bular bizga timchlik ato etadi. Men bo'lmasam, insoniyat ham, umuman, hech narsa paydo bo'lmas edi.

Bu so'zlarни eshitib sariq rang kulimsirabdi:
– Biram balandparvoz gaplarga o'chsizlarki! Aslida, hayotda quvonch, shodlik, ilqlikdan ham chiroyli narsa bormi? Men odamlarga kulgi, tabassum ulashaman. Ayting-lar-chi, quyoshsiz yashab bo'ladi mi? Aynan quyosh nurlari insoniyatga issiqlik bag'ishlaydi. Mensiz gullar ochilmaydi, yulduzlar charaqlamaydi. Ko'rdingiz, men bo'lmasam, dunyo naqadar qayg'u va qorong'ilikka ko'millardi.

RANGLAR BAHSI

Suhbatga olovrang ham qo'shilibdi:

– Men kuch va sog'lik ramziman. To'g'ri, tabiatda kam uchrasam-da, ammo inson hayoti uchun juda muhimman. Darmondorilarning asosiy qismi menda mujassam. Sabzi, apelsin, mango, papaya, qovoqda darmonlarim bor. Quyosh botishida ham ishtirok etaman. Bunday go'zallik yana qayda bor!

Qizil rang bu gaplarga chidayolmay hayqiribdi:

– Aslida, men hammangizingning ustingizdan hukmron bo'lismish kerak. Men qon tuisidaman. Demak, ha-yot mensiz bo'lmaydi. Jasurlik, dovyuraklik ramziman. Janglarda g'olib bo'laman. Ehtiros va muhabbat ham mendan yaralgan. Eng go'zal sovg'a – atirgul mening rangimda!

Xullas, o'rtaga boshqa ranglar ham qo'shilib, bahs davom etibdi. Hammasi o'zini maqtar, ustunlik jihatlarini sanar, past ketishni istamasdi. Shu payt bordan osmon charaqlab, gulduros chaqmoq chaqibdi va sharros yomg'ir quyib yuboribdi. Ranglar dahshat ichida bir-biriga yaqinlashib, qunishgancha o'tirishibdi. Chaqmoq ichidan baland ovoz eshitilibdi.

– Ey tentak ranglar, buncha o'zingizni ko'klarga ko'tarmasangiz? Axir, tabiatda hammangizingning o'z o'mingiz borligi, bir-biringizsiz mavjud – bo'lolmasligingizni natotki tushummag'an bo'lsangiz? Quyosh chiqsa, daraxtlar ko'karadi. Yomg'ir yog'sa, gullar ochiladi. Suv bo'lsa, hayot paydo bo'ladi. Muhabbat yaralsa, umid tug'iladi. O't-o'lan bo'lsa, jonzotlar yashay oladi. Demakki, yashil sariqsiz, qizil moviysiz, olovrang yashilsiz mayjud bo'lomas ekan! Yaxshisi, birlashib, o'zaro kelishgan holda insoniyat va tabiatga in'omlar qilishda davom eting. Dunyoda faqatgina bitta rang qoladigan bo'lsa, hayot tugaydi, buni aslo unutmang!

– Men kuch va sog'lik ramziman. To'g'ri, tabiatda kam uchrasam-da, ammo inson hayoti uchun juda muhimman. Darmondorilarning asosiy qismi menda mujassam. Sabzi, apelsin, mango, papaya, qovoqda darmonlarim bor. Quyosh botishida ham ishtirok etaman. Bunday go'zallik yana qayda bor!

Qizil rang bu gaplarga chidayolmay hayqiribdi:

– Aslida, men hammangizingning ustingizdan hukmron bo'lismish kerak. Men qon tuisidaman. Demak, ha-yot mensiz bo'lmaydi. Jasurlik, dovyuraklik ramziman. Janglarda g'olib bo'laman. Ehtiros va muhabbat ham mendan yaralgan. Eng go'zal sovg'a – atirgul mening rangimda!

Xullas, o'rtaga boshqa ranglar ham qo'shilib, bahs davom etibdi. Hammasi o'zini maqtar, ustunlik jihatlarini sanar, past ketishni istamasdi. Shu payt bordan osmon charaqlab, gulduros chaqmoq chaqibdi va sharros yomg'ir quyib yuboribdi. Ranglar dahshat ichida bir-biriga yaqinlashib, qunishgancha o'tirishibdi. Chaqmoq ichidan baland ovoz eshitilibdi.

– Ey tentak ranglar, buncha o'zingizni ko'klarga ko'tarmasangiz? Axir, tabiatda hammangizingning o'z o'mingiz borligi, bir-biringizsiz mavjud – bo'lolmasligingizni natotki tushummag'an bo'lsangiz? Quyosh chiqsa, daraxtlar ko'karadi. Yomg'ir yog'sa, gullar ochiladi. Suv bo'lsa, hayot paydo bo'ladi. Muhabbat yaralsa, umid tug'iladi. O't-o'lan bo'lsa, jonzotlar yashay oladi. Demakki, yashil sariqsiz, qizil moviysiz, olovrang yashilsiz mayjud bo'lomas ekan! Yaxshisi, birlashib, o'zaro kelishgan holda insoniyat va tabiatga in'omlar qilishda davom eting. Dunyoda faqatgina bitta rang qoladigan bo'lsa, hayot tugaydi, buni aslo unutmang!

SIRK

– Aslida, men hammangizingning ustingizdan hukmron bo'lismish kerak. Men qon tuisidaman. Demak, ha-yot mensiz bo'lmaydi. Jasurlik, dovyuraklik ramziman. Janglarda g'olib bo'laman. Ehtiros va muhabbat ham mendan yaralgan. Eng go'zal sovg'a – atirgul mening rangimda!

Xullas, o'rtaga boshqa ranglar ham qo'shilib, bahs davom etibdi. Hammasi o'zini maqtar, ustunlik jihatlarini sanar, past ketishni istamasdi. Shu payt bordan osmon charaqlab, gulduros chaqmoq chaqibdi va sharros yomg'ir quyib yuboribdi. Ranglar dahshat ichida bir-biriga yaqinlashib, qunishgancha o'tirishibdi. Chaqmoq ichidan baland ovoz eshitilibdi.

– Ey tentak ranglar, buncha o'zingizni ko'klarga ko'tarmasangiz? Axir, tabiatda hammangizingning o'z o'mingiz borligi, bir-biringizsiz mavjud – bo'lolmasligingizni natotki tushummag'an bo'lsangiz? Quyosh chiqsa, daraxtlar ko'karadi. Yomg'ir yog'sa, gullar ochiladi. Suv bo'lsa, hayot paydo bo'ladi. Muhabbat yaralsa, umid tug'iladi. O't-o'lan bo'lsa, jonzotlar yashay oladi. Demakki, yashil sariqsiz, qizil moviysiz, olovrang yashilsiz mayjud bo'lomas ekan! Yaxshisi, birlashib, o'zaro kelishgan holda insoniyat va tabiatga in'omlar qilishda davom eting. Dunyoda faqatgina bitta rang qoladigan bo'lsa, hayot tugaydi, buni aslo unutmang!

Bir kuni dadam bilan sirkka yo'l oldik. Navbatda turar ekamiz, bizdan oldimroqdag'i bir oilaga ko'zim tushdi. Ota-onasining pinjiga tiqilib, ko'zlarida ajib bir hayajon bilan navbatini kutayotgan sakkiz nafer bolakayning bari 12 yoshdan kichik edi. Ularni boy deb bo'Imas, shunday bo'lsa-da, tarbiya ko'rghanligi toza va ozoda liboslaridan sezilib turar, o'zlarini sipo tutishardi. Nihoyat, ularning navbatni ham yetib keldi. Ota chiptachiga qarab hayajon bilan so'z qotdi:

– Ikkita kattalar va sakkizta bolalar chiptasidan ber-sangiz.

Chiptachi qiz narxni hisobladи-da, qancha bo'lganini aytdi. Erkak kalovlanib goldi. Hoynahoy, u chiptalar burchalik qimmat narxda sotilishini kutmagan, buncha puli yo'qili ko'rinib turardi. Bolalar esa hamon intiqlik bilan sirk tomon qarab qo'yishar, otalarining tezroq chipta olishini va „Ketdik, bolalar!“ deyishimi kutishardi. Voqeani bir men emas, dadam ham kuzatib turgan ekanlar. Tan olishim kerak, bizning oila o'ziga to'q bo'lib, bu kabi tomoshalar menga orzu emas, shunchaki ko'ngilocharlik hisoblanardi. Dadam qo'li ochiq inson edi.

Erkak nima qilarini bilmay turgan payt dadam asta ularning yoniga bordi va bildirmay cho'ntagidan 20 dollarlikni „tushirib yubordi“. Keyin bilmagan kishi bo'lib haligi odamni turtdi.

- Janob, pulingiz tushib qolibdi-ku, - dedi ajablanib va pulni yerdan olib erkakka uzatdi.

U-111: -dane hinc sculensis soldi va illi mudi

Halıqı odam bıroz o yiambo qıduı va jumayıdı.
— Rahmat!.. Ammo bu mening pulim emas

iqib qolar.

Dadam inday olmadı. Erkak bolalarını yetaklab ortiga qayıdı. O'sha kuni sirkka tushgim kelmedi. Biz ham uygak etdik.

KAMBAG' AL AMMO BOY OIL

Yangi yil yaqinlashgan sari biz – do'stlar bir-biri
miznikiga kechki taomga tashrif buyurishga kelishib
oldik. Birinchi gal bir do'stimmikiga boradigan bo'ldik.
Men uning qayerda va qanday yashashidan bexabar edim.
U kollejga avtobusda kelib ketardi. Uning uyiga yetib
borgach, tilim aylanmay qoldi. Bitmagan uyning devor-
lari nuragan, hindlarning o'rtahol oilasidan ham abgor ah-
volda edi. Lekin ota-onasining mulozamatidan keyin bu
kamchilik sezilmay qoldi. Ular bizni mehribonlik bilan
ichkariga taklif etishdi. O'tirib ovqatlanadigan stol yo'q
shekilli, yerga dasturxon tuzashdi. Uy bekasi bizni ajoyib
bir taom bilan siyladi: uning ta'mi haligacha og'zimdan
ketmaydi. Do'stimmung otasi mexanik bo'lib ishlar, top-
gan puli ikki o'g'lining o'qishi uchun surf bo'larkan. Ota-
si bizni kelgamimizdan xabar topib, ishidan barvaqt qay-
tibdi. U ust-boshi moyga belangan bir ahvolda kirib keldi.
Do'stim bu holdan xijolat tortmay, bizni tanishtirdi. Bu
xotirjamlikdan biz ham o'zimizni erkin his eta boshladik.
Birozdan so'ng do'stim bizzdan „Shirinlik yeysizlarmi?“
deb so'radi. Bir nima deb ulgurmasisizdan otasi tash-
qariga chiqib ketdi va bizga shirinlik keltirdi. Shunday
kambag'al... ammo badavlat xonadon barchamizda yax-
shi taassurot qoldirdi.

Oradan ancha yillar o'tdi. Do'stim hozir katta bir idoraning boshlig'i. Haydaroboddagi o'sha eski uyimi tiklab,

ajoyib koshona qurdirgan. Haligacha har Yangi yilda bizni mehmonga chaqiradi. Uylaridagi o'sha nur esa menga yana-da porloq ko'rindi. Do'stimming aytishicha, aslida, u o'sha kuni, bizni ilk marta uyiga takdir etganda juda haya-jonlangan ekan. Agar o'shanda biz uni mensimay, ketib qolganimizda uning umidini sindirgan bo'lardik. U o'sha Yangi yilni haligacha entikib eslaydi.

— Shuncha pulingiz bo'la turib, bayramning shuni ravo ko'rdingizmi?

Yigit shunday deb kitobni tashlagancha, eshikni qars yopib chiqib ketibdi.

Oradan ancha yillar o'tibdi. Yigit tadbirkorlikda katta omadga erishibdi. Uning ajoyib uyi, mehribon oilasi bor edi. Bir kuni yigit keksa otasini ko'rib kelishga ahd qilibdi. Chunki u o'sha Bitiruv kunitdan so'ng otasini boshqa ko'rmagan va ko'rishni istamagan edi. Yo'lg'a chiqishdan oldin yigitiga telegramma kelibdi. Unda otasining vafot etgani va bor davlatini o'g'liga qoldirgani yozilgandi. Yigit

Kiran KUMAR (Hindiston)

— U o'shitan deb qurinishi U ibdu leed suv (Hindiston)
shaxse nif 'o nomid dobiq qinto mayzal dildauz is q by th
ketas uzbeki nafli deboq alla'reca libidauz is'siz usjymayut
shaxs abnog'ligi eginalari o'quvchalar u'zbekech qolparva
qolparva qolparva Qurush. Olibdauz dins qat qaytarib uzbeki
mazhar haxor'go qolparva qolparva qolparva qolparva

SO'NGGI SOVG'A

Yosh bir yigit kollejini tugatish arafasida turgan edi. U bir necha oydan buyon do'kon ko'rgazmasida turgan sport mashinasidan zavqlanardi. Yigit otasining mashinani olib berishiga ishonar, boisi shu paytgacha o'g'li neki istamsin, bari muhayyo etilardi. Bitiruv kuni yaqinlashgani sa-yin yigit otasi mashina olib berishini sabrsizlik bilan kuta boshlabdi. Nihoyat, Bitiruv kuni kelganda, erta tongdanoq ota o'g'lini o'z xonasiga chorlabdi. Ota gapni shundoq o'g'li borligidan faxrlanishi va uni juda yaxshi ko'rishidan boshlabdi. So'ng yigitning qo'liga chiroyli qutiga o'ralgan sovg'asini tutqazibdi. Yigit jiddiy tarzda, nimadandir norozi bo'lib kattaroq qutini ohibdi va u yerdan chiroyli muqovali diniy kitobni topibdi. Jahli chiqqa boshlagan o'g'il otasiga baland ovozda baqiribdi:

— Shuncha pulingiz bo'la turib, bayramning shuni ravo

ko'rdingizmi?

Yigit shunday deb kitobni tashlagancha, eshikni qars yopib chiqib ketibdi.

Oradan ancha yillar o'tibdi. Yigit tadbirkorlikda katta omadga erishibdi. Uning ajoyib uyi, mehribon oilasi bor edi. Bir kuni yigit keksa otasini ko'rib kelishga ahd qilibdi. Chunki u o'sha Bitiruv kunitdan so'ng otasini boshqa ko'rmagan va ko'rishni istamagan edi. Yo'lg'a chiqishdan oldin yigitiga telegramma kelibdi. Unda otasining vafot etgani va bor davlatini o'g'liga qoldirgani yozilgandi. Yigit

darhol ota uyiga boribdi. Borishi bilanoq yuragini nadomat va g' am kemira boshlabdi. U otasining ish stoliga o'tirib-di va o'zi tashlab ketgan diniy kitob hamon o'sha yerda turganiga ko'zi tushibdi. Ko'zida yosh bilan kitobi ochib varaqlay boshlabdi. Kitobning o'rtalariga yetganda, uning ichidan nimadir yerga tap etib tushibdi. Qarasa, bir konvert va mashina kaliti. Konvert ichidagi qog'ozda mashina manzili, ya'ni yigit orzu qilgan o'sha do'kon nomi hamda bitiruy munosabati bilan tabrik bitilgandi. Yigit oh urib, boshimi changallab qolibdi.

DO'ST LIK

Missionerlar tomonidan kichkina qishloqdagι Mehribonlik uyi bomba bilan portlatib yuborildi. Beshaftat missionerlar bir-ikitta bolani hammaning ko'z oldida otib o'dirishdi va bir qanchasini garovga olishdi. Ba'zilar esa tan jarohati tufayli ingrab yotardilar. Ularning orasida sak-kiz yashar qizalog ham bor edi.

Qo'shni qishloqdagilar uysiz va oziq-ovqatsiz qolgan birodarlariga yordam qo'lini cho'zdilar. Hindiston armiyasi tez orada ko'makka keldi. Nihoyat, tamillik va malayyalik hamshiralar ham dori-darmonlari bilan qishloqda hozir bo'idilar. Chunki bu yerdag'i qizaloq qattiq jarohatlangan bo'lib, tezda unga tibbiy yordam ko'rsatilmasa, shok va qon yo'qotishdan o'lib qolishi mumkin. Qon quyilmasa bo'lmasdi, darhol donor topish shart edi. Tekshirib ko'rilib, harbiy askarlardan hech birining qon guruhi yetim qizchanikiga to'g'ri kelmadи.

Shifokor va hamshira qishloqdagilar bilan oz-moz as-sam tilida gaplashishga harakat qildi. Suhbatdan so'ng ma'lum bo'ldiki, agar qishloqdoshlaridan birortasi qon berib turmasa, qizning o'limi muqarrar ekan. Keyin shifokor ularga qarata „Kim qon bera oladi?“ deya hay-qirdi.

Odamlar savolga ko'zlarini katta-katta ochgancha javob qaytardilar. Bir necha daqiqadan so'ng kichkina bir qo'l sekinlik bilan bo'shashgancha tepaga ko'tarildi.

– Oh, rahmat, – dedi hamshira ingliz tilida. – Isming nimma?

– Dev Kant, – u tibbiy yostiqdan boshini ko'tarib javob berdi.

„Uning qo'lidan spirit hidi anqir, tomiridan qon olishardi. Bola o'zini tinch va jiddiy tutdi. Lekin birozdan keyin ho'ngrab yig'lab yubordi va ko'zyoshlarini sog' qo'lib bilan artdi.

– Og'riyaptimi, Dev? – so'radi shifokor. Dev boshini „yo'q“ degandek qimirlatdi, biroq marjondek ko'zyoshlar timmay yuzlarini yuvardi. Shifokor undan ahvolini so'rab turdi. Bola „Yaxshiman“ deb javob qaytarar, ammo ko'zyoshlar qaroqlarida qotib qolgan, endi ovoz chiqarmay yig'lardi. Hamshiralar guruhi tashvishga tushib qoldi. Nimadir xato bo'ldi. Assam tilini biladigan hamshира tezda mashnaga o'tirib yordamchi guruhni chaqirgani ketdi. Sal o'tib donor bola yig'lashdan to'xtab, hamshiraga savol nazari bilan boqdidi.

Hamshira shifokorga pichirladi: „U o'zini alibor, deb o'yladi. Bizni tushunmadidi. Aytishicha, u „Agar hamma qonimni bersam, qiz tuzaladi“, deb o'ylagan va bunga rozi bo'lgan. Shifokor hayron bo'lib boladan so'radi:

– Unda nega rozi bo'lding?

Hamshira unga savolni tarjima qilgach, bolakay javob berdi: „U o'zini alibor, deb o'yladi. Tund od man eming – Chunki u mening yaqin do'stim...“

O'zimmi aybdor sezganim uchun, unga uyimizni, mash-namizni, ishimdag'i mablag' imning 30 foizini qoldirishimni aytdim va shartlar ko'rsatilib, imzo qo'yilgan ajralish qog'ozini uzatdim. U qog'ozni ko'zdan kechirdi-da, yirtib tashladi. Menga o'n yillik hayotini bag'ishlagan ayol birdan

„MENI QO'LLARINGDA KO'TARIB OL“

O'sha kuni uya borsam, rafiqam dasturxon tuzagancha meni kutib o'tirgan ekan. Qo'llaridan tutib gap boshladim: – Senga bir gapni aytishim kerak.

U jingga yonimda o'tirib quloq tutdi. Men uning ko'zlarida dard sharpasini sezdim. Keyin bu gapni unga qanday aytaman, deya o'ylab qoldim. Lekin aytmasam ham bo'imasdi. Gap shundaki, men u bilan ajrashmoqchi edim. Aytmasam ham u tushundi. Gaplarmi tinglab, bir tuki ham qilt etmadim, so'ngra sekin so'radi:

– Nega?

Men o'zimni eshitmaganga soldim. Indamaganim uchun u ranjidi. Keyin ichidagi bor alam bilan hayqirdi:

– Erkakning ishi emas bu!

O'sha kuni biz gaplashmadik. U o'ylardi, bilaman, oilamizga nima bo'ldi, nega barchasi bunday tugadi, deya ich-etini kemiryapti. Lekin men bu savolga javob berolmasdim. Dyu ismli qizni suyib qolgan, faqat unga talpindim. Xotinimi esa ortiq sevmay qo'ygandim. Faqat rahmim kelardi, xolos.

O'zimmi aybdor sezganim uchun, unga uyimizni, mash-namizni, ishimdag'i mablag' imning 30 foizini qoldirishimni aytdim va shartlar ko'rsatilib, imzo qo'yilgan ajralish qog'ozini uzatdim. U qog'ozni ko'zdan kechirdi-da, yirtib tashladi. Menga o'n yillik hayotini bag'ishlagan ayol birdan

boshqa insonga aylanib qolqandi. Men uning o'tgan umriga, mehnatiga achinsam-da, gapimdan qaytmasdum: Dyuni juda sevardim...

Nihoyat, xotinim ko'z oldimda ho'ngrab yig'lab yubordi... xuddi kutganimdek. U bolaning alami kelib yig'lagan-dek to'yib yig'lardi. Bir necha haftadan beri ajrashish haqidagi o'ylab kelayotganining azobli nuqtasi edi bu.

Ertasi kuni uyg'a juda kech qaytdim. Xotinim stolda o'tirgancha nimalarnidir yozish bilan band edi. Kechki ovqatni yemagan bo'lsam-da, to'g'ri yotoqqa kirdim va tezda uxlab qoldim. Chunki bugun Dyu bilan ko'rishib, rosa sayr qilgan va toliqqandim. Tunda uyg'onganimda xotinim hali ham stolda o'sha alfozda o'tirardi. Unga e'tibor bermagandek bo'lib, yana uyquga ketdim.

Ertalab unga ajrashish qoidalarini tushuntirdim: u men dan hech narsa olishni istamadi, biroq ajrashish uchun bir oy muhlat so'radi. U mana shu bir oy ichida hech nima bo'lma-gandek odatiy hayot kechirishimizni taklif qildi. Uni darrov tushundim: shu oy o'g'limning imtihonlari bor edi, biz tufayli xayoli bo'lmishini ayolim istamasdi. Taklif menga ma'qul keldi. Biroq uning boshqa talabları ham bor ekan. U meni to'y kechamiz uyimizga qanday ko'tarib olib kir-ganimni qayta ko'rsatib berishimni so'radi. Men bir oy ichi-da har kuni shu ishni takrorlashim lozim ekan. Bu mushkul bo'lmasa-da, men uni telba bo'layozzi, deb o'ylardim.

Birga o'tadigan so'ngi kunlarimizdan u rozi bo'lishi uchun, uning bu tentakona taklifini qabul qildim. Dyuga esa xotinim bizdan hech nima ta'ma qilmasligi, hatto igna ham olib ketmasligini aytdim. U bo'lsa rosa kului va bu ahmoqlik ekanligini ta'kidladi.

Xullas, uni birinchi kuni ko'tarib uyg'a olib kirdigimda, ikkimiz ham beso'naqay ko'rindik. O'g'limiz esa bizni chapak chalib qarshiladi:

— Dadam oyimni ko'tarib oldi!

Bu so'z mening qalbimni tirmadi. Yotoqxonan, meh-monxona bo'ylab uni ko'tarib borarkanman, chamasi, o'n metrlar u qo'llarimda bo'ldi. Xotinim ko'zlarini yumib ol-gancha shivirladi:

— Ajrashishimiz haqida o'g'limizga aytma.

Men boshimni qimirlatib „xo'p“ dedim, negadir kay-fiyatim tushib ketdi. Nihoyat, uni eshik yonida pastga tushirdim. U tashqariga – ishga borish uchun bekat tomon ketdi. Men esa mashinamni haydab ofisga yo'l oldim. Ikkinchchi kuni esa uni ancha yengil ko'tardim. U yelkamga boshimi qo'yib oldi. Undan kelayotgan iforni beixtiyor esladim. Oxirgi marta qachon unga tikilib qara-gandim, deb eslashga urindim. U endi yosh qizcha emas. Yuziga bilinar-bilinmas ajin tushgan, sochlari ham rangini yo'qotayozgandi. Turmushimiz undan mana shu go'zalligini tortib olgandi. Bir necha soniya, xotinim uchun nima qilsam bo'ladi, deya o'yladim.

To'rinchchi kuni uni qo'llarimga olganimda qalbimda unga qandaydir yaqinlik sezdim. U menga o'n yili-ni bag'ishlagan ayol edi. Keyingi kunlarda esa bu iliqlik kuchaya bordi. Albatta, Dyuga bu haqda aytmadim. Kun o'tgan sari uni quşhdek yengil ko'tarardim. Menimcha, ku-chimga kuch qo'shilardi.

Bir kuni tongda xotinim menga nima kiyishimni tanlab berayotgandi. Bir nechtasini qo'liga olib ko'rdi-yu, lekin didiga o'tirmadi. Chunki kiyimlarim kichik bichimda edi. Demak, semiribman. Unga boqdim: cho'pdekk ozib ketibdi. Inson qayg'udan semirmaydi... ozadi. Uni nega bunchalik osongina ko'tarayotganimming sababini tushundim: ichi qayg'udan bo'm-bo'sh bo'lib qolibdi. Men birdan uning yuzini qo'llimga olib, o'zinga qaradim. Shu payt o'g'lim kirib qolib, dedi:

– Dada, oyimni ko'taradigan vaqtinenz bo'ldi.
O'g'lim bu holatga juda o'rganib qolgan ekan, hatto hayotining bir qismiga aylanib qolibdi. Xotnim „Dadangni quchoqla“, deb o'g'limni yonimizga chorladи. Men yuzimni yashirdim, chunki hozirgi daqiqalarda tavakkal qator chiqqaradigan odam bo'lqanimidan afsusda edim. So ng ayolimni ko'tarib, yotoqxonadan chiqdum... undan mehnxonaga, so'ng eshik yoniga yetdik. To'yimizdag'i kabi baxtli sezardim o'zimni.

...Bir oy muhlatning so'nggi kuni keldi. Men uni ko'tarib eshik yoniga bordim va birdan to'xtab qoldim. Hayotimiz o'zgargandek tuyulardi. Darhol mashinaga o'tirib, ofisga yo'l oldim. Mashinani quflashni ham unutib, ishxnanga shoshdim. U yerda Dyu o'tirgan ekan.

– Kechir, Dyu... biroq men ajrasha olmayman.

U menga qovog'ini solib qaradi. Keyin o'shqira ketdi.

– Bir so'zlimisan o'zi? – baqirdi u.

– Kechir, men ajrashishni istamayman. Menimcha, biz bir-birimizga yetarli e'tibor qaratmaganimiz. Uchun sevgimiz jarlikka borib qolgan. Bu degani, sevgimiz o'ldi, deganimas. Faqatgina kulni titib undan cho'g' izlash va uni alangalatib turish kerak ekan. Endi tushundim! Uni har kun qo'llarimda ko'tarib olganimda, o'sha, uni sevgan paytlaringa qaytgandek bo'lardim. Aslida, uni doim qo'llarimda ko'tarib yurishim lozim ekan.

Dyu endi uyqudan uyg'ongandek menga hayratlanib boqardi. Keyin yuzimga tarsaki tushirdi va eshikni taraqlatib yopib chiqib ketdi. Men ham asta zinalardan pastaga tushdim va mashinama o'tirdim. Gul do'koniga yaqinlashganimda to'xtadim va guldasta xarid qildim. Gulchi qiz otkritkaga nima deb yozishimni so'radi. Men aytdim: „Seni umrimning oxirigacha qo'llarimda ko'tarib yuraman... to keksaygunimcha“.

– Dada, dildased yule'ne *Abu AMMAR* (Pokiston) segul qulindil. O'ambaurus shaxoy yantu nean alvartar. O'ning ambar u'lchondi shob dan rubnolod imishxodiro. Ipar dildased mafet. O' shaxda dildased imishxomam ini vibru uburuv niqayg'ib abrimi... deb dildased xonad'od

BESH DAQIQA

Bog'dagi o'rindiqda o'tirgan Saidning yoniga bir kishi kelib qo'shildi.

– Anavi mening o'g'lim bo'ladi, – dedi yangi kelgan erkak biroz suhhbatlashish maqsadida sheriiga qarab. – Yaxshi bolakay ekan, – dedi Said ham unga javoban. – Anavi oq ko'yakda velosiped uchayotgan qizcha esa meniki.

U shunday deb soatiga qaradi-da, qizini chaqirdi.

– Maryam, ketamizmi, nima deysan?
Qizaloq otasining yoniga yugurib keldi va bola tilida chug'urladi:

– Yana besh daqiqa o'ynay, dadajon! Besh daqiqagina... Said unga ruxsat berdi. Maryam quvongancha maydoncha tomon yugurib ketdi. Oradan besh daqiqacha o'tgandan so'ng ota qizini yana chaqirdi:

– Aytgan vaqtin o'tib ketdi, qizim. Ketamizmi endi?
Maryam yana otasiga yalindi:

– Yana besh daqiqa o'ynay qolay, dada. Keyin ketamiz, xo'p...

Said jilmaydi:

– Mayli, qizim.

Saidning yoniga o'tirgan erkak unga so'z qotdi:
– Juda yumshoqko'ngil ota ekansiz. Lekin bolalarga qattiqqo'lroq bo'lish kerak-da. Yo'qsa, aytganingizni qilmay qo'yishadi...

Said kuldii va so'zlay boshladi:

– Maryamning akasi Arofamni aynan shu yerda, velosiped haydayotgan paytda bir mast haydovchi urib yuborgan. O'shanda men uning yonida emasdum. U bilan birga vaqt o'tkazishni bekorchi ish deb hisoblar edim. Afsuski, bir zumda taqdir uni oramizdan olib ketdi. U bilan hech bo'lmasa besh daqiqagina birga bo'lolganimda edi, degan azob meni tinch qo'ymaydi. Xatoyimmi qizim bilan tuzatayman. U mendan atigi besh daqiqagini so'rayapti, aslida esa men undan so'rashim kerak. U qancha demasini, shuncha vaqtimni qizim bilan o'tkazishga tayyormani. Toki keyin afsuslanib qolmay...

BIR SHISHA SUT

Bola eshikma-eshik yurib, turli buyumlar sotar, shu orgalilik maktabda o'qishi uchun pul yig'ardi. Odatiy kunlardan birida uning savdosini unchalik yurishmay, och qolibdi. Niما qilarini bilmay, keyingi kiradigan uyidan yegulik so'rashga ahd qilibdi. Eshikni yosh va go'zal bir ayol olibdi. Bola salom bergach, ovqat so'rashga botinmay, „Ichishga biroz suv bersangiz, iltimos!“, deb so'rabi.

Ayol bolaning ochiqqanini sezib,unga katta shishada sut olib chiqibди.

Bola sutni sekin va ishtaha bilan ichgach, har ehtimolga qarshi so'rabi:

– Sut uchun qancha beray?
– Hech qancha. Qarz emassan. Onam bizga „Yaxshilik uchun pul olmanglar“, deb o'rgatganlar.
– Chin yurakdan rahmat sizga!

Bola bu xonadomni jisman tark etsa-da, yuragi shu yerdan qolibdi.

Oradan yillar o'tib, ayol xastalikka chalimibdi. Bu yerdagi shifokorlar hech nima qilolmagach, uydagilari uni katta shaharga olib borishibdi. Uni davolash uchun shifokor Xovard Kelliga navbatga yozilishiibdi.

Ro'yxatda o'zining shaharchasidan kelgan bemor borligini o'qigan Xovard darhol uni ko'rmoqqa oshiqibdi. Palatani olib kirarkan, ayloni bir ko'rishdayoq tanibdi.

So'ng xonasiga qaytibdi-yu, uning tibbiy varaqasini o'qib, davo izlashga kirishibdi.

Vaqt o'tib, ayol tuzala boshlabdi. Kerakli muolajalar ta'sir qilib, nihoyat, uyg'a ruxsat beradigan bo'lishiбdi. Hamshira to'lov qog'ozlarini olib, ayolga beribdi. Ayol burcha pulni to'lashga qurdim yetsa bo'ldi, degan hadik bilan qog'ozni asta ochibdi. Unda bir necha jumla yozilgan ekan: „*Bir shisha sut evaziga to'lovdan ozod etilgansiz*”.

QALAM VA ODEM

Usta o'zi yasagan qalamlarni qutilarga joylarkan, ular-
ga maslahat berishni joiz deb topibdi.

— Bu dunyoda siz bilishingiz lozim bo'lgan beshta narsa
bor, qalamlarim, — gap boshlabdi u, — tashqi olamga yetka-
zishdan avval sizlarni ulardan boxabar etmoqchiman. Aslo
unutmangki, eng yaxshi qalam bo'lish faqat o'z qo'lingizda!

Birinchisi, qo'lingizdan ko'p buyuk ishlar keladi, biroq
buning uchun sohibingiz aytganini qilishingiz lozim. Demak,
komil inson qo'lidagina siz buyuklikka musharraf bo'lasiz!
Ikkinchisi, to maqsadga yetmaguncha siz ko'p azob
chekasiz. Sizni alamlari kelsa uloqtirishlari, sindirishlari
mumkin. Axir, qog'ozga arzirli narsa bitilmaguncha siz be-
minmat xizmat qilishingiz tabiiy-ku. Demak, sabr sizning
hamrohingiz bo'lsin!

Uchinchisi, xatoyingizni to'g'rilashni o'rghaning. Shun-
cha yozib qo'ydim-ku, o'chirish uvol, deb bepisandlik
qilimang. Haqiqiy asar o'chirg'ichsiz bitmaydi. Siz qalam-
siz, o'chirib boshqatdan yozishdek baxtga egasiz. Demak,
kamchiliklar ustida ishlash asosiy vazifangiz bo'lsin!
To'rtinchisi, qilayotgan ishingizni oxirigacha yetka-
zishni o'rghaning. Yarim yo'lda qoldirib, boshqa yumushga
o'tib ketmang. Sohibingizza sadoqatli bo'ling, uni ang-
lang, yordam bering!

Beshinchisi, eng asosiy vazifangiz – yozish, ijod qilish
ekanini sira unutmang! Siz tufayli minglab asarlar yarat-

ladi, millionlab o'quvchilar dardiga malham topadi. Siz kitoblarni asrdan asrga yetaklaysiz. Yoshingiz juda ulug' va siz tufayli dildagi gaplarni qog'ozga aytish istagi hamisha barhayot bo'ladi!

Qalamlar ustaning so'zlarini jimgina tinglab, ularga doim roya qilishga so'z beribdilar. So'ngra, usta ularni tayyor qutilarga joylabdi.

Qalamga qilingan nasihatlar, aslida, sizga tegishli, aziz insonlar. Yaratgan bizni bu olamga yuborar ekan, besh yushmanhga chorlaydi.

Birinchisi, qo'llimizdan ko'p buyuk ishlar keladi, biroq bizni yaratgan sohibimiz Allohni unutmasak, uning aytganlaridan chetga chiqmasak bas!

Ikkinchisi, to maqsadga yetmagunimizcha hayotimizda ko'plab sinovlarga duch kelamiz. Irodasizlarcha ularga yengilmay, balki yengib o'tishimiz va kurashda davom etishimiz zarur. Muammosiz hayot yo'q, faqat matonat va sabr bizga yordam beradi!

Uchinchisi, kamchiliksiz inson yo'q. Faqat ularni vaqtida anglab, tuzatib borgan va xatolarni qayta takrorlamaydigan insongina bu dunyoda baxtga erishadi. To'g'ri, bizda o'chirg'ich yo'q, o'tgan ishlarni to'g'rilay olmaymiz, birroq kelgusida takrorlamaslik uchun bizga ong ato etilgan, uni to'g'ri ishlata olsak bas!

To'rtinchisi, bir kasjni boshidan tutdingizmi, uni sharaflang va o'lda jo'lda qilishga odattlanmang. Hunaringiz ortidan halol rizq toping. Yaratgan o'z ishini halol va mummal tarzda bajaradiganlarni yoqtiradi!

Beshinchisi, unutmangki, siz – buyuk odamsiz. Faqat mehnat va harakatdan to'xtamang. Siz bajargan ishlar millionlab odamlarni qutqarsin, million yillar tillarda qolsin. Eng muhimi, bu dunyoda yaxshi nom qoldirishdek baxtga musharraf bo'ling!

YURAKDAGI NIHOLLAR

Badavlat bir insonning o'g'li yomon xulqli bo'lib, salbiy odatlarini hech tashlamas ekan. Boy o'g'lini tarbiyalash maqsadida uyiga aqlii bir ustozni taklif qilibdi. Ustoz uning muddaosini tinglab, yigitni yoniga olibdi-da, bog' bo'ylab sayrga chiqishibdi.

Ustoz yigitdan shu yerda o'sayotgan kichkina bir niholni yulib tashlashini so'rabdi. Yigit ikki barmog'i orqali niholni osongina ko'chirib olibdi. Shundan so'ng ustoz yigitga daraxt bo'lib ulgurgan ko'chmati yulishni buyuribdi. Yigit zo'r berib, bor kuchchini ishlatib daraxtni yerdan sug'uribdi.

– Endi esa manavinisiga urimib ko'r, – deya ustoz kattakon va sertomir daraxtga ishora qilibdi.

Yigit qanchalik urinmasin, daraxt qilt etmasmish.

– Buning iloji yo'q, – deb tan olibdi yigit.

– Ana shunday! Bizdag'i yomon odatlar ham ko'chatga o'xshaydi, – nashihat qilibdi ustoz, – avvaliga nihol, so'ng daraxtcha, keyin esa ulkan va bahaybat daraxtga aylanadi. Uni vaqtida qalbimizдан yulib tashlasak, ish oson kechadi. Vaqtini boy bergen sari esa u tomir boylab, butun taminizi egallab boraveradi. Oqibat, istasak-da uni yurakdan sug'urib tashholmaymiz.

Yigitbu gaplardan so'ng o'z xulqi haqida chuqur o'ylab ko'ribdi va qalbida unayotgan yomonlik ko'chatlarini vaqtida sug'urib tashlashga ahd qilibdi.

ISAH (Yaponiya)

KICHIK XONIMMING KATTA O'YLARI

Yaponiyaning sehrli quyoshi Izumi Mizukiyoning yotxonasini o'zining zarrin nurlari bilan ilita boshhladi. Quyoshning uyg'otishiga o'rganib qolgan qizcha ko'zlarini asta ochdi. O'ng tomonidagi ko'zguga tushib turgan yorug'lilik Izumining yumilgisi kelib turgan qora ko'zlarida aks etib o'ynoqlardi.

— Ha, yaxshi, ana uyg'ondim, — dedi u besabrilik bilan o'mridan turarkan. Qiz ko'zlarini ishqalayotganidan, uning turganiga ishongan quyosh ham ko'zgudan g'oyib bo'ldi. Qizaloq oynaga qarab, qora, uzun sochlarini taray boshladidi, doimiday xayoliy „do'st“i bilan gaplashishga tushdi.

— Mening bitiruv kuniimdan mammummisani? — u javobini kutib o'tirmay davom etdi. — Sening marosimga tashrif buyurishingdan juda xursandman. Ota-onam ham boramiz, deyishgandi. Agar bora olsalar... — uning yuz qiyofasi o'zgaridi, biroq xayoliga boshqa bir narsa kelgandan keyin yana sevindi. — Tanaka xonim, ya'ni o'qituvchimizning aytishicha, men bugungi marosimda ,kichik xonim "bo'lар ekamman. U hali hech qachon bizni bu nom bilan atamagan edi.

Keyin u o'qituvchisining doim qizaloqlarga keragidan ortiq e'tibordaligini, xususan, qizlarga katta xonimlarga qaragandek qarashi haqida gapirdi. Izumi o'zining bitiruv qog'oziga tikildi. Unga „Diplom“ deb yozilgandi. Qiz uni yana bir qayta o'qib chiqdi.

„Tanaka yosh xonimlar maktabi shuni bildiradki: Izu-

mi Mizukiyo o'z majburiyatini tamomladi. Izumi birinchisinfni tugatishi munosabati bilan ustozni Natsumi Tanaka tomonidan taqdirlandi“.

Qizaloq barmoqlarini ushbu yaltiroq so'zlar bo'ylab yugurtirdi. O'zidan qanoatlangandek lablarida tabassum o'ynadi: „Hali ular mendan faxrlanishadi. Mening ismim qanaqa talaffuz qilinadi, bilasizmi? „I-zu-mi Mi-zu-ki-yo“.

Izumining xonasi katta, devorlari yog'ochdan yasalgandi. Mebellar orasidagi ko'zgani unga o'qituvchisi sovg'a qilgandi. Izumi deraza qarshisida o'tirishni xush ko'rardi. U kechalar osmonga qarat xayol surar, o'zini yapon bog'larida gullarning asal islariga to'la mayin havosini hidjab ko'rayotgan xonimdek tasavvur qillardi. Shu ko'yи uxlab qolgan qizning tushlariga ham o'sha manzara kirib chiqardi. Uyqusida jilmayayotgan qizaloq juda shirin ko'rindari. Ming afsus, ota-onasi bunday baxtni ko'rishga ulgurushmagandi-da.

Devorning narigi tomonida ota-onasi uxlab yotishardi. Izumi ehtiyyotkorlik bilan zinadan tushib, oshxonaga yo'll oldi. Keyin isitkichni yoqish uchun tizzaladi. Burchakda turgan idishlarning yoniqa borib, guruch oldi. Kichik oshxonaning o'ritasidagi stolga kerakli idishlar va choy qo'ydi. Keyin yana oyoq uchida kiyinish xonasiiga kirdi. U kiyim javonini oolib, boshini sarak-sarak qildi: axir, bu yerda faqat maktab kiyimlari bor-ku. Endi u yosh xonim bo'lsa, bitirish marosimida bunday kiyimlarini kiymasligi kerak.

Amallab kiyingga qiz stolga o'tirdi va ota-onasining uyg'onishimi sabrsizlik bilan kuta boshhladi. Endi u ham xonim, bugundan boshlab yosh bola emas. Hali ota-onasi shunday qizni o'stirganlardan faxrlanishadi. Qarang-a, birinchi sinfini tugatibdi.

Ota-onasi qizlarining nimagadir timirsiklanib yurganini sezishdi, lekin ikkisi ham buning sababini so'ramadi. Izu-

mi „Balki, ular o‘zlarini bilmaganga solib, keyin kutilmagan sovg‘a qilmochchi bo‘lishayotgandir“, deb o‘yladi. U ko‘plab o‘quvchilar orasida unga jilmayib, qo‘l cho‘zib turgan ota-onasini tasavvur qildi. Ulardan biror sado chiqshini kutib, umid qilib o‘tiraverdi.

– Izumi! – onasining baland ovozi qizni cho‘chitib yubordi. – Nega maktabingga ketmayapsan? Otang sezib qolmasidan tezroq keta qol, – jahli chiqqandek bo‘ldi onaning.

Ko‘zlar niamlana boshlagan qiz esa boshami quyi soldi.

– Men tayormam.

„Onamning esidan chiqqandir“, deb o‘yladi u.

Izumi yo‘lga chiqdi. U ham yuzini yuvayotgan issiq ko‘zyoshshari singari go‘yo shamolda oqib borardi. Hech kim kichik xonimming o‘ylari bilan qiziqmasdi. Qiz hayvonot bog‘i qarshisida to‘xtadi. U kichik xonimning birinchikunini jonivorlar bilan o‘tkazishga ahd qildi...

ERTAKLAR OLAMI

Qadim zamонларда...

U paytlarda buvim yoshgina, o‘n besh yashar kelin bo‘lib, birinchchi marta qadrdon go‘shasini tashlab, eri bilan mamlakatning shaxriy hududiga jo‘nab ketgan edi. Bobom ham navqiron yigitcha edi o‘sanda, uning yosh va go‘zal xotini-yu bo‘ksasiga osib olgan enli xanjaridan bo‘lak boyligi yo‘q edi.

Tevarak-atrof o‘tib bo‘lmas changalzor va o‘mondan iborat. Biroq qo‘l qovushtirib o‘tirishdan foyda yo‘q, pirovardida bobom daraxt kesib yer ochdi, to‘nkalarmi kovlab olib tashlab, ekinzor uchun joy hozirladi, buvim esa o‘sha maydonda bog‘ barpo qildi. U birinchchi bo‘lib duryan daraxtini ekkan ekan...

– O‘sha daraxt haliyam bormi?

– Bor. Bu mevalarmi o‘sha daraxtdan uzib keltirgan man. Ana, tepaga qarang.

Biz bir-birimizga qarab oldik. Darhaqiqat, biz ana o‘sha keksa daraxt soyasida o‘tirar edik. Chindananam uning allazamонларда ekilgani sezillardi: po‘stlog‘i qurib-qovjiragan va ko‘pgina yerlari oqarib olapes holga kelgan, biroq tanasi hamon temirday qattiq hamda shunchalar yo‘g‘on ediki, biz, uch nafar bola qo‘l ushlashib ham uni quchog‘ imizga sig‘dirolmaymiz. Uning g‘adir-budur shoxlari tarvaqaylab o‘sgan, yirik-yirik mevalari esa dag‘al tikani po‘stloq bilan qoplangan edi.

– Bundan chiqdi, daraxtning yoshi yarim asrdan o'tgan ekan-da?

– Ellik olti yil bo'ldi unganiga. U mening oyimdan bir yosh katta. Buvim unga hazillashib. „Bu duryan – sening katta akang bo'ladi“, der edi.

An quyuq yashil yaproqlarga tikilib jum bo'lib qoldi. Negadir onasi esiga tushib ketdi. Bir vaqtulari onasi tirikligida u jajjigina qizaloq bo'lib, navnihol daraxt nov-dalarini ushlab alpang-tah pang qadam tashlab yurishni o'rganar edi. Keyinchalik ulg'ayib shu tarvaqaylagan daraxt soyasida dugonalari bilan o'ynaydigan bo'ldi, o'sha kezlar ular uchun bebebaho boylik hisoblangan qat-tiq, qurib-qovjiragan yaproqlarni terar edi. Ammo Anning xotirasini nochor vauzuq-yuluq – onasi hali u qo'g'ir-chiq o'ynab yurganida vafot etib ketgan. U onasiga ikki tomchi suvdek o'xshardi, otasi esa uni buvisiga tortgan, derdi. Rostini aytganda, bugun buvisi yoshligida qanaqa bo'lgan – tasavvur qilish qiyin. Nevaralariga doim yoshschanib turuvchi hasratli ko'zlar bilan boquvchi, kulganda tabassum qilyaptimi, og'riqdan og'zi qiyshayyaptimi, biliib bo'lmaydigan, oshimi oshab, yoshini yashagan kampir: quruqshagan lablari yorilib ketgan, ko'zlar ich-ichiga chuqur botgan, ajin tilib tashlagan yuzi tund va ifodasiz. Anning bo'yli buvisidan qariyb ikki kalla band edi. U yoshiga munosib kiyingga: och-sariq tor shimi oyoqlariga yopishib turibdi, ko'ylagi keng, yengi shamolida hilpiraydi. Ilgari sochlarini kalta qilib kestirardi, hozir esa zamona viy rusum bo'yicha yelkasiga tushib turadi. Ko'zlar ravshan, nigohi muloyim, yonoqlari nafarmon, yuzi tabassumdan yorishgan, u mavzunqad bo'lib, boshamni xiyol yonga solintirib turibdi.

Men duryan daraxtiga bir karomat axtarayotgandek tikillardim. Ko'nglimdan esa buvim aytib bergen rivoyat

o'tardi. Uning ma'nosi hech qachon yodimdan chiqmasa kerak. Chunki u favqulodda ta'sirchan edi.

– Bir zamonalr o'rmon yoqasida er-xotin yashar ekan. Kunlardan bir kun eri o'rmonga o'tin uchun shox-shabba olib kelgani boribdi-yu, o'sha yerda unga yo'lbars uchrab qolibdi. Orada omonsiz jang boshlanibdi, odam yirtqichga pichoq uribdi, og'ir yaralangan ona yo'lbars qochibdi. Odam qanday bo'lmasin, yirtqichning uyasini topib, uni o'ldirishga ahd qilibdi, negaki, agar shunday qilmasa, u o'ch olishi muqarrar ekan. Qonli izlar uni yo'lbars yashaydig'an g'orga olib boribdi. U yirtqichni o'ldiribdi va uning jasadimi o'zi bilan olib ketibdi. Yangi tug'ilgan yo'lbars bolasi onasini qayoqqadir olib ketishayotgamini ko'rib, uning ortidan ergashibdi. O'lgan yo'lbarsni uyiga olib kelgan odamizod uni hovli o'rtasiga tashlabdi-da, xotiniga: „Senga sovg'a keltirdim, terisini shilib ol!“ deb qichqiribdi. Xotini chiqib qarasa, hovlida o'ldirilgan yo'lbars murdasining bag'rida kichkinagini bolasi hadeb uning qorniga suykalib ochlikdan angillayotgan emish. Rahmi kelgan ayol ko'kragini sog'ib, sutini yo'lbars bolasiga tutibdi. Shu tarica yo'lbarscha o'zini siylayi rahm qilib boqayotgan „enaga“ qo'lida unib-o'sibdi. U bahaybat va yovuz bo'lib ulg'ayibdi. Eri, biron kor-hol ro'y bermasin, deb uni o'ldirmoqchi bo'libdi, biroq o'zi tug'magan bo'lsa ham, oq suti bilan boqqan xotiniga achimibdi. Unga tegmabdi. Ayol yo'lbarsni o'rmonga qo'yib yuboribdi. Yirtqich bo'lsa ham, yo'lbars boqqan „enaga“ sini unutmabdi, uni sog'inib, uzoqdan bo'lsa ham ko'rish uchun har kuni uylari atrofiga kelar, lekin yaqin borishdan cho'chir ekan. Uning yoniga ayolning o'zi borankan, shirin-shirin gaplar bilan uni erkalar kan. Eri esa xotini ba'zan qayooqqadir borib kelayotganini sezib qolibdi-yu, birov bilan o'monda uchrashyapti, deya o'ylab rashk qilibdi. Xanjarini olib

xotimining izidan boribdi, changalzorda yo'lbarsni ko'rib qolib, o'sha zahoti unga tashlanib, o'ldiribdi. Yo'lbars qoni to'kilgan yerda daraxt o'sib chiqibdi. Uning mevalari ko'rinishidan badburush, buning ustiga tikonli po'stloq qoplagan, mag'zi esa shirin, xushxo'r, ona suti singari xushbo'y ekan.

Biz uchalamiz keksa duryan daraxti ostida o'tirar ekanmiz, go'yo yaproqlar shamolda shitirlab, mana shu ko'hna afsonani ayтиб berayotgандек tuyuhardi. Chirilloqlarning bir marondagi, zerikarli va toliqituruchi chirillashi bamisli buyruq berilgандек birdan to 'xtadi va bog' odatdagidan boshqacha, g'ayrioddiy va siri sukunat og'ushiga cho'mdi. Bir necha lahzadan keyin hasharotlarning ko'rimmas guruhi qanday to'xtagan bo'lsa, xuddi shunday nogohniy holatda bisotidagi yagona, hasratli kuyini boshlab yuborishgan ediki, biz seskanib tushdik. Men, to'g'risini aytasam, ularni hech qachon ko'rмаганман. Biz, Saygoming tub ahollisi, ular haqida faqat kitoblarda o'qigandik. An ko'zlarini ola-kula qilib:

— Nahotki ko'rмаган bo'lsang? — deb so'rab qoldi. — Senga uch-to'rttasini tutib beraymi? Ko'rging kelyaptimi?

— Qanday tutib berasiz?

— Bu juda oson. Chirilloqlar juda balandga chiqib olishgan bo'ladi, shuning uchun uzunroq tayoq olib, uchki qismidan bir qarichini non daraxting shirasiga botirasan va yuqoriga — g'uj-g'uj chirilloqlar orasiga sekin ko'tarsang bas, marra seniki. Besh-o'ntasining qanoti tayoq uchiga yopishib qoladi — hech qanaqasiga qo'chib qutulmaydi.

Biz tayoq topib, qaysi daraxida hasharotlar ko'proq to'planganini aniqlash uchun boshimizni orqaga tashlab qidirgancha bog' bo'ylab ketdik. Har qancha baqrayib tikilganim bilan hech narsa ko'rolmadim. Hayotingda bir

marta ham ko'rmagan narsangni qanday tanishing mumkin? Buning ustiga ko'z oldimda xol-xol qizg'ish-qora dog'lar chaplashib ketgandi. Holbuki, ular „ajdaho ko'zi“ning pishgan g'ujumlari edi. Ular go'yo, meni uzib yesang-chi, tatif ko'r, afsus qilmaysan, degan kabi boshimiz uzra shitirlar, yelkalarimizga urilardi. Men ularning taklifiغا qarshi borolmay chirilloq tutishni An bilan Liennen o'zlariga havola qildim.

— Qara, naqadar qo'rinchli ular!

— Nega endi, aksincha, judayam bejirim ular! Lien shoxlarni har tarafga surib, qo'llarini uzatgancha mening yonimga kelardi. Uning do'mboq, pushtirang kaf-tida bolaridan jindekkina yirikroq hasharotlar g'imirlardi. Men ularga sincihiklab razm soldim. Qiziqdigan joyi yo'q. Shu asno qosh qoraydi. Kuchsizgina shamol qo'zg'aldi. Bog'cha jonlandi, yaproqlar yana ko'hna rivoyatlar hikoya qilib berayotgандек shivirlay boshhladi. Men ko'zlarimni yumdim va o'zimni xuddi ertaklar olamida yurgandek his qildim. Buvim ayтиб bergen afsona va rivoyatlar xotiranda jonlanib, meni go'yo mo'jizakor hamda sirli olis o'tmish sari yetaklardi...

Men kutilmaganda yonginamda yangragan ovozlardan hushimga keldim. Ko'zimni ochsam, yana XX asrdaman. An notanish bir yigit bilan gaplashardi:

— Biz ertalabdan beri shu yerdamiz.

Ular mening yonimga kelishdi, men o'nimdan turdim, ular bilan salomlashdim. Xay — o'sha yigitni shunday deb atashardi — avval menga boshdan oyoq razm solib chiqdi, keyin o'girilib Lienga diqqat bilan tikildi. Biz haqimizda, ikki tomchi suvdek bir-biriga o'xshaydi, deb bekor-ga aytishmas edi, shekilli. Biz ham notanish odamdan ko'zimni uzmasdik; oq oralagan sochlari silliq taralgan, yuzida qahrili ifoda zuhur etgan, ko'zlarijiddiy, o'zi qotma,

shuning evaziga tik ko'rinar, egnida eski, dazmollangan ko'yak, moshhrang shimi to'zigan... Lien yana bir bor unga qaradi-da, qulog'imga shivirladi:

– Biror kor-hol bo'lunga o'xshaydi.

Lekin u bizga boshqa ahamiyat bermadi. An bilan savol-javob qilgancha uy tarafga yurdi. Biz ularga ergashdik.

Bog'da tun cho'kkani tezroq sezildi. Uyda chiroqlarni yoqishdi. Biz kechki ovqatga o'tirdik. Lien baliq qaylasini qanday tayyorlashayotganidan xabar olgani oshxonaga chiqib ketdi, An esa menga xayolchan ovozda dedi:

– Agar o'zingizni yaxshi tutsangiz, bugun Xay amaking g'alati tarixini ayтиб бераман.

Men tushunolmadim, kim o'zi bu Xay, qarindoshmi yoki oddiyigina tanishmi? Unga yaqin odamdek muomala qilishyapti-yu, lekin begona bo'lsa kerak. To'g'risi, u meniga inson sifatida yoqdi, shuning uchunmi, u bilan gaplashim kelardi.

– Amaki, biz tomonlar ertak, afgonalarning koni ekanini bilsangiz kerak. Har bitta daraxt, mevalarning o'z afgonasi, kelib chiqish tarixi bor. Men bir maqolni ko'p eshitganiman: „Har irmoqning manbayi bor, har giyohning ildizi“, lekin rosti, buni endigina tushunib yetgandekman.

Xay yovshanga o'xshagan maysaning uchidan uzib, menga uzatdi:

– Giyohlar bilan ham bog'liq qanchadan qancha naqlar bor. Mana, masalan, bunday satrlar mavjud:

*Falakda chary urib uchar chuchuk xantal,
Yovshan pastda, zamin dardi bilan yashar:*

– Darsda yodlagammiz shu misralarni. Esimda qolgan, „Maqollar, matallar va xalq qo'shiqlari“ degan kitobda.

Yoki mana bunday afsona bor: „Bor ekan, yo'q ekan, bir odam bo'lgan ekan. Bir kuni u o'rmonga ketib, qaytit kelmabdi. Uyda yosh xotini, to'rtta bolasi va keksa onasi qolibdi. Yosh-yosh bolalar ovqat yeyman, deb baqirisharkan, kampir nolirkan, ajalm yetmasdan bir piyola bo'tqa beringlar deb, uyda esa hech vaqo yo'q ekan, hato bir dona guruch qolmabdi. Nachora, yosh juvon qishloq oqsoqolining huzuriga borib, qarzga guruch so'rabdi, oqsoqol uni ko'zdan kechiribdi-da: „Ering o'lib, kechasi yolg'iz yotganda sovuq yemayapsanmi?“ deb so'rabdi behayolik bilan. Juvon uning sha'niga har xil gaplar aytib, qochib ketidi. Uyiga kelsa, yana bolalar yig'layotgan, kampir zorlanayotgan ekan, ichkariga kirmabdi, ortiga ravona bo'libdi. Yurib-yurib qishloqni aylanib chiqibdi, oxiri yana o'sha oqsoqolning uyiga kelishga majbur bo'libdi. Tishimi tishiga bosib, ichkariga kiribdi... U yerdan bir xalata guruch bilan qaytib chiqibdi. Qishloq ko'chalar oralab kelayotganda, hamqishloqlari uning ortidan g'iybat qilib shibdi. Ayol boshini egib, tezroq uyiga yetib olish uchun shoshibidi. Yo'lda ketyapti-yu, ko'zlaridan shashqator yosh ogarmish. Ko'zlaridan oqqaq yosh tomchilari tushgan yerda tashqi tomoni yam-yashil, ichki tomoni och siyohrang, xushbo'y, ta'mi achchiq giyohlar o'sib chiqibdi“.

Lampa chiroqning nuri hovlimizni arang yoritardi. Bog'ni zulmat qopladi. Shamol zo'ridan baland daraxtlar chayqaladi, ba'zan-ba'zan chirildoqlar va qora chigirtkalarning chirillagani eshitiladi. Lien bir nima degandi, o'z xayollarim bilan band bo'lganimdan eshitmadim. Xay amaki kulib yubordi. U boshmaldog'ida qalimroq sigarani yoqib, huzurlanib ichiga tortdi, so'ng og'zidan halqa-halqa tutun chiqardi.

– Hozirgi yosh avlod fransuz mustamlakachilarini tutshida ham ko'rмаган, ular ulg'ayganda amerikaliklar bilan

bo'shib o'tgan urush ham tugagandi. Xalqimiz tarixi sizlar uchun bir ertakdek gap. Ishonishingiz amrimahol. Mayli, endi yotib uxlang, vaqt allamahal bo'ldi, men ham borishim kerak.

Xay amaki xayrlashib jo'nab ketdi. Bog'dagi daraxtlar-ning shoxlari yengilgina silkinib, oyoq ostidagi giyohlar shitirlagancha ortidan kuzatib qoldi. Bir yo ikki ertak yo-xud rivoyat bilan hali-veri tinchimasligimizga ko'zi yetgan An Xayning boshidan o'tgan voqealarni gapirib berdi.

– Janubdag'i yerlarimiz ozod qilingan yili men o'n sakkiz yashhar edim, shundan oxirgi o'n yilni evakuatsiya dan so'ng otam bilan Saygonda o'tkazdik. Ittifoqo, bir kuni buvinni ko'rgani bordim. U yerlarni ko'rmaganimga ancha bo'lgandi, ammo-lekin bolaligidagi ko'p narsalar o'zgarib ketgan ekan. Qishloqqa yetmasdan beriroqdagi chorrahada harbiy kiyimdag'i bir yigitni ko'rdim. U xuddi meni kutib turgandek tuyuldi. Men nima qilishimni bilmay qo'rqib, xavotirga tushdim. U ismimni, qayerda tug'il-ganimni, otam bilan onam, buvum bilan bobom kimligini so'radi. Ochig'i, uni soqchi deb o'ylab, har bitta savoliga muloyimroq javob berishga harakat qilardim.

– Ha, shunday... muhtaram soqchi, ha, muhtaram soqchi...

U gapimni bo'shib:

– Meni amaki degin, tushundingmi, amaki, – dedi samimiyy ohangda. – Men asli shu yerlikman, bu yerdan ketganimda sen hali tug'ilmagan eding. Lekin onanga jundayam o'xshar ekansan. Uzoqdan ko'rib, avvaliga ishon-gim kelmadи, yaqinroq kelganingda yanglishmaganimni sezdim. Nеччига chiqding?

– O'n sakkiz!

– Men ketayotganimda onang ham endigina o'n sakkiza ga kirgandi. U mana shu chorrakhada meni kuzatib qo'ygan,

ortimdan qo'l silkib xayrlashgan edi... Qara... Vaqtning o'tib ketishini. Onang yaxshimi, sog'lig'i qalay?
– O'n yil bo'ldi onam vafot etganiga.
– Eh-hey...

Uning hayratomuz, shu bilan birga dardli ovozidan yuragim siqildi. Onam vafotidan so'ng bu tomonlarga endi kelishim, tayba, birinchi uchratgan odamin u haqda hijjab so'rasa-yal... U ham mayli, lekin uning ko'ksidan otilib chiqqan xo'rsinish aralash nadomat bunchalar kuchli? Kim u? Men uning haliyam yoshlilik chog'idagi salobatini eslatayotgan azamat yelkalari, ma'noli ko'zlariga ko'z qirim bilan nazar soldim. U churq etmadni, men xayrlashib, yo'liga tushdim va uch-to'rt qadam yurgach, o'girilib qaradim. U hamon qimir etmay haykaldek qotib turar, egnidagi eski, rangi o'ngib ketgan chang harbiy kiyimi bu alfozda qotib turishiga o'zgacha bir mazmun, ko'rk baxsh etardi, u mening ortimdan hayrat va kuchli iztirob ichida termillardি.
– Amaki, menga yana bir nima demoqchi edingizmi?
– A... yo'q, yo'q. Sen xuddi onangga o'xshab qadam tashlar ekansan.

Uyga kelgach, buvimga o'sha notanish kishi haqida oqiz-may-tomizmay gapirib berdim. Buvim uning kim ekanligini aniqlay olmadi, bo'limasa, uzoq-yaqin qarindoshlarimizing hammasini bir boshdan eslab chiqdi.

Oxiri bir nimani esladi-yu, anchagacha menga aytishga ikkilanib turdi, barmoqlarini bukih, o'tgan yillarni o'zicha bir nimaga qo'shib chamlaldi. So'ng gap ochdi:
– Qo'shni qishloqda Shau Vang Rong degan odam bo'lardi... U bobongga o'xshab qo'riq yerlar ochardi. Juda yaxshi odam edi, boy-badavlat bo'lishdan ko'ra chin inson bo'lishni afzal billardi. U ertaroq uylangandi, bitta o'g'li bor edi. Ismi Xay Dien. Esimda, o'sha yili keksa Shau biznikiga tashrifbuyurgandi, qizimizga sovchi bo'shib, urf-odatlarimiz-

ga ko'ra sovg'a ko'tarib kelgandi. O'g'liga qizimizing qo'lini so'radi. Xullas, rozi bo'ldik, to'yni qishda qiladigan bo'ldik. Ana shunda urush boshlamib qoldi. Xay tengdoshlari bilan jangga ketdi, ko'rib turgamingdek, endi kepti. Bechora onang o'n bir yil kuddi uni. Qizlarning qismati shu ekan. Bobong uni otangga turmushga berganida, u o'tiz yoshga chiqib qolgandi. Iloj qancha? Hay, shuncha kunganda ham kelmagan bo'lsa, yana qancha kutadi? Mana, u kel-di. Faqat o'ttiz yildan keyin. O'sha chorraha, o'sha ovoz, o'sha qadam tashlashlar, o'sha o'n sakkiz yosh... Biroq kuzatgani chiqqan nozanin tiriklar orasida yo'q, bugun qarshisida turgan qiz esa uni tanimaydi. Ko'ryapsamni, vaqtning tez o'tishini, lekin u shafqatsiz....

An jimb qoldi, biz ham qimirlashga istihola qilgandek sukul saqlab o'tirardik. Hech birimizning uyqumiz kelmasdi. Men qorong'ilik og'ushidagi bog'ga ko'z yugurtirdim. Qirol Xung Viong sulolasining shon-shuhuratiga guvoh bo'lgan palmalar, muqaddas keksa duryan, non daraxtlari... Yaproqlar bamisolisi o'z taassurotharini o'rtoqlashayotgandek ohista shivirlaydi. Ertaga qanaqa daraxtlar o'sib chiqadi-yu, ular ertaklar bog'iga kelganlar uchun qanday rivoyatlarni hikoya qilib berarkan?

ga ko'ra sovg'a ko'tarib kelgandi. O'g'liga qizimizing qo'lini so'radi. Xullas, rozi bo'ldik, to'yni qishda qiladigan bo'ldik. Ana shunda urush boshlamib qoldi. Xay tengdoshlari bilan jangga ketdi, ko'rib turgamingdek, endi kepti. Bechora onang o'n bir yil kuddi uni. Qizlarning qismati shu ekan. Bobong uni otangga turmushga berganida, u o'tiz yoshga chiqib qolgandi. Iloj qancha? Hay, shuncha kunganda ham kelmagan bo'lsa, yana qancha kutadi? Mana, u kel-di. Faqat o'ttiz yildan keyin. O'sha chorraha, o'sha ovoz, o'sha qadam tashlashlar, o'sha o'n sakkiz yosh... Biroq kuzatgani chiqqan nozanin tiriklar orasida yo'q, bugun qarshisida turgan qiz esa uni tanimaydi. Ko'ryapsamni, vaqtning tez o'tishini, lekin u shafqatsiz....

An jimb qoldi, biz ham qimirlashga istihola qilgandek sukul saqlab o'tirardik. Hech birimizning uyqumiz kelmasdi. Men qorong'ilik og'ushidagi bog'ga ko'z yugurtirdim. Qirol Xung Viong sulolasining shon-shuhuratiga guvoh bo'lgan palmalar, muqaddas keksa duryan, non daraxtlari... Yaproqlar bamisolisi o'z taassurotharini o'rtoqlashayotgandek ohista shivirlaydi. Ertaga qanaqa daraxtlar o'sib chiqadi-yu, ular ertaklar bog'iga kelganlar uchun qanday rivoyatlarni hikoya qilib berarkan?

Chan TXYUI MAY
(Vyetnam)

QAQNUS RIVOYATI

– Salom, professor... Siz... Sizni kuttirib qo'ymadimmi? Nin cho'chib boshini ko'tardi. Mutolaa qilmasdan oldin u eshikni lang ohib qo'ygandi. Ish stolidan zima kaft-dek ko'zga tashlanar, demak, bitta-yarimta kelsa, u darhol sezgan bo'lardi. Bu qiz qanday qilib bildirmasdan kirib keldiykan?! Qiz ichkariga kirishini ham, kirmasligini ham bilmay ostonada turib qoldi, uyalinqrigandek yerga boqdi.

– Keling, xizmat... Menda ishingiz bornmi?

– Men sayyoohlarga xizmat ko'rsatish kompaniyasidan-man... Siz arxeologiya institutidan kelgan professor Nin bo'lasizmi?

Qiz hamon o'zining bejjirimgina oq sumkasidan ko'zini olmay gapirardi.

– Ha, kiriring, marhamat. Men nima uchundir yigitlardan yuborishsa kerak, deb o'ylabman.

Qiz ohista, tovush chiqarmay xonaga kirdi. Sochlari chiroyli turmaklangan, egnida kalta oq ko'y lak bilan yashil shim, tagcharmi qalin shippak kiyib olgan. Yoqimtoygina, tengdoshlaridan zarracha farq qilmaydi.

Nin o'midan turib piyolaga choy quydi. Qiz stulga omognatgina o'tirdi.

– Xo'sh, oldin tanishib olaylik, ismingiz nima?

– Ton Tieu Fiong. Oddiygina Fiong¹ desangiz ham bo'ladi.

¹ Fiong – ayollar ismi, qaqnus degani.

Nin bir haftadan beri Xyueda¹ edi. U qadimiy qal'a bilan maqbaralarni tadqiq qiliш uchun kelgandi. Tabarruk qadamjolarni asrash davlat idorasi Sayyohlarga xizmat ko'rsatish qo'mitasidan yo'lboshllovchi – ekskursovod yuborishni so'ragan edi. Bu qiz shuning uchun uning huzuriga kelgan bo'sishi kerak.

Qiz bu haqida so'ragandan so'ng Nin muloyimlik bilan maqsadga o'tdi.

– Menga nima yordam berishingiz mumkin?

– O'zim ham bilmayman... Bu sizga bog'liq, ustoz, men Daynoy qal'asini, maqbaralar, ibodatxonalar, xuldas, shu yerda joylashgan ko'pgina tarixiy obidalar tariixini yaxshi bilaman. Hammasini birma-bir sizga ko'rsatib, ular haqida hikoyalari rivoyatlardan tortib, o'tmish olimlarining taxminlarigacha aytib bera olaman. Sayohatchilar guruhiga mo'ljallangan dastur darajasida, al batta.

Nin bir zum o'yylanib qoldi. Sayyohlar uchun tuzilgan umumiyy ma'lumotlarni o'zi ham yaxshi biladi. Eksursovoddan naf bormikan?

– Nima ham derdim, juda soz. Qachon boshlaymiz bo'lmasa?

– Qachon desangiz o'shanda, ustoz. Bugun desangiz bugun...

Qizning dangal ovozida boyagi ikkilanish, hadik endi sezilmasdi... Qora ko'zlarini tik boqar, tortinchoqlikdan asar ham qolmagandi.

Qiz manglayiga tushib turgan kokilini tuzatish uchun professonga haddan ziyoq tanish tuyuldi. U havo yetmay, boshi aylanayotganini his qilib, sharita o'midan turdi-da, bazo'r qizga bosh chayqadi.

– Ha yo q, Fiong, bugun tanishib oldik. Ertaga ertalab-dan ish boshlaymiz, bo'ptimi?

Fiong xayrlashib xonadan chiqib ketdi. U boyta nogohniy paydo bo'lganida qanday sokin va tovushsiz kelgan bo'lsa, ketishi ham shunday edi. Nin uni kuzatib qo'yida, yana joyiga kelib o'tirdi. Lablarida o'ychan tabassum jilvalandi.

Nimming ko'z o'ngida ikki tarafida bargi enli bahaybat daraxtlar qad rostlagan 'Le Loy'¹ shohko'chasi namoyon bo'ldi; bu daraxtlarning shoxlari bir-birlariga shunchalar chirmashib ketgan ediki, azbaroyi yam-yashil devor deysiz. U o'ziga o'zi gapirgandek, lekin eshitilari ovozda:

– Bir zamonalr bu katta ko'cha Jyul Ferri² deb atalar-di, – deya g'udrandi.

Uning xotirasidan o'quvchilik davri kino tasmasidek lip-lip o'ta boshladi. Xyne, erta tong, havo salqin, lekin musaffo; o'quvchilar uzundan uzun, egri-bugri yo'llardan shoshilmay ketishmoqda; mana, ular Muattar daryoni ohis-ta suzib o'tayotgan solda bir-birlariga suyanib o'tirishib-di. Daryo sathini quyuq tuman qoplagani uchun go'yo sol allanechuk sirli bulutlar uzra sird'aliib borayotgandek tuyuladi, qirq'oq qaysi tarafida ekanini ham bilib bo'lmaydi... Txiafiduan paromda kechib o'tishlar... Elas-elas danbau³ sadolari eshitiladi... Qalin daraxtlar ortida nomalum qo'shiqchi ko'hna va go'zal poytaxt haqida kuylaydi... Pol Berta ko'chasiда qadam tashlab borayongan qizlarning binafsharang ko'yylaklari beoron hilpiraydi... Bularning

¹ Le Loy – mamlakatini Xitoy封建ullari zulmidan ozod qillishda qo'zg'olon-ga yetakchilik qilgan Vyetnam xalq qahramoni.

² Jyul Ferri – Fransiyaning 1880–1885-yillardagi bosh vaziri.

³ Danbau – bir torli milliy musiqa asbobasi.

orasida eng kuchli, o'chmas taassurot qoldirgani – Boy Xoan ismli qizning siyosi... Olis yillar to'zonida har qancha g'ubor bosgan bo'lsa ham, ko'ngil osmonida hushni tal'atining tarovati o'chmas yulduz shu'lasidek hamon porlab turibdi. Mana shu ko'chalar tarvaqaylagan bahaybat daraxtlar kabi yuragida bir umr saqlanib qolgan.

Nin boloxonaning lang ochiq derazasi yonida kitob o'qib o'tirgan o'sha dilbar oqshomlarni sira esidan chiqarolmaydi. Shu yerdan devor bilan o'ralsan, dарvozasi oldida ganchdan ishlangan ikkita norval¹ o'rmatilgan hovli kafidek ko'zga tashlanardi. Peshayvonda, naqshinkor yog'och karavotda sochlar shaloja yanglig' ko'ylaginning etaklariga to'kilgan bir nozanin o'tirardi. U nilufarning donador urug'ini epchil va nafis bir harakat bilan yuvar, vaqt vaqt bilan boshini ko'tarar va Nimming o'ziga tikilib turganini ko'rib, o'sha zahoti ko'zini olib qochar, yuziga nintabassum yugurat, shunda yonoqlarida chiroyli kulgichlar paydo bo'lар edi.

Avgust inqilobining jo'shqin kunlari Nin Boy Xoanni adabiy kechalar, odam gavjum yig'inlarda tez-tez uchratib turardi. Nin doim yaqinroq borishga talpinardi, yigitchaning xayolchan tikilishlarini sezgan Boy Xoan ko'zlarimi yashirar va o'ziga xos harakat bilan manglayiga tushib turgan sochlarini tuzatib qo'yish bahonasida nigohini undan olib qochardi.

– Ustoz, sizdan bir narsani so'ramoqchiydim, nima uchun o'zingizni aynan arxeologiyaga bag'ishlagansiz? Fiongning bu savoldidan Nin sergak tortdi va xotiralar ummonidan chekindi.

– Niima uchun deysanmi? Sababini senga aytsam, ancha yillar oldin, taxminimcha, chamasi, o'ttiz yillar avval

Qiz tushundim, degandek bosh qimirlatdi va jilmayib qo'ydi.

– Sen nima jin urib bu sohani tanlagansan? – Chunki men yoshligimdan odamlarga nafosat, o'tmish madaniyati haqida hikoya qilib berishni yaxshi ko'rardim. Ana shu istagimni amalga oshirish uchun faqat arxeologiya yordam berishi mumkin, deya ishonaman.

– Sen shu yerlikmisan?

– Ha.

– Buni qarang-a! – deb yubordi Nin, nega bunday deganini o'zi ham bilmasdan.

– Daynoyga yuraymi? – deb so'radi haydovchi unga yuzlanib.

Nin boshi bilan tasdiqladi. Mashina chorrakhada burilib Fusuan ko'prigi sari o'rlay boshladи. Qiz xayolga cho'mdi. Nin ko'z qiri bilan uning yoqalari keng ochilgan bo'yni, xushbichim iyagi va nim ochiq lablariga tikilib qurar ekan, bir nimani eslagandek bo'ldi.

– Bir paytlari Xyueda aozay¹ kiyish rasm edi, ko'rib odamning ko'zi yashnardi, hozir kamdan kam ayollar bu naqa kiyinishadi, attang, – deya ko'ngliga kelgan gapni aytidi Nin.

– Sayyoohlarni biron yerga olib boradigan bo'lsam, siz aytgandek aozay kiyaman. Bugun siz bilan qadimiy qal'a xarobalarini ko'rishga ketiyapmiz. U yerda tizzagacha yetadigan o't-o'lanylар o'sib yotibdi, tikanli giyohlar ko'p. Shoyi ko'yak kiyib bo'lmaydi, hash-pash deguncha ko'yak rasvo bo'ladi...

– Juda ehtiyojkor ekansan-ku! Lekin kim majbur qilapti seni qo'rg'onga borishga? Agar zarurat tug'ilsa, men o'zim uddalayman. O'zingga malol keladigan ishni qilma, meni bir oddiygina sayyoh deb o'ylagin, xo'pmi?

¹Aozay – Vyetnam ayollarining milliy libosi.

¹Norval – tumshug'iда shoxsimon tish bo'lgan dengiz hayvonи.

Fiongning chehrasida norozilik zuhur etdi:

— Menga ekskursiya topshirilgan, deb o'ylayapsizmi... Meni sizga ko'maklashish uchun yuborishgan. Demak, qayza desangiz o'sha yerga boraman, ustoz!

Qizning qiyofasida bunchalik qat'iyat va o'jarlikni ko'rib, Nin o'zini kulgidan to'xtatolmadi. Fiong mashinadan tushdilar. Haydovchi mashinani burib, ulkan banyan daraxti ostiga eltilib qo'ydi. Fiong sumkasini yelkasiga tashlab, soatiga qaradi:

— Mashina bizni chorrahada o'n besh daqiqqa kutadi. Vaqtimiz oz, shoshilishga to'g'ri keladi, ustoz. Qiz shunday dedi-da, oldinga o'tib yo'l boshladi. U tez yurar, biroq ajabo, har doimgidek qadam toyushlari eshitmas edi. Nogahon Boy Xoanning yengil odimlashlari Nimming yodiga tushdi.

— Sekinroq yur, Fiong, bunaqa shoshmagan-da! — dedi Nin va kutilmagan savol og'zidan chiqdi: — Sen chindanam Xyueda tug'ilganniman?

— Nimaydi, ustoz?

Fiong to'xtab o'girildi, uning ko'zlari hayrat-la boqardi.

Tug'ilib-o'sgan shaharlariga borib kelgan professorning tengdoshlari: „Ilgarigi Xyuedan asar qolmagan“, deyishardi. Bolaliklari o'tgan Amxon maydoni buzilib ketmagan bo'lsa ham mutlaqo tanib bo'lmasdi. Odamlar, shahar osmoni, hatto dov-daraxtlar ham o'zgarib ketgandek tuyulardi. Haliyam nomi Xyue bo'lgani bilan uning o'ziga xos, betakror qiyofasidan nom-u nishon yo'q edi. Nin tanish-bilishlarining gaplarini jimgina eshitardi-yu, biroq ishonmasdi. Bu shahar uning ota makoni emasdi, u boshqa yerda tug'ilgandi, biroq beg'ubor bo-

laligi shu yerda o'tdi, birinchi muhabbatning mast qiluvchi sharobini shu maskanda totib ko'rdi, qaynoq yoshligining bebaivo damlari xazon yaproqlari yanglig' shu shahri azim tuprog'iga ko'mildi. Bu yerlarni tark etib ketgach, shuncha yillar ichi yashnoq gullarga burkangan „Oq yo'lbars“ ko'prigida o'tkazgan nurli oqshomlarni, chirildoqlarning timmay chirillashini xotirlamagan biror kunini esolmaysdi. Mana shu o'tgan davr — o'ttiz yildan ziyoddroq vaqt ichida shimoliy hududlarda yer qatlamlarini qazib, qadimiy inshootlar: Koloa, Xoala, Nyamak, Nyaxo qo'rg'onlarini tarixini o'rgandi. Har safar yangi ishga qo'l urar ekan, kun kelib, albatta, Xyueda ham arxeologik qazishmalar olib borishiga umid qilardi.

Mana, nihoyat umidlarini ro'yobga chiqdi. Arxeologning beqo'nim hayoti Ninni bu qadimiylar qo'riqlayotgan uyni izlab topdi.

Uyga olib boradigan so'qmoq buzilib, o't-o'lan o'sib ketibdi. Lekin boshqa jihatlari o'sha-o'sha; nafis naqsh bilan chizilgan parda, salqin ayvondagi yo'nib ishangan yog'och so'ri. O'tgan o'ttiz yil badalida buyumlar eskirgan, ammolardan biortasining o'rni o'zgarmagan. Uning hayotida esa ko'p o'zgarishlar ro'y berdi. Peshonasi sho'r ekan, mehribon, suyukli rafiqasi urush yillarda halok bo'ldi. U o'ttiz yil avvalgidek intizorlik va umid tuyg'ulari bilan Boy Xoan haqida o'ylamaydi, lekin o'tmishni xotirlar ekan, jon-dili dan unga baxtli umr tilar edi. Nima bo'lgan taqdirda ham, yoshi ulg'aygan sari qadron go'sha, o'quvchilik yillari, yoshlik davrini ko'p eslaydigan bo'lib qolgan...

Nin eshikni taqillatdi. Eshik zo'rg'a ochildi. Ostonda o'rita bo'yli ayol paydo bo'ldi, u egmiga kalta ko'yak kiyib olgan edi. Ozg'in, horg'in chehrasini ajin tirmagan. Ayol Ninga diqqat bilan razm soldi. Biroq ro'parasidagi

odamni taniy olmadi, hamma narsa uning xotiridan o'chib ketgandi. Oralarida vujudga kelgan noqulay jumlilikka barham berish uchun ayol qo'li bilan ishora qilib uni ichkari-ga taklif qildi. Uning ozg'in qo'llarida qahrabo bilaguzuk yaraqlar edi. U muloyimgina jilmaydi va bu tabassum evaziga uning yonoqlarini ikkitita chuqur ajin qopladi: yoqim-toy kulgichilar mana nimaga aylanar ekan...

Nin armiyaga ketgach, Boy Xoan uch yildan so'ng turmushga chiqqanini eshitgandi. Uning eri Tuyendik viloyati rahbarlaridan biri bo'lib, avtomobil halokatida hayotdan ko'z yungandi. Fransiyada ilm olgan to'ng'ich o'g'li 1975-yildan buyon o'sha yerda umrbod qolib ketgan, pirovardida Boy Xoan sakkiz yashar kichik qizi bilan bir o'zi yashar edi.

– Qizingiz yaxshimi, Boy Xoan... tuzukmi? Uni ko'r-sam bo'ladiimi?

– Rahmat, yaxshi, faqat hozir uyda yo'q edi, dugonalari bilan allaqayerlarda o'ynab yurgandir. Kechgacha ahvol shu, o'ynagani-o'ynagan. Ko'chadan beri kelmaydi, qiz bolayam shunaqa bo'ladiimi?

– Bola qancha yugurib o'ynasa, shuncha sog'lom o'sadi. Parvo qilmang. Hali uyda ko'p o'tirishiga to'g'ri keladi, o'ynab qolsin hozir, – deya uni yupatti Nin.

– O'ynasin, mayli, ko'nglini og'ritmay deyman, shuning uchun yomon gapirmayman unga. – Ayolning yuziga achchiq kulgi ifodalari yoyildi. – Lekin allaqayerlarda oyog'i kuygan tovuqdek yugurib yurish uchun tug'gammanmi uni? – Shunday deb u piyolalarga choy quyib uzatdi. – Oling, choy iching. Lotos bargidan damladim, otam shu choydan ichardi, loaqal odatharimizni eslaysiz.

– Nin indamay choydan ho'pladi.
– Nahotki u o'ttiz yildan buyon orziqib kutayotgan uch-rashuv shu bo'lsa?

Mana, u o'sha orzu qilgan zamindagi mashhur qal'a devorlari ostida o'tribdi. Gir aylanadagi tizza bo'y i o't o'sib ketgan, rang-barang gullar shamolda tebranadi.

Shu chog' kimmingdir sharaqlab kulgani eshitildi. Qamishlar orasidan jajjingina qushcha parillab uchib chiqdi-da, quyuq maysalalar ichiga o'zini urdi, uning ortidan Fiong yugurib chiqdi va tutib olish uchun o'ziniunga otdi.

– Ehtiyyot bo'l, Fiong! Hamma yoq qamish bo'lsa, qo'l-laringni kesib olma yana.

Fiong unga yaqin kelib, Ninning yoniadagi xarsangga o'tirdi.

– Yoshing nechada, Fiong?
– Yigirmada.

– Ancha bo'lidi mi ishlayotganingga? Yoki endi ish bosholadingmi?

– Ikki yil bo'lidi. O'rta maktabni tugatgach ishga kiranman. Quyosha shu'lasi barglar orasidan o'tib, ular o'rtasidagi o'tlar ustiga to'kildi.

– Ishing o'zingga yoqaptimi?
– Ha, judayam. Sayyoohlarni turli yerlarga olib boraman, ularga tarixiy yodgorliklar haqida so'zlab beraman. Shunaqayam hayajonlanamanki! Agar Lin Ming maqbarasi yoki Xon Ten saroyiga borish kerak bo'lsa, ajdaho shaklidagi qayiqda Xushbo'y daryosining xushmanzara go'shalariga borishga to'g'ri keladi. Ba'zan xorijy yurtlardan ko'plab sayyoohlар tashrif buyurishganda haftalab, dam olmasdan sayohat qilamiz.

Nin diqqat bilan qizga tikildi.

– Menga qara, Fiong... zerikkan kunlaring ham bo'-ladimi?

- Charchayman, bunaqasi bo'lib turadi. Haftalab tik oyoqda yuraverganingda bilmay ham qolasan charchaganingmi... Oyoqlaring qaqshaydi, poyabzaling yirtilib ham ketadi ba'zan. Lekin – zerkmagammam hech qachon. Gapirayotib qiz beixtiyor barq urib ochilish arafasida gi g'unchani uzib oldi, biroq novdasida bo'rtgan o'tkir oynalar barmog'iga kirdi-yu, darhol uloqtirib yubordi va dastro'molini olib barmoqlarining yumshoq yerlarini artdi. Ularning o'rtasida yotsisirash sezilmasdi. O'zaro hamkorlik uларни yaqinlashtirgan, shuning uchun Fiong o'zini ancha yengil va ochiq-qoydün tutardi.

- Bilasizmi, ustoz, ilgari men biram uyatchan, tortinchiq edim. Dongkhandidagi maktabda o'qiganman, u yerda, asosan, qizlar o'qirdi. Ikti-uchta qiz o'rtoq bo'lib yurardik, shuning uchunni, ko'philikning ichiga kirmsam, odamlarning savlati bosarmidi, ishqilib o'zimni yo'qotib qo'yardim. Endi ish boshlagan kezlarim ham boshimni ko'tarolmas, tuflimming uchidan ko'zimni sira uzolmas edim.

Qiz sharaqlab keldi.

- Haliyam shunaqamisan?

- Yo'g'-a, avvaliga nimasi yomon bu odatimning, deb shunga ko'nikmoqchi ham bo'lганман, undan qutulish o'miga yaxshi tomonimni axtarardim. Keyin vaziyat taqozisi bilan o'zimni nisbatan dadilroq va erkinroq tutishni o'rgandim. Ishim ravon, mantiqan asoslab gapirishni taqoz etardi, shunga o'rganish uchun o'zimcha mashq qildim. Uyda toshyna qarshisida turib olib, fasohat bilan gapirish, odamlar e'tiborini jaib qilish sirlarini, umuman, qiziqarli hikoya qilishni o'rgandim. Natija yomon bo'lmadи. Hozir avvaligidek tortinmayman. Fikrimni jamlab xotirjam holida sayyohlarni qiziqtiradigan rivoyatlar, latifalar ayitib beraman. Har bitta yodgorlik yonida gapirish uchun o'n daqiqa ajratilgan bo'lsa-da, dasturdan chiqib ketishdan

cho'chinmaydigan bo'ldim. Suhbatni xalq afsonalari bilan boyitaman. Menimcha, o'z ishimni yaxshi ko'rganim sababli shularga erishdim.

Qaytayotganda yo'llari yana Fusuan ko'prigi orqali o'tardi. Muattar daryosining yashil suvlari tayanch ustunlar atrofida o'rama hosil qilib, shoshilmay oqardi. Mashina oynasidan sarin, xushbo'y shamol yopirilib kirardi.

- Aybga buyurmasangiz bir gap aytaman, ustoz, – dedi Fiong va sadafsdek tishlarini yaraqlatib jilmaydi.

- Xo'sh, gapiraver.

- Yuvinayotgan chog'ingizda men sizning daftarlari-nigizni ko'rib, bir necha sahifasini o'qib chiqdim. Nazzarimda, noaniq, chalkash ma'lumotlar ko'p.

- Kim aytdi senga ularni o'qisin deb? – dedi Nin qovog'ini uyib.

- Eshiting, masalan, siz Vanniyon maqbarasini qurish uchun har kuni uch mingdan ziyod ishchi kuchidan foydaligan, deb yozibsiz. Menimcha, uch ming emas, o'ttiz mingta bo'lsa kerak.

- Qayerdan topding bu ma'lumotni?

- Bu xususda og'zaki rivoyatlarda aytilgan. Afsonalarning birida baxtiqaro hammollar haqida shunday hikoya qilinadi: „O'ttiz mingdan ziyod benavo, ochlikdan sillasi qurigan, ro shmolik ko'rmaganlar zalvorli xarsanglarni yelkalarida tashir, ohaktoshlarni maydalar edilar...“ Men hozir shu raqam tilga olingan boshqa, yanayam ishonchliroq mambalarni izlayapman. Bunday olib qaraganda ham, tosh maydalochilarning shunaqa yirik qo'zg'oloni uchun uch mingta odam kam ekani ko'rinib turibdi. Odamlar och-yalang'och, bir burda nonga zor bo'lishgan. Bu yodda og'ir, tinka-madorni quritadigan mehnat... Shuning uchun ular bolg'a, to'qmoqlar bilan saroyga hujum qilishgan, qo'rqishmagan, chunki pichoq suyakka borib qadalgan,

ular qo'rquvni unutgan va o'zlariga ishonganlar. Nega? Loaqlar ko'pchilik bo'lishgani uchun, to'g'rimi? Yaxshi qurollanishmagan, lekin son-sanoqsiz...

— Gapingda jon bor! — deya tasdiqladi Nin ich-ichida qizning dalil-isbotharidan yayrab. Shu choqqacha u eks-kursovod deganda hatto bittagina bo'l sin xorijiy tilni bilish tugul, yasan-tusan qilishdan boshqasiga qiziqmaydigan yigitchalarni ko'z oldiga keltirar, ularga „oyimqovoqlar“ deb nom qo'yib olgandi. Fiongning taxminlarini eshitib juda quvonib ketdi.

— Bilasamni, bu ma'lumotlarni menga shu bugun taqdim etishgandi, hali tuzukkina tanishib chiqishgayam ul-gurmagandim. Agar xo'p desang, hamma materialarni o'qib chiqasan bundan buyon, keyin... Shunday qilsak menga juda katta yordamning tegardi, nima deding?

— Rostdanmi? Jiddiy aytapsizmi? Jon-dilim bilan, agar siz lozim topsangiz! — deya chapak chalib yuborayozdi Fiong quvonganidan.

O'sha kuni kechqurun Nin o'zining xomaki yozuvlarini diqqat bilan o'qib chiqdi. Darhaqiqat, taxminlar, aniqlashtirish shart bo'lgan qaydlar ko'p ekan. U choy ho'plar ekan, bu kamchiliklarni sezmay qolgani uchun ichida o'zini yanir, so'kar edi. Nimasini aytasiz, so'nggi yillarda uning mantiqiy fikrlashi, o'tkir zehni, zakovatiga ko'z tegdi, shekilli. Keksalik alomatlari bo'lmasin-da, ish-qilib! Endigina ellikdan o'tgan bo'lsa, ilm kishisi uchun ayni balog'at yoshi-ku!

O'sha kundan so'ng Fiong Nin uchun o'ta zarur, faol yordamchiga aylandi-qo'ydi. Uning qaydlariga, to'plagan ma'lumotlari, qiyoslariga qancha o'zgartirishlar kiritidi — noma'lum, biroq Fiongning beg'araz, astoydil ko'magi

olib borayogan ilmiy tadqiqotlariga yangi mazmun baxsh etishi muqarrar ekanini kun sayin sezardi.

— Ustozi, Vannien maqbarasining qurilishida ishlagan korandalarning soniga nima uchun ahamiyat berganimni endi aysam bo'lar. — Shunday deb Fiong sumkasidan bir dasta qog'oz chiqardi. — Chunki meni Tosh maydalovichlar qo'zg'oloni bilan bog'liq jamiki ma'lumotlar ular qanday bo'lishidan qat'iy nazar, kattami-kichikmi, arzigulikmi-yo'qmi, farqi yo'q — juda qiziqqirardi. Ti Dik maqbarasi haqida hikoya qilayotganimda men xayolan mayssalar qoplagan tepalikni tasavvur qilaman. Imperator dunyo tashvishlaridan xalos bo'lish uchun shu yerda halovat topishni istagan. Hatto ko'nglidan o'tgan bu orzusini yaqin kishisiga vasiyat qilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham u tirikligidayoq jamiki ezilgan xalqni shu yerga haydatib keltingan. Och-yalang'och odamlar xarsangtoshlar ostida ezilib, dardini ichiga yutib, kaltak va zo'rlik hukmida o'sha inshootni qurishga kirishgan... Mana shunday mashaqqatlarga chidayolmay, oxiri qo'zg'olon ko'tarishgan. Qon daryo bo'lib oqqan, deyiladi afsonalarda... Tarix o'tmish qa'rida qoldi, o'n minglab kishilarning ko'zyoshi-vari-yu to'kkani terlari yolg'iz gung va lol toshlar bag'riga singib ketdi... Sayyohlarga taxminan shunday hikoya qilib beraman. Nazarinda, bu bebaho g'ishtlar tarixi haqida ro'yrost gapirmoqchi bo'lsang, eng avvalo, shularni tergan, o'matganlarni eslash bilan o'sha qissalarni boshlash kerak, shunday emasmi!

— Fikringga to'liq qo'shilaman, — ma'qulladi Nin. Qiz jilmaydi va yengilgina harakat bilan sochlarni tutatdi. O'sha-o'sha dudoqlar, o'sha tabassum, o'sha nozik bilaklar... Nin xo'rsinib qo'ydi va boshi aylanganini sezdi, so'ng lang ochiq deraza yoniga bordi.

¹ Tik Dik — Vyetnam imperatori (1840–1883).

– Ustoz, tobingiz qochdimi?

– Yo'q, yo'q, hammasi joyida. Faqat biroz hayajonlandim, shekilli. Bizning yoshimizda bu narsa zohiran aks etadi. – Nin o'zini qo'lga olish uchun bir-ikki marotaba ko'ksini to'ldirib chuqur nafas oldi. – Ehtimol, shuning uchun tobi ochay otgan odamdek taassurot qoldiarmann. – Uning ovozida hazil ohanglari bor edi.

– Nega endi, hecham-da! Men toliqqan bo'lsangiz kerak, deb o'yladim. Chunki oxirgi kunlari dam olish esingizga ham kelmayapti.

– O'tib ketadi bu. Lekin, ochig'ini aysam, men hayotimda hozirgichalik ishlab rohat qilmaganman... – Nin qizni yonida uzoqroq ushlab turish niyatida gapini tugatmay xayolga cho'mdi, lekin o'zi sezmagan holda odati bo'yicha unga javob berdi: – Xo'p, mayli, ketishing mumkin. Bungi ishimiz juda unumli bo'ldi.

So'nggi ish kuni – oqshomga yaqin ularning qidiruv ishlari nihoyasiga yetmoqda edi. Uch kundan keyin Nin Xanoya qaytib ketadi. Bu yerda bir oydan buyon yashaypti, shu muddat ichida o'ttizdan ziyod qadimiy obidalar tarixini o'r ganib chiqdi, to'rt yuz sahifadan ortiq hujat va ma'lumot to'pladi.

Txi Dik maqbarasida ganchdan yasalgan ko'zalardagi qordek oppoq gullarning g'unchalari barq urib ochildi. Uning muattar bo'yи yon-atrosga taraldi.

Nin bilan Fiong maqbarani aylanib chiqishdi. Ular asosiy hisoblangan katta zalda ikkita xorijiy sayyohlar guruhi bilan vyethnamliklarni uchratishdi. Sayyohlar orasida yurgilari kelmaganidan, ular kiraverishdagi ko'hna yo'sin qoplagan ayvonchaga chiqib ketishdi.

Fiong egniga ko'kish-kulrang, etagi uzun milliy rusum-

dagi ko'yylak kiyib olgandi, botayotgan quyoshning zarrin nurlari uning nozik did bilan gardishiga gullar tikilgan go'zal shlapasini yoritardi.

Nin oyog'i ostidagi bahaybat kulrang-moviy xarsang-toshlarni ko'zdan kechirar ekan, ularni bu yerga qanday qinchiliklar evaziga keltirishganini tasavvur qildi. Bundan bir necha asr muqaddam bo'lib o'tgan qo'zg'olon haqidagi qizning gaplarini esladi. U o'girilib qizga yuzlandi:

– Erta-indin Xanoya borganimda senga Doan Chingning „Burch va e'tiqodga sadoqat“ degan rivoyatlar kitingi yuboraman.

– Boshim osmonga yetardi... Lekin, iltimos, ilmiy tading-qiqtingizni ham qo'shib yuboring, xo'pmi?

– Adolat yuzasidan aytganda, sening noming ham kitobning titul varag'iда turishi darkor. Sening yordamingsizbu ishni oxiriga yetkazolmasdim, ha, chin so'zim.

– Qo'ysangiz-chi... – Fiong qizarib ketdi. – Xijolat qilinmang... odamni. Men shunchaki qoralamalar qizni o'qib chiqdim, xolos. Qanaqasiga tadqiqotchi bo'laman?

– Xohlasang, arxeologiya bilan shug'ullanishingga yordam beraman. Vaqtি keilib institutimizda ishlaysan!

Fiong boshimi quyи soldi. Bugun soch to'g'nag'ich taqmagani uchun sochlari shaloladek yelkasiga to'kildi.

– Arxeologiya mening jon-u dilim, lekin ekskursovod bo'lib qolishni istayman. Basharti tarixni o'rganar ekanman, maqsadim bitta, u ham bo'lsa malakamni oshirish. – Fiong bir zum xayolga toldi, so'ng gapini davom ettirdi. – Men bitta narsaga qat'iy ishonaman: go'zallikka oshno bo'lgan odamlar ezzulkini nozik fahmlaydigan bo'ladilar, ularning ichki olami turli nuqsonlardan forig'bo'ladi.

Ular o'rinalardan turib, tashqariga yo'l olishdi. Mo'jazingina ko'l yuzida quyoshning tilla jilolari o'ynaydi. Sayoga

Ketrin MENSFIELD
(Yangi Zelandiya)

batchilar ko'rimmaydi, ular maqbaraning ichki zallarini tomosha qilgani kirib ketishgan bo'lishsa kerak.

– Men umrimda sizga o'xshagan insomni uchratmaganman. Siz bilan yonma-yon turib ishlash mening birdan bir orzuyimdir. Afsuski, bu narsa peshonamga yozilmagan ekan. – Quiz chin ko'ngildan kuyunardi.

Soat beshlarda tepalik yonbag'ridan kelayotgan oq „Jip“ ko'rindi.

Bir necha daqiqadan so'ng haydovchi Nam Zyao paydo bo'ldi. Yarim soatdan so'ng ular yo'lda ketishar edi. Mana, mashina yana Le Loy shohko 'chasiidan shitob bilan ketib borardi.

Nin beixtiyor bir paythar o'qigan ko'hma hind afgansini esladi. Afsonada qaqnus haqida hikoya qilinardi. Qush keksayib qolganini sezgach, olis-olislardagi yaland'och qoyalarga uchib ketadi va o'sha yerda o'zi uchun daraxt shoxlaridan in yasaydi. Mustahkamroq bo'lishi uchun moy aralash tiradi. Keyin mana shu uyaga kirib yotadi va botayotgan quyoshning so'nggi nurlari ostida jon beradi, uning jismi kulga aylanadi. Biroq bir hovuch kul o'mida oppoqqina, bejirim tuxum paydo bo'ladi. Ko'klam kelib, tuxumdan butun vujudini momiq pat qoplagan, qo'rqmas va go'zal qaqnus jo'jasи chiqadi.

Nin horg'in jilmaydi. Bo'lajak ilmiy ishining muqaddimasida shu afsonani keltirsга bo'larkan.

Uning o'tmish hayotida bo'lib o'tgan voqeа va hodisalar tarixiga ana endi so'nggi nuqtani qo'ysa bo'ladi.

OQSOCH

Soat rappa-raso o'n bir. Eshik taqillayapti... Meni ma'zur turasiz, bekam, sizni bezovta qilmadimmi? Yo uxlayotgan edingizmi, rostdan ham shundaymidi? Ammo men – xizmatkoriniz o'z xonimimga uyquga ketishlaridan aval bir piyola issiq qahva ilimishni ma'qil deb bildim, balki, bu ishim sizga unchaliq xush kelmagandir, ehtimol...

... Yo'q, yo'q, arzimaydi, sira ham arzimaydi, bekam. Axir, qahva tayyorlash mening eng oddiy va arzimas kundalik yumushim-ku. Bilasizmi, unga ham har doim kechki ibodatidan so'ng ana shunday xizmat ko'rsatardim, keksa bekahimizni aytayotirman sizga hozir. Katta xonim der edim uni. Buvingiz o'ta xudojo'y ayol edi. Har oqshom toat-ibodatini sira kanda qilmas, bot-bot menga ham:

„Xudo Jonimizni olguniga qadar bizlarga tavba qilish uchun muqaddas muxlat berib qo'yaniga shukr qilaylik“, deb turardi. Bu kabi so'zlar unga juda xush yoqardi. Ammo birozgina xotirasи faromush, tez-tez parishxonotirroq bo'lib qollardi ham. Shu sababni, esida saqlash uchun kichkinagina qizil daftар tutib olgan va muttasil shu daf-tariga o'zi uchrashgan, gaplashgan hamda unga birinchimarta yo'liqqan odamlar ism-sharifini yozib yurardi. Ha, ana shunday erimmagan bekach edi. Har gal bior-bir notanish kishi bilan yuz ko'rishib qolguday bo'lsa, darhol menga: „Elen, azizim, menga boyagi daftarimni berib

yubor, zudlik bilan bu odamning kimligini yozib qo'yay, esimdan o'ziqib yurmasin tag'in“, deb tayinlar edi. Bunday kezlarda men o'zimni juda noxush sezardim, to 'g'risini aytganda. Ochig'i, bekach ba'zan bunday qiliqlari bilan biroz yovvoyiroq bo'lib ko'rinih ketardi ko'zga. Bilasiz, bivingiz hech qachon yumshoq yostiq ishlatmas, hamisha qattiq gillam ustiga mukka tushgancha tizzalab o'tirardi. Ammo men keksa xonimni qo'yarda-qo'ymay, bir amallab par adyol bilan o'rab qo'ymoqchi bo'lardim, biroq birinchisi harakatimdayoq, o, u menga qanchalar dahshat hamda nafrat bilan yozg'irib qaraganini bir ko'rsangiz edi o'shanda! „Bizning Egamiz ham ana shu par matohingda o'tirgan edimi, Elen?“ deya qattiq baqirib bergandi xonim ko'zlarimga vahshat bilan tikilgancha. Men yosh Edim-da, bekach so'zlariga nima deb javob beribman deng? Aytibmanki, „Yo'q, aslo unday emas, lekin o'sha Egamiz u paytlar sizning yoshingizda bo'lmagandir-da“, debman. Rosa qiyomat qo'pgandi o'shanda. Keksa xonim xuddi aqldan ozgandek, telbalangancha yuzimga uzoq vaqt timimsiz o'shqirib tashlagandi. Ammo bekach baribir juda-juda yaxshi edi, buni o'zingiz ham bilasiz-ku, xonim, shunday emasmi? Har kecha yotog'iga kirib, ko'rpasidan chiqib qolgan oyoqlarini yaxshilab o'rab qo'yar, menga teskari, yon tomoniga o'girilib yotgan keksa xonim nigozlarini ko'rolmasam ham, negadir u menga shu ishim uchun ham minnatdor qarab turganini ich-ichimdan pay-qab qolardim, ko'rpasidan tashqariga chiqib turgan oriq, keksa qo'llari har doim karavotidan pastga osilib yotar, xonim har tun behad darajada holsiz va madorsiz holdapinakka ketardi. Mana, endi esa siz xuddi o'sha buviningizga o'xshab uxlaysiz, vaqt o'tishini qarang-a, yana bir zumda tarix takror bo'lyapti.

...Ha, bekam, albatta, o'tmish voqealarining bari kecha-

gidek esimda qolgan. Keksa xonim biram yoqimtoy edi, men umrimda shu paytg'a qadar bunday keksa va ko'rkan ayolni ko'rmagandim. O'zgacha bir zavq bilan uning siy-rak va mayin oq sochlarni tartibga solardim, hatto pesh-nasi ustiga o'zi yoqtiradigan jingala pattarini ham attaylab tushirib qo'yardim, nimjon va kuchsiz bo'yniga esa bir shoda eng chiroyli to 'q qizil kapalakgul dastasidan ilardim, negaki o'sha kapalakgullar buvingizning jon-u dili edi. Ular hal-hamon o'zimming ham ko'z o'ngimda turibdi.

...Faqtgina eng so'nggi yilga kelib, keksa xonim o'zida bo'lmay, rostakamiga ahvoli xarob bo'lib qoldi. O'zingiz ham eslasangiz kerak buni. Albatta, xonim aslo yovuz xo'jayinga aylanib qolmadı, aksincha, u dunyodagi eng ajoyib beka edi. Lekin qarilik o'z hukrmini uning be-dor va zaif taniga tobora o'tkazishda davom etardi. Hatto ozgina esdan ham og'ganday edi. Bekach go'yoki o'ta muhim bir narsasini yo'qotib qo'ygan kishidek uyning hamma yog'ida kalovlangancha kezib yurardi – zinalar-da, tepada, pastda, hattoki oshxonada ham uni uchratib qolardingiz. U misoli birov bilan jon achchig'ida urishib turgandek qiyofada to'xtovsiz g'udrangancha, tinnmay koyingancha u xonadan bu xonaga beorom ruhdek o'tib, sira tinchimasdi. Ba'zan keksa xonim bu avzoyida ayni yosh boladek bo'lib ko'rinar, „Men uni yo'qotib qo'ydim, uni yo'qotib qo'ydim men“, deya ezgin noligancha atrosga mo'litirab qarab qo'yardi. „Yura qoling, bekam, o'sha narsangizni sizga men topib beraman hozir“, deya uni tinchlantirmoqchi bo'lardim. Biroq u injiqlik bilan qo'limdan mahkam tutib olardi-da: „Topib ber, Elen, menga o'sha narsamni topib ber tezroq“, deya zorlangancha yuz-ko'zlaridan militrab yosh oqizardi. Bekach meni yaxshi ko'rardi. Ammo bu hikoyam siz uchun nihoyatda qayg'uli-a, shunday emasmi, xonim?

– Nega ishga ko'mib tashladigiz meni? – deb so'radim bir kuni undan. – Axir, texnik xodimman, buning ustiga shaxsiy xizmatkorligiz emasman, hamma ishga hozir-unozir bo'ladigan.

U ancha vaqt lom-mim demay o'tirdi. Katta-katta ochilgan qora ko'zlarini menga tikib (ammo o'sha ko'ngil-siz kundagi singari ular yoshga to'limagan, biroq sal xafa ko'rinardi), dedi:

– Siz nohaqsiz, men sizga shuncha yumushni faqat bir sabab bilan topshiryapman: kelajakda yetuk mutaxisis bo'lisingizni istayman. Yangi guruch navini yetishtrishni xohlayotgan texnik xodim ko'p marsani bilishi ham, qilishi ham darkor. Chunki ko'pincha barcha ish o'z bo'yningizda qolishi mumkin. Xullas, shu kasbni tanladigizmi, demak, unga mehr bering, biror narsaga erishishni istaysizmi, unda ish payti serg'ayrat bo'ling. „Xizmatkor“ deganingiz nimasi, men ham siz bilan teng ishlanmayapmammi?

O'rinsiz gapirganimni bilib, og'zimga tolqon solgan-day jum bo'ldim.

Xiongning barcha urinishi bahs-munozarali edi, u endi qobiliyatlari rahbar. Uning qo'l ostida o'nlab odam mehnat qilar, har kuni esa yuzlab yumush kutib turar, barcha muammolarini xamirdan qil sug'urganday do'ndi. Faqat mendan tashqari hamma uni hurmat qilib, yaxshi ko'rardi. Men ham bir kuni nohaqligimni ang-ladim.

O'n yil g'ir etib o'tib ketibdi, uning qanday yashaganini bilmadim, qay sababdan u hozingiday bo'lib qolganini ham. Ba'zan xotiramga ishonqiramasdum, balki, bu Tiem bo'lmasa-chi deb. Uning xizmat daftarchasiga Nguen Txi Tiem Xiong deb yozilgan. Balki, bolaligidu Tiem deb chiqishgandir.

— Xo'sh, qalay, eski tanishing bilan chiqishib olding-mi? – mendan hol so'radi Day.

— Chidasa bo'ladi.

— Demak, hammasi joyida. Aytishlaricha, u guruchning yangi navini sinovga tayyorlabdi va yaqinda bu haqda ilmiy konferensiyada ma'ruza qilarkan.

— Barchasiga qanday ulgurarkan-a? Yangi guruch navi-ni topishga yillar ketadi, bu oson ish emas.

— Institutdaligidayoq seleksiya bilan shug'ullangan, shekilli. Agar yangi guruch navini davlat ro'yxatiga kirishsa, ishi besh deyaver! Bizga yo'l bo'lsin. To'g'risini aysam, uning qarshisida bosh egaman!

Shu tobda erkaklik g'ururim ozor topganday tuyulib, jismimni izirobli afsus chulg'ab oldi, go'yo ortga qaytarib bo'lmas vaqt singari. So ngra alamlı rashk o'ti meni kuy-dirdi. Xiong ilm jihatidan seni ortda qoldirdi deysizmi? Hechqisi yo'q, men uni kundalik hayotdagi yumushlarda dog'da qoldiraman, o'yin-kulg'i va shod-xurramlik qanaqa

day jum bo'ldim. O'rinsiz gapirganimni bilib, og'zimga tolqon solgan-day jum bo'ldim.

Xiongning barcha urinishi bahs-munozarali edi, u endi qobiliyatlari rahbar. Uning qo'l ostida o'nlab odam mehnat qilar, har kuni esa yuzlab yumush kutib turar, barcha muammolarini xamirdan qil sug'urganday do'ndi. Faqat mendan tashqari hamma uni hurmat qilib, yaxshi ko'rardi. Men ham bir kuni nohaqligimni ang-ladim.

O'n yil g'ir etib o'tib ketibdi, uning qanday yashaganini bilmadim, qay sababdan u hozingiday bo'lib qolganini ham. Ba'zan xotiramga ishonqiramasdum, balki, bu Tiem bo'lmasa-chi deb. Uning xizmat daftarchasiga Nguen Txi Tiem Xiong deb yozilgan. Balki, bolaligidu Tiem deb chiqishgandir.

— Xo'sh, qalay, eski tanishing bilan chiqishib olding-mi? – mendan hol so'radi Day.

— Chidasa bo'ladi.

— Demak, hammasi joyida. Aytishlaricha, u guruchning yangi navini sinovga tayyorlabdi va yaqinda bu haqda ilmiy konferensiyada ma'ruza qilarkan.

— Barchasiga qanday ulgurarkan-a? Yangi guruch navi-ni topishga yillar ketadi, bu oson ish emas.

— Institutdaligidayoq seleksiya bilan shug'ullangan, shekilli. Agar yangi guruch navini davlat ro'yxatiga kirishsa, ishi besh deyaver! Bizga yo'l bo'lsin. To'g'risini aysam, uning qarshisida bosh egaman!

Shu tobda erkaklik g'ururim ozor topganday tuyulib, jismimni izirobli afsus chulg'ab oldi, go'yo ortga qaytarib bo'lmas vaqt singari. So ngra alamlı rashk o'ti meni kuy-dirdi. Xiong ilm jihatidan seni ortda qoldirdi deysizmi? Hechqisi yo'q, men uni kundalik hayotdagi yumushlarda dog'da qoldiraman, o'yin-kulg'i va shod-xurramlik qanaqa

bo'lishini ko'rsatib qo'yaman hali. Ko'raniiz, qay birimizaga baxt kulib boqarkan!

Ishda ushlanib qolishni bas qilib, dam olish kunlari qiz o'riqolarimni „tabiat qo'yning“, institutimga taklif qila boshladim. Bir kuni Lan¹ ismli yoqimtoygina qiz bilan, u g'arov darparda yasardi, puldorgina qiz hamisha yasan-tusan qilib, odamni aldarab qo'yardi, Xiongning uyiga kirdim. (Aytib qo'yay, o'sha paytda Landa ko'nglim bor edi.) Xiong kichkhina xonada yashardi. Bir kishilik karavotidan, yozuv stoli, kitob to'la shkafdan tashqari, hamma joyni urug' navimi tekshirishda kerak bo'ladigan yana ming xil ashqol-dashqol bosib ketgandi. Eshik tashqarisida esa uning tajriba ishlari boshlanardi, nihollarning ustti hali ochilmagan, yonida boshhoqli don yotardi. Yana tokchada dalada o'sadigan sariq gul solin-gan guldon ham ko'zga tashlanadi. Uy guruch va yosh o'nning hidiga to'la edi.

Xiong bizni o'zining doimiy xushmuomalaligi bilan qarshi oldi. Suhbat avjiga chiqdi. Zimdan ikkala qizga ham nazar soldim. Ullarni bir-biriga qiyoslaganimda Xiong Landan chiroyliroqligiga amin bo'lidi. Bu g'ashimga tegdi, ilgari Langa o'xshagan qizlarni boplab laqillatar edim-da. U bashhang kiyungan, Xiongning egnida paxtadan tikilgan katak-katak ko'k kofta, daladan endigina kelgani bois sochlari shamoldan to'z'igan. Lan ikkimirz ortga qaytayotganimizda u yo'lbo'yи Xiongning ko'kka ko'tarib maqtab keldi, hafsalamni pir qildi.

Yig'im-terim yaqinlashdi, ish ayni qizg'in pallada Xiong menga yana-da samimiyroq hamda iliq munosabatda bo'layotganday tuyuldi. Har kuni gapga tutar, qarabsizki, ishda men o'z xohishim bilan gapiradigan bo'lidi.

¹ Lan – orxideya.

– Manavini bajarishda menga ko'maklashvor, do'stim! Bugun kun bo'yи dalada ter to'kishim zarur... – Gohida meni do'stim, deb chaqirardi.

Qiz sho'rlik ba'zan ekin maydonida kun chiqqandan qosh qorayguncha, sug'orish paytari yoki yomg'ir yog'-ganda sholi ustini yopish uchun tuni bilan ham qolib ketardi. U menga har kunlik qayd daftarchasini berdi. Ayrim navlarmi ko'rib hayratdan yoqa ushladim, o'nlab don yig'imlari yozilgan, ularni mukammal kuzatish darkorigidan hayron bo'ldim. Xiong olib borgan tekshiruv ko'lamiga qoyil qolib, unga beixtiyor hurmatning oshadi. Daftarchalarni u hamisha cho'ntagida olib yuradi.

Oxiri ko'rinnmas ishga ko'milib ketganimni payqadim. Bir kuni Katta Ayiq keldi.

– Ishlarining tuzukmi? – so'radi menga g'alatiroq qarab va xaxolab kulib yubordi.

– Har doimgiday, – deb javob qaytardim.

– Kuzatib tursam, esankirab qolganga o'xshaysan. Yoningdag'i odamni ko'rmaisan ham, turdim, turdim, boqibeg'amsan. Bolalarning boshi qotgan, barcha do'stlarni tashlab ketish qanday qilib ko'nglingga sig'di-ya?

– Bekorchimamni, haybarakallachilik qilishdan ne na?

– Kutilmaganda sholikorlikka jom-jahding bilan kirishib ketding! Bu yog'i nima bo'ladi endi? – Day shubhali boqardi. So'ng o'girilib, nari ketdi.

Balki, rostdan ham o'zgargandirman. Nafaqat do'stlarim, hattoki ota-onam shikoyat qilib yozg'ira boshladи. Uyga ikki hafta bormaganimdan keyin, otam:

– Yangi dugonang paydo bo'ldimi deyman, o'g'ilim? – dedi.

– Qanaqa dugona, dada! Institutda yotib qoldim. Guruchning yangi duragay navi yetishtirildi, shu bilan band edim.

– Attang, avvalroq bilimbabman-da, – dedi otam. – Ishga mehr qo'yibsan, o'g'ilim, bundan xursandman.

– Lan kelgandi, aytishicha, uni butunlay umutib yuborib-san, – dedi onam darrov dadamning gapini bo'lib. – Billib qo'y, u qizning xaridori ko'p, keyin attanglab qolma. Ya-qinda o'ttizga to'lasan, sen tengilarning bolasi maktabga boryapti...

– Yaxshi qiz o'zi, – dedim achchig'im kelganini bildirmay. – Unga aytib qo'ying, turmushga chiqaversin, endi men uni yoqtirmay qo'ydim!..

Institutga qaytgach, Xiong konferensiya ketganini bildim.

– U menga hech nima qoldirmadimi? – deb so'radim bo'limdag'i qizlardan.

Uldordan biri cho'ntagidan bir parcha qog'oz chiqarib uzatdi. Bu Xiongдан qolgan xat edi. Unda: „Bin, ish ti-g'izligidan ketishimga to'g'ri keldi. Ilimos, mening o'r-nimga hammasini bajarib qo'ying“, deb yozilgandi.

Hech narsa tushummaganday xatni bir necha marta o'qib chiqdim. Avvaliga xursand, so'ng xafa bo'ldim, ilgari sira bunday g'amga botmagandim. Ekin maydoniga borib, Xiong ayigan barcha ishni tartib bilan qillardim, ammo ish o'z domiga torta olmadi, aksinchcha, holdan toy-dirdi. Fikrlarim esa uzoq-uzoqlarda, kim bilisin qayerda edi.

Birdan Xanoya, Xiong ma'ruza qiladigan konferensiya borgim kelib qoldi. Shuncha yillar nimaga erishganini biliishni istardim. Biroq konferensiya qanday qilib kirishim mumkin, axir, u yerga ilmiy ishlari bor, yutuqlarga erishganlar kelsa, men bo'lsam ilm yo'liga beo'xshov qadam qo'yayotgan odamman – yangiman!

Shu tobda onam keldi, men sholi qatorlari orasidan longvik qidirayotgandim. Ahvollimni kuzatib, yonimga ya-qinlashdi:

– Attang, avvalroq bilimbabman-da, – dedi otam. – Ishga mehr qo'yibsan, o'g'ilim, bundan xursandman.

– Lan kelgandi, aytishicha, uni butunlay umutib yuborib-san, – dedi onam darrov dadamning gapini bo'lib. – Billib qo'y, u qizning xaridori ko'p, keyin attanglab qolma. Ya-qinda o'ttizga to'lasan, sen tengilarning bolasi maktabga boryapti...

– Yaxshi qiz o'zi, – dedim achchig'im kelganini bildirmay. – Unga aytib qo'ying, turmushga chiqaversin, endi men uni yoqtirmay qo'ydim!..

Institutga qaytgach, Xiong konferensiya ketganini bildim.

– U menga hech nima qoldirmadimi? – deb so'radim bo'limdag'i qizlardan.

Uldordan biri cho'ntagidan bir parcha qog'oz chiqarib uzatdi. Bu Xiongдан qolgan xat edi. Unda: „Bin, ish ti-g'izligidan ketishimga to'g'ri keldi. Ilimos, mening o'r-nimga hammasini bajarib qo'ying“, deb yozilgandi.

Hech narsa tushummaganday xatni bir necha marta o'qib chiqdim. Avvaliga xursand, so'ng xafa bo'ldim, ilgari sira bunday g'amga botmagandim. Ekin maydoniga borib, Xiong ayigan barcha ishni tartib bilan qillardim, ammo ish o'z domiga torta olmadi, aksinchcha, holdan toy-dirdi. Fikrlarim esa uzoq-uzoqlarda, kim bilisin qayerda edi.

Birdan Xanoya, Xiong ma'ruza qiladigan konferensiya borgim kelib qoldi. Shuncha yillar nimaga erishganini biliishni istardim. Biroq konferensiya qanday qilib kirishim mumkin, axir, u yerga ilmiy ishlari bor, yutuqlarga erishganlar kelsa, men bo'lsam ilm yo'liga beo'xshov qadam qo'yayotgan odamman – yangiman!

Shu tobda onam keldi, men sholi qatorlari orasidan longvik qidirayotgandim. Ahvollimni kuzatib, yonimga ya-qinlashdi:

- Nima bo'ldi, o'g'lim? – Onamning ovozi xavotirli chiqdi. Uning ko'ziga juda ma'yus ko'ringanimga shubha yo'q.
- U xizmat safariga ketdi, besh kundan keyin qaytadi, – dedim battar hayajonlanib.
- U... Kim haqida gapiryapsan, o'g'lim?
- Rahbarim haqida! Ketdi, men bo'lsam manavi yerda uni deb o'lib-tirilib ter to'kyapman.
- Bu menga yoqmayapti! Texnikumni bitirgan odam dalada loy kechib yurishi kerakmi? Ozib ham ketibsan, bolam. Orang jo'natdi meni. Uyga kelsin, tanishimga ayt-dim, vazirlikka o'tkazishadi, devonxonada ishlaydi, dedi. Hoziroq ketishing kerak.
- Hech qayerga o'tmayman!.. Shu yerda qolaman! – dedim qat'iy, hatto jahl bilan.
- Nachora, o'g'lim, sen aytgancha bo'la qolsin. Otang bilan senga to'siq bo'lishni istamaymiz, gapimga ko'ndi onam ahdimdan qaytmasligimmi payqab. – Necha oydan beri uyga ruzuk-quruq bormaysan, kelganingda esa qovoq uyib, jahl qilib yurasan; otang sendan xavotirlandi, lekin majburlash xayoliga ham kelgani yo'q.
- Oyijon, mutlaqo boshqa sabab tufayli jahlim chiqdi. Yodingizdam, qachonlardir xushbo'y isli tayoqchalar qil-ganmiz? Uyimizda bir qiz ishlagandi, esingizzamid?
- Tiem midi?
- Tasavvur qilyapsizmi, oyijon, o'sha Tiem institutni tamomladi. U endi rahbarim.
- Rahbarim deysanmi?.. Tiem!.. Uning ko'zlarini doim nam bo'lib yurardi!..
- Gapim onamnga yashin tekkanday ta'sir qildi. O'ziga kelgach, yana gapira boshladи:
- Nima qilibdi, bo'lishi mumkin... Qizning o'ziga xos fe'li bor edi. Iste'dodi bilan barchani ortda qoldirishi tabiiy.

O'mi kelganda, bolam, aytib qo'y, undan xursand bo'ldim. Azaldan unga tan bergannaman...

Ota-onam ushbu suhbатдан keyin ham meni uylantirish maqsadida oyoq tirab turishdi. Lekin xayollarim umuman boshqa tarafslarda. Vaziyat yana-da chigallashdi: Xiong o'stirgan guruchning yangi duragayidan ikkitasi davlat re-estriga kiritildi, ko'paytirib, urug' fondiga o'tkazish tavsya qilindi. Men endilikda undan faqt: „Bin, menga yordam-lashvoring, iltimos...“ „Bin, manavi yumushni bajarvo-ring, aybga buyurmang tag'in...“ degan gaplarni eshitaman. Ishga ko'mib tashhladi, qator savollar yechimini topishga majburladiki, eski oshnalalarimni, zavq-shavqni, ziyoftalar-ni o'ylashga ham toqatim qolmadı. Kimdır meni Xiongni sevib qolgan, deb gap chiqardi. Albatta, bu mish-mishlarni yolg'on dedim, lekin bir kuni sevishimga iqror bo'ldim. Xudo biladi, aslida, uni qachondan beri sevaman. Bundan dahshatga tushayozdim.

O'sha kuni ertalab yig'ilishimiz bor edi, kimdir Xiong-ga qo'ng'iroq qildi, birozdan so'ng yoniga mototsiklda yosh yigit keldi. Uzoq vaqt birga o'tirib, o'zi bilan qayergadir olib keldi. U qorong'i tushganda qaytdi. Kun bo'yı o'zim-ga sig'madim, ishtaham yo'qoldi, ko'nglim g'ash bo'ldi. O'tayotgan mototsikllarni ko'rib, tiroq bosardi meni. Hatto Xiong qaytganida zarracha quvonmadim.

– Tobingiz qochdimi? – so'radi Xiong ahvolimni ko'rib.

– Yaxshiman... Biroz charchadim.

– Xonangizza kirib, dam olgанингiz durustmid?

– Qayerga bordingiz, Xiong? Kim bilan? – o'zimni tutib turolmadim, ahmoqona savol o'z-o'zidan otilib chiqdi. Tiemning yuzi avval junday oqardi, keyin anorday lovul-ladi; lablari pirpirab, menga nimadir demoqchiday bo'ldi.

– Tiem! – dedim men sharitta uning qo'llaridan tutib. – Tiem, kechiring meni! Kechiring! Sizni sevaman... Or-

tiq ketib qolmang. Qo'ryapman. Kuni bilan arang nafas oldim.

Tiem qo'lini tortib oldi-da, xo'rsinib, muloyim ovozda dedi:

— Bin, sizning hech qanday aybingiz yo'q...
Uning yuzi qat'iy jiddiy lashgan bo'lsa-da, baribir olamda eng maftunkor chehra edi.

— Yo'q, men xato qildim! Qarshingizda aybdorman... Nay bilan yuz bergan o'sha voqe... Iltimos, unuting... Men yosh bola edim, hech narsani tushunmasdim hali...

— Umutolmayman, lekin barchasini siz o'ylaganchalik emas, boshqachasiga eslab qolganman.

— Qanaqasiga?! Axir, qo'rslik qilganman!..

— Boshqachasiga – demak, yaxshi ma'noda! Mama shu voqeadan keyin matonatlari hamda qat'iyatli bo'ldim. Agar menga yaxshi munosabatda bo'lganingizda, hozir umuman boshqacha odam bo'lardim. Shuning uchun sizdan jahlim chiqmaydi, aksincha, mimmadorman.

U jilmaydi.

— Lekin men... Men sizni sevaman.

— Unday bo'lsa, rahmat sizga, – deb suhbatimiza nuq-ta qo'ydi.

Qattiq bezovtalik va umid bilan Xiongdan ko'z uzmay, har bir harakati, imosini tushunishga intildim. U esa buni ko'r mayotganday, ilgarigidek g'ayrat va tirishqoqlik bilan boshqa ishlarga qo'l uraverdi.

Kunlар ortidan oylar o'tdi. Muhabbat qalbimda osmon-dagi qora bulutday kengayib bordi, uning yuki kundan kun og'irlashaverdi. Bir narsani aniq bilardim, baxtimga Xiongning sevgani yo'q, ammo muhabbatiga erishmoqchi bo'lganlar son-mingta edi. Ularning orasida muhandis-lar, fan nomzodlari, universitet o'qituvchilari ham bor. Nomzoddarni dog'da qoldirish, ulardan o'zib ketish qo'llim-

dan kelmasligini anglab, institutdan ketishga ahd qildim. Xiongdan uzoqroq bo'lsam, hayotim o'z iziga tushib ketar, deb o'yladim. Buni umga ma'lum qilganimda, menga uzoq tikilib qoldi.

— O'ylab ko'rishimga vaqt berasizmi? – dedi u. – Un-gacha... Bir muhim ish bor, uni sizga ishondim, do'stim. N. viloyatiga yangi navmi olib borish zarur. Mahsulot un-cha katta emas. O'sha yerda ekishsin. Jonim bilan o'zim borardim-u, ko'rib turganingizdek, bu yerda ish qalashib yotibdi. Urug'ni bergach, o'zingiz bir muddat o'sha yerda qoling, urug'ni sepishda, ko'kartirishda ko'maklashasiz. Ishni tugatgach, qaytib keling, rozimisiz? Balki, oy oxir-da, do'stim, yoningizga o'tib qolarman.

Ko'rib turganingizdek, qoplar bilan manzilga otlan-dim, Xiong kuzatib qo'ydi. Do'stlarim uni sevishimni bi-ladi, shu boisdan hech kim vokzalga kelmadи: bizni yolg'iz qoldirishni istadilar, hatto Katta Ayiq ham... Hamma gap-dan xabar topgach, u menga „Xo'sh, ko'ngling erib ket-dimi? Sharitta hujum boshlamaysanmi, xomkalla!“ dedi. Sevgimga yon bosishi mumkin bo'lgan qo'pol hiyalarni aytdi. Biroq bularning bari Xiongday qizning oldida puch yong'qligini bilardim.

Meni qanday kuzatganini o'zingiz ko'rdingiz, odatiy xayrashuv, bamisolni do'stiga oq yo'l tilaganday, tamom... Shu payt yo'l doshim, vagon oynasidan keng dalaga boqdi. O'girilgan yuzidan qirra burni, o'ram-o'ram, tim qora jingalak sochlari menga ajoyib tuyuldi.

— Hikoyangni tinglab, xayolimga bir fikr keldi, – dedim.

— Nima ekan, ayt-chi? Menga o'rini maslahat kerak, – javob berdi yo'l doshim oynadan yuz o'girmay.

— Sen bilan endigina tanishdim, lekin dilingdagini ochiq-oydin to'kib soldingki, o'zimmi senga do'stdek his etyap-

— Xo'sh, xo'sh... – betoqatlik bilan men tomonga o'g'rib qaradi – ko'zlar olovday chaqnardi.

Keng peshonasiga boqib, o'yg'a toldim: „Yo'q, bu olov yigitni bulutsiz, g'am-tashvishdan xoli hayot kutib turgani yo'q, bunday yashashdan barcha yoshlар o'zini tortadi. Hayotda adashishlar, izlanishlar bo'lsin, shunda ko'pgina yaxshи ishlar amalga oshadi, faqt... – xayolimga kelgan fikrdan jilmayib qo'ydim. – Yerdan yashil novdalari unib chiqadigan urug' to'la qoplar bilan bugungi yo'iga chiqish, bu – bir bahona“. Yigitga esa shunday dedim:

— Menimcha, u seni yaxshi ko'radi. Faqat undan tez oqqañ soy kabı otashin muhabbat izhor qılıshını kutma. Qız sendan ishonch, tirishqoqlıq va so'nmas ruhni talab qıladı. Albatta, baxting kulib boqadi, meni aytdı dersan!.. Gapımmı tamomlab, tilagım amalga oshishiǵa ishonch bildirdim: ikkisi bir-birini sevədi, nima bo'lishidan qat'iy nazar, ular baxtlı bo'lishadı.

A-BA-BA-BA-BA-A...

Yasukiti bu do'kon xo'jaynini anchadan beri bilardi.
Ya'ni, taxminan, uni dengiz harbiy birikmasiga o'tkazishgan kundan beri. U nogahon bir qutti gugurt olishga kirgandi. Do'konda kichikkina peshtaxta bor edi; oynak orqasida, admirall bayrog'i qadalgan „Mikasa“ modelidagi kreyser atrofida kyurasao shishalari, kakao idishlari, mayiz qutilari tizilib turardi. Oziq-ovqat do'kon bo'lishiga qaramay, eshik tepasiga „Tamaki“ degen qizil yozuv osilgan, demak bu yerda gugurt ham sotilishi turgan gap. Yasuki-i do'konga bosh suqib: „Bir qutti gugurt bering“ – dedi. Eshik yaqinidagi peshtaxta ortida ko'zi g'ilay bir yigit zे-rikib o'tirardi. U tashrif buyurgan kishimi ko'rib, cho'timi oyidan jildirmay, tabassum ham qilmay javob berdi:

— Afsuski, gugurtlar tugagan. Mana buni oling.
„Mana bu“ papirosga qo’shib beriladigan mittigina qu-
icha edi.

- Biroz noqulayroqmi deyman... Unda bir quti „Asaxi“

nam bering.

- *meendisi* yo q. Olaverding.
- Yo'q-yo'q. „Asaxi“ bering.

- Gugurt zarur bo'lsa, bexijolat olaveryng. Keraksiz

G'iliyning so'zlarini, shubhasiz, iltifotli desa bo'lardi.
Ammo uning ohangi va yuz ifodasi g'oyatda souq edi.
Undan tekkinga bir narsa olishga nimadir yo'il qo'ymaydi,

lekin olmasdan qayrilib ketaverish ham noqlay. Yasukiti istar-istamas bir senlik chaqani peshtaxta ustiga qo'ydi.

– Unda shunaqa qutichadan akkitasini bering.

– Ikkita xohlaysizmi, uchitami, marhamat. Faqat to'lash shart emas.

Baxtiga, shu daqiqada eshikda osig'liq turgan „Kansen-sayda“ reklamasi ortidan sotuvchining husnbuzar toshgan ifodasiz yuzi ko'rindi.

– Xo'jayin, gugurtlar bu yerda.

Yasukiti ichki tantana bilan bir quti oddiy gugurt sotib oldi. Ularning narxi odatdagiday bir sen edi. Ammo hech qachon gugurt degan narsa uning ko'ziga bunchalik chiroqli ko'rinnagan. Sotuv markasi – uchburchak to'lqinlardagi yelkan shunchalik go'zalki, xohlasang romga osib qo'yishing mumkin. Gugurtlarni avaylabgina shiminig cho'ntagiga solgan Yasukiti g'alaba nashidasini surib do'-kondan chiqdi.

Yasukiti shu kundan boshlab yarim yil mobaynida korpusga ketish-qaytishda do'konga qarab o'tadigan bo'ldi. Haliyam ko'zini yumsa, uni aniq-timiq tasavvur qilishi mumkin: shiftdagi to'simlanga dudlangan cho'chqa go'shtlari osib qo'yilgan. Derazaning mayda ko'zlaridan suoqlangan devorga yashiltob quyosh nurlari tushib turidi. Taxta polda quyultirilgan sut reklamasi tushirilgan qog'ozlar sochilib yotibdi. Eshik ro'parasidagi ustunda osig'liq soat tagiga katta kalendar ilingan. Va boshqalar – vatrinadagi „Makasa“ kreyseri, „Kansen-sayda“ reklamasi, stul, telefon, velosiped, shotland viskisi, Amerika mayizi, manala sigaralari, Mistr papiroslari, dundlangan baliq, soyamanla qovurilgan mol go'shti – deyarli hammasi uning yog'ida qovurilgan mol go'shti – deyarli hammasi uning xotirasiga muhrlangan. Ayniqsa, ko'raverib badiga urib ketgan xo'jayinning baland peshtaxta orqasadan chiqib turgan tumshaygan basharasi. Nafaqat badiga урган, у uning

barcha odat va xatti-harakatlарини – qандай yo'talishi, soitvuchiga qay tarzda buyruq berishi, bir shisha kakao soitib olish uchun kirgan xaridor bilan qандай muomala qilishini – ikir-chikirkirigacha bilardi. „Yaxshisi, „Fray“ni emas, mana bunisini oling. Bu golland „Drost“i“. Bularning barini bilish yomon emas. Ammo, turgan gapki, juda zerikarli. Ba'zida Yasukiti bu do'konga kirganida, unga o'qituvchi bo'lib xizmat qilayotganidan beri juda ko'p vaqtlar o'tib ketgандек tuyulardи. Aslida esa xizmatga kelganiga hali bir yil ham bo'lgани yo'q.

Biroq har joyda mayjud o'zgarishlar bu do'konni ham chetlab o'tmadи. Ilk yoz kunlarining birida ertalab Yasukiti papiroso sotib olgани kirdi. Do'kon har doimgiday, nam polda quyultirilgan sut reklamalari sochilib yotardi. Ammo lekin g'ilay xo'jayinning o'mida, peshtaxta ortida sochimi yevropacha turmakukan ayol o'tirardi! Uning yoshi o'n to'qizqlar atrofida edi. Yonidan qaraqanda u mushukchaga o'xshardi. Quyoshda ko'zini qisib o'tirgan oppoq mushukchaga. Yasukiti ajablaniб peshtaxta yoniga keldi.

– Ikkı pachka „Asaxi“.

– Hozir.

Ayol uyalibgina javob berdi. Va ustiga ustak, uning uzatgani „Asaxi“ emas, orqasiga, samoga bosh ko'tarayotgan quyosh rasmi tushirilgan ikkala quti ham „Mikasa“ edi. Yasukiti beixtiyor qutilardan nigoh uzib, ayolning yuzchasiiga qaradi. Va shu zahotiyooq burunchasining tagida mushukchaning dikkayib turgan uzun mo'ylabini tasavvur qildi.

Men „Asaxi“ so'ragandim, bu esa „Mikasa“ ekan.

– Iye, shunaqami! Itimos, kechiring.

Mushukcha, yo'g'-ey, ayol qizarib ketdi. Bu ruhiy qal-qish xuddi balog'at yoshidagi qizchalarmikiga o'xshardi. Yo q, u zamonaviy oyimtilla qizchallardan emas. „Ken-

„yusa“ didiga mos, besh-olti yillardan beri topish mushkul bo‘lgan qizchahaldan edi. Cho‘ntagidan mayda chaqa axtarar ekan, Yasukiti negadir „Sverstnikov“ni, ikki rangli furonika o‘ramini, gulsafsarlari, Regoku kvartali, Kaburagi Kiyekata va, shuningdek, boshqa ko‘p narsalarni esladi. Ayni paytda ayol astoydil peshtaxta tagidan „Asaxi“ qidirardi.

Ichkari eshikdan ilgarigi g‘ilay xo‘jayin ko‘rindi. U „Mikasa“ni ko‘rishi bilan vaziyatni tushundi. Va odatdagiday ijirg‘angan qiyofada qo‘lini peshtaxta tagiga suqib, Yasukitiga ikki quti „Asaxi“ uzatdi. Ammo uning ko‘zharida bilinlar-bilinmas bo‘lsa-da tabassuma o‘xshash bir narsa miltillardi.

— Gugurt?

Ayolning ko‘zlarini xurullahsga tayyor turgandek xumor suzildi. Xo‘jayin javob o‘rniga nomigagina bosh qimirlatdi, ayol shu zahotiyiq peshtaxta ustiga kichkina gugurt qu-tisini qo‘ydi. So‘ng yana bir marta uyalinqirab jilmaydi: — Iltimos, kechirin...

U faqat „Asaxi“ning o‘rniga „Mikasa“ uzatgani uchun-gina kechirrim so‘ramayotgandi. Yasukiti nigohini ayoldan uzib xo‘jayiniga qadarkan, o‘zi ham tabassum qilayotgani ni sezdi.

Shundan keyin har kelganida ayol peshtaxta ortida o‘tirgan bo‘lardi. Biroq sochi birinchini galdegidek yev-ropacha turmakkalmagan edi. Endi ular marumage usulida yig‘ilib, qizil bog‘ ich bilan sipo qilib bog‘lab qo‘yilgandi. Ammo u haliyam xaridorlar bilan muomala qilishni bilmasdi. Javob berishga qiynalardi. Sotuvdagisi mollarni almashtrib yuborardi. Ustiga ustak, vaqt-i vaqt bilan qizarib turardi. U hech do‘kondorga o‘xshamasdi. Ayol asta-sekin Yasukitiga yoqa boshladi. Bu uni sevib qoldi, degani emas, albatta. Shunchaki, uning uyatchanaligi yoqordi.

Toliqitiruvchi jazirama kunlarning birida kechga yaqin Yasukiti korpusidan qaytayotib, bir banka kakao olishga kirdi. Ayol bu gal ham peshtaxta ortida „Kodan-kurabu“ journalini o‘qib o‘tirardi. Yasukiti yuziga husnbuzar toshgan sotuvchidan „Van Guten“ markali kakao borni, deb so‘radi.

— Hozir faqat mana bundan bor.

Sotuvchi unga „Fray“ bankasini uzatdi. Yasukiti do‘konga ko‘z yugurtirdi. Mevali konservalar orasida yev-ropolik rohiba rasmi tushirilgan markali banka bor ekan.

— Anavi yerda „Drost“ borga o‘xshaydi?

Ko‘rsatilgan rafga o‘girilib qaragan sotuvchining yuzida esankirash alomati paydo bo‘ldi.

— Ha, buyam kakao.

— Demak, faqat shuning o‘zi emas ekan-da?

— Yo‘q, faqat shuning o‘zi... Bekam, bizda faqat „Fray“ kakaosi bor-a?

Yasukiti ayolga qayrilib qaradi. Ayol ko‘zlarini bিroz qisib olgan, yuzlari yashiltob jilonanardi. Buning hech ajablanarli joyi yo‘q – do‘kon derazasining rangli kichik ko‘zchalaridan kechki quyosh nuri tushib turgandi. Ayol journaldan tirsagini olmay, har galgiday tutilib javob berdi:

— Men faqat shunaqasi qolgan, deb o‘ylovidim, lekin...

— Bilasizmi, „Fray“ kakaosidan ba‘zan qurt chiqib qoladi, – gapira boshlahdi Yasukiti jiddiy ohangda. Aslida esa u qurtlagan kakaoni hech qachon uchratmagandi: shunchaki, bunday deyish – „Van Guten“ kakaosi bor-yo‘qligimi aniqlashning eng yaxshi usuli ekaniga amin edi. – Anchagina yiriklariyam chiqishi mumkin. Jimjiloqday...

Ayol hadiksirab, peshtaxta orqasiga egilib qaradi.

— Anavi yerda qolmadimikan? Orqa rafda.

— Faqat qizil bankalar. Bu yerda boshqasi yo‘q.
— Mana bu yerda-chi?

Ayol getalarini taq-tuqlatib peshtaxta ortidan chiqdi-da, hovliqqancha do'konni aylanib axtara boshladi. Sarosimaga tushgan sotuvchi ham istasa-istamasa konservalar orasini izlashiga to'g'ri keldi. Papirosh chekib turgan Yasukiti cho'g'ga o'tin qalash uchun dona-dona qilib dedi:

– Mabodo bumaqa qurt tushgan kakaoni bolalarga bersa bormi, qorni og'rib qolishi tayin. (U dala hovlidagi xonani yolg'iz o'zi ijaraqa olgandi). Bolalalar u yoqda tursin, xotin ham bir kuni ichib qo'yib, azyiyat chekkani. (Turgan gapki, uning hech qanaqa xotiniyo'q edi). Tag'in bu o'ta ehtiyyotkor kishi ekan, deb o'ylamanglar....

Yasukiti birdaniga jimiib qoldi. Ayol fartugiga qo'shini arta turib, unga xavotir bilan qaradi.

– To'g'risi, topa olmayapman....

Uning ko'zlarida tortinchoqlik bor edi. Lablari jil-mayishga urinardi. Ayniqsa, burnining ustiga ter tomchilar sizib chiqqanini tomosha qilish maroqli edi. Ko'zi ko'ziga tusharkan, Yasukitining ichiga shayton oraladi. Bu ayol gulday nozik-nihol edi. Yasukiti uning hislarini qitiqlab qo'yib, xuddi o'zi kutgan ta'sirmi ko'rardi. Hatto „qitiqlash“ juda oddiy bo'lganida ham. Yuziga simchkov tikilish yoki barmoq uchi bilan tegib ketishning o'zi uning uchun yetarli edi. Ha, birgina shuning o'zi Yasukiti undan nima xohlayotganini tushunishi uchun kifoya. Nima xohlayotganini tushungach esa u qanday yo'l tutadi, faqat o'zигагина аyon. Mabodo qarshilik ko'rsatmasa-chi? Yo'q-yo'q, mushukni uyda saqlash-ku mumkin. Ammo mushukka o'xshagan ayol deb o'z jonini battol shayton hukmiga topshirish hech aqlga sig'maydigan ish. Yasukiti oxiriga cha chekilmagan papiroshini tashlab yuborib, ichiga kirib olgan shaytonni uloqtirdi. Shayton kutilmaganda o'mbaloq oshib, sotuvchining burniga kirdi – va sotuvchi o'zini undan olib qocholmay bir necha marta qattiq aksirdi.

– Niimayam qillardik. Bir banka „Drost“ bera qoling. Yasukiti og'zini qiyshaytirib jilmaygancha cho'ntagini kovlab, mayda pul izlay boshladi.

Shundan keyin Yasukiti ayol bilan bu mavzuda gaplashmadi. U haqida qancha eslamasin, baxtiga, shayton Yasukitini bir martagina yo'ldan ozdirishga uringandi, xolos. Hatto u qaysidir bir gal yelkasiga farishta qo'nganini ham sezib qolgandi.

Kech kuz kunlarining birida Yasukiti shomga yaqin papirosha kirib, birato 'la do'kondagi telefondan ham foydalamoqchi bo'ldi. Xo'jayin do'kon yonida, tik tushayotgan quyosh nurlari ostida velosipedi bilan ovora, shinasiqdam urayotgan ekan. Afidan, sotuvchi bivor yumush bilan ketganga o'xshaydi. Ayol odaitdagiday peshtaxta ortida allaqanday hisob-kitoblarini tartibga solib o'tirardi. Mana shu o'zgarmas do'kon manzarasida yoqimsiz hech narsa yo'q edi. Golland maktabi janri tasvirlaridagi kabi har taraflama xotirjam baxt ufurardi. Ayoldan nariroqda telefon go'shangini qulog'iqa tutib turarkan, Yasukiti o'zi yaxshi ko'rgan De Xuga reproduksiyasini esladi.

Ammo har qancha urimmasin, kerakli raqamga ularna olmadidi. Buyam yetmaganday, aloqachi ayol ikki marta: „Raqam? Raqam?“ – dedi-da, suvga cho'kkanday jum bo'lib qoldi. Yasukiti qayta-qayta sim qoqdi. Ammo go'shakdan taqir-tuqurdan bo'lak hech nima eshitilmadi. Endi De Xugani eslashgayam uning hafsalasi qolmadidi. Cho'ntagidan Spargoming „Sotsializm bo'yicha qo'llanma“simi chiqardi. Baxtiga, telefon apparati yonida kitob qo'yadigan taglikka o'xshash quти bor edi. Yasukiti unga kitobni qo'ydi, ko'zlarini harflar ustida yugurgan ko'yil qo'li telefon ruchkasini iloji boricha shoshmasdan timmay aylantrira boshladi. Bu uning qaysar telefonchi ayol bilan kurashish usulli edi. Bir kuni Gindza-Ovari-tedagi telefon

avtomati yoniiga borib, kerakli joyga qo'ng'iroy qilib tushguncha butun bir „Sabasi Dzingoro“ni o'qib chiqishga ulgurgan. Bu safar ham u telefonchi ayol javob bermaguncha qo'lini telefondan uzmaslikka qaror qildi.

U telefonchi ayol bilan astoydil urishib, nihoyat, ulanib suhbatlashishga erishguncha yigirma daqiqacha vaqt o'tib ketdi. Mominatdorchilik bildirish uchun Yasukiti peshtaxta tarasiga qaradi. Ammo peshtaxta ortida hech kim yo'q edi. Ayol eshik oldida turib eri bilan gaplashardi. Afidan, xo'jayin haliyam kuzgi quyosh ostida velosipedini titkilash bilan ovora edi. Yasukiti eshik tomon yurarkan, beixtiyor qadamini sekintatdi. Unga orqasi bilan turgan ayol eridan so'rardi:

– Boya bir xatidor arzon qahva kukuni so'radi. Arzon qahva kukuni qanaqa bo'ladi?

– Arzon qahva? – xo'jayin xotiniga xuddi xaridorlar bilan muomala qilgani kabi sovuq ohangda gapirardi. – Balki, xato eshitgandirsan: arpa qahvasidir?

– Arpa qahvasi? Ha-a, arpadan tayyorlangan qahva! O'zimam o'ylovdim-a, kulkun oziq-ovqat sotadigan joyda bo'lmaydi deb.

Yasukiti do'konda turib bu sahnani tomosha qilgandi. Ana o'shanda u yelkasiiga farishta qo'nganini sezib qolgandi. Farishta dudlangan cho'chqa go'shti osilgan shift tagidan uchib o'tdi va hech narsadan bexabar shu ikki odamning haqiga duo o'qidi. To'g'ri, sho'r baliq hididan u salgina burnini jiyirib o'tdi.... Yasukiti bordaniga sho'r baliq sotib olishni unutganini eslab qoldi. Seld balig'ining ayanchli tanachalari shundoqqina burnining tagida g'ij-g'ij uyilib yotardi.

– Menga sho'rbaliq bervoringlar.

Ayol darhol o'girildi. U arzon qahva kukuni oziq-ovqat do'konida bo'lmasligimi anglagan paytida bu ro'y bergan-

di. Shubhasiz, suhbatiga qulq solinganini u fahmladi. Hali qarab ulgurmasisданоq mushukchanikiga o'xshash yuzchalariga qizil yugordi. Ilgari aytilganiday, Yasukiti uning qizarishiga birinchi marta e'tibor berayotgani yo'q edi. Ammo bunchalik lolarang tusga kirganini ilgari hech ko'rmagandi.

– Sho'rbaliq? – eshitilar-eshitilmas qayta so'radi ayol.

– Ha, sho'rbaliq, – bu gal alohida ehtirom bilan javob berdi Yasukiti.

Bu voqeadan ikki oy o'tib keyingi yilning yanvari kirib keldi. Ayol to'satdan qayergadir g'oyib bo'ldi. Bir necha kungagina g'oyib bo'lGANI yo'q. Yasukiti qachon do'konga kirmasin, g'ilay xo'jayin eski pechga suyangan-cha yolg'iz o'tirardi. Nimaadir yetishmayotganini his etgan Yasukiti ayolning yo'qolib qolishi haqida o'zicha turli xil shubhalarga bora boshladи. Ammo jo'rttaga o'zini qo'rsutuvchi xo'jayindan: „Rafiqangiz?...“ deb so'rashga botolmasdi. Aslida esa u nafaqat xo'jayin bilan hech qachon hech narsa haqida gaplashmagan, hatto uning tortinchoq ayoliga muomalada ham ,Uni bering, buni bering“ dan naringa o'tmagandi.

Shu tariqa muzlagan yerlar ketma-ket ikki kunlab quyosh nuri ostida isina boshladи. Ammo ayol haliyam ko'rinnasdi. Xo'jayini bo'la turib do'kon huvullab yotardi. Asta-sekin Yasukiti bekanning yo'qligiga e'tibor bermay qo'ydi...

Fevraining oxirlarida qaysidir bir oqshom ingliz tili darsi tugagach, Yasukiti ittifoqo do'kon yonidan o'tib qoldi. Vitrina orqasida, yarqiragan elektr chirog'i ostida yevropadan keltirilgan vino shishalari va konserva bankalarini tizilib turardi. O'z-o'zidan ma'lumki, bu yerda hech qanday g'ayrioddiylik yo'q edi. Ammo bordaniga do'kon oldida bir ayol qo'lidagi chaqalogsiga qandaydir bema'ni

„gu-gu“lab turganiga ko‘zi tushdi. Do‘kon chiroqlari nuri ko‘chani yoritib turardi, Yasukiti bu yosh onani darrov tanidi.

A-ba-ba-ba-ba-a...

U do‘kon oldida aylanib yurib chaqalog‘ini o‘ynatardi. Uni tebrata turib ko‘zi Yasukitining ko‘zi bilan to‘qnashdi. Yasukiti hozir ayloning ko‘zida tortinchoqlig va yuzlarida qorong‘ida ham ko‘rish mumkin bo‘lgan darajada qizillik paydo bo‘ladi, deb xayoldidan o‘tkazdi. Ayol esa pinagini ham buzmadi. Uning ko‘zlari sokin jilmayar, yuzlارida esa tortinishdan asar ham yo‘q edi. Buyam yetmaganday, u yana chaqalog‘iga qarab, begona ko‘zlardan uyalib-netib o‘tirmay takrorladi: birov bolasiqa til tekkizzganda naq shenga aylanib ketadiganlardan biri.

A-ba-ba-ba-ba-ba-a...

Ayolni orqada qoldirib ketarkan, Yasukiti o‘zi ham sezmagan holda achchiq kinoya bilan kuldii. Bu u bilgan ayol emasdi. Bu shunchaki oddiy mehribon ona edi. Ona bo‘lganda ham birov bolasiqa til tekizganda hamma zamonalarda naq sherga aylanib ketadiganlardan biri! Yo‘lda davom etarkan, Yasukiti tomlar ustidagi osmonga ko‘z tikdi. Janub shamoli essayotgan osmonda bahorgi bir parcha kumush oy zaifgina nur taratib turardi...

OLOV ICHIDAGI BO‘STON

— Grammatikani o‘rgataymi yoki she’r?

— She’r.

— Balki, ikkalasini hamdir?

— Ikkalasini ham.

Garchi tirmog‘ idam ayrilsa-da u,
Hech narsa o‘zarmas, u yana arslon.

Arslonlar ichida ulg‘aysa-da it,

Arslonga aylanib qolmas hech qachon.

— Kimki bu she’rni yoddan bilsa, demak, u arslon, — dedi otam.

— Bundan chiqdi, men arslon ekanman-da.

Otam mast bo‘lib ketganida qozi oshnasi unga nashhat qilar, javobini esa she’riy tarzda qabul qilardi. Oshnasi esa „Noma‘lum xazina“dan misol keltirardi. Shunday kunlar bo‘lardiki, qozi ilmini oshirish uchun otamga engashib, qovoqxonaga yo‘l olardi.

— Chinakam arslon doimo mast yuradi, — derdi otam. — Azaldan shunday.

Ichib olsa, qizib turgan cho‘g‘ga aylanib, og‘zidan o‘tdek qarg‘ish yog‘diradi. Keyin mo‘ylabi osilib, sochlari oqaradi. Vaqt o‘tib, shamol cho‘g‘ni alangalatgandek, sochlardan siypalaydi...

— Lekin ba‘zida, — derdi onam, — o‘zgacha kayfiyatda hushiga keladi.

Shunda validam otamning g'azabidan yashirinardi.

Bolaligimda meni jo'jabiday oilam davrasida ko'rgan kishi, bu bola yozuvchi, hech bo'limganda adabiyot shaydosi bo'lardi, deb o'yashi turgan gap edi. Agar mening qaysi tilda yozishimni so'rashsa, u kishi: „Albatta, ota-onasi, bobokalonlari singari arab tilida“, degan bo'lardi. Balki, u haqidir: she'riyati, shubhasiz, ona tilimdag'i manbalardan o'rganardim.

Otam Qur'on sharhlari yoki muslimon farzlarini bilan shug'ullanayotib, she'riy yo'sinda so'zlar, onam ham shu uslubda javob qaytarishga odatlanib qolgandi. Bir-roq onam teatr uchun tug'ilgan edi. Qanday tushuntirsam ekan?.. Uning bir o'zi butun boshli teatr edi. Otam sudga ketganida men yagona tinglovchi bo'lib qolardim. Sudning natijasiga qarab, otam shod yoki g'amgin kayfiyatda qaytardi.

Onam buyuk aktrisa bo'lishi mumkin edi. Bir kuni menga vokzalni ko'rsatib berdi. Ikir-chikiridan tortib shovqin-suronlarigacha. Parovoza o'xshab hushtak chalaldi. Bu ayol-umribod taqvodorlik yo'lini tutganidan, sayohatni yoqtiradigan, fidoyi inson edi... „Poyezd“ ortidan chopib, qichqirardim: „To'xta, meni ham olib ket!“

Biz Jazoir-Tunis chegarasidan uncha uzoq bo'limgan Sadratda kun kechirardik. Mening eng g'ala-g'ovur, yorqin xotiralrim ana shu davrga taalluqli. O'sha paytlarda baxtiyor edim.

Madrasaming vaqtinchalik „mehmon“i ekanman, hammasi joyida edi. Ko'plab tushunarsiz she'rlarini yod olib, hurmat taxtachasiga ilindim. Boshqa bilimlarni o'zlashtirmay, shu bilan kifoyalansam bo'lardi, o'rtamining, o'ziga to'q shoir yoki zim-ziyo hovuzdag'i baliq yona, hayhot, meni umri akvarium yoki tovada tugaydigan o'sha mashhur gulmohnining bo'ronli hayoti ku-

tardi. Ammo men ko'l bo'yidagi itbaliq ekanman, uning ham suvda ham quruqlikda yashaydigan turining tungi ranglaridan ilhomlanardim.

Menga tolilik yoqmasi. Yetti yoshta to'lganimda, boshqa qishloqqa o'tganimizda (biz tez-tez sayohat qilar-dik, to g'rirog'i, ko'chib yurardik: musofir bo'limguncha muslimon bo'lmas ekan odam), otam paytsalga solmay, meni „Bo'rilar komi“, ya'ni fransuz maktabiga berishga qaror qildi. O'z xohishiga qarshi bo'lsa-da, buni izohladi:

– Arab tili bilan uzoqqqa borolmaysan. Sen ham madrasa qurbanib o'lishingni istamayman. Bu tilni boshqa payt ham oying ikkovimiz o'rgataveramiz. Hamma yoqda fransuz tili. Yoshligingda nimaiki uqtirgan bo'lsak, barini unutib, bu tilni o'zlashtirishing shart. Fransuzchani o'zingga singdirib, arabcha bilimlarining bamaylixotir tiklay olasan. – Otam, taxminan, shunday degandi. O'shanda bunga o'zi ishon-gannikan? Onam xo'rsindi. Yangicha fanlarni o'rganishga kirishib, yolg'iz o'zim dars tayyortlab o'tirarkanman, voli-dam tinchini yo'qotib, uy ichida izg'irdi. Alvido, dunyoda yagona teatr... Dramaning tuguni yaqinlashib qolgandi. Boshida qiyin bo'lsa-da, keyinchalik bu tilni yoqtirib qoldim, men ham muallimimizdek bemalol gapiradigan bo'ldim.

Ammo onamning dili „xiyonatim“dan ranjigandi. Shu ko'yil meni kitobdan alahsitanlari esimda:

– Betob bo'lib qolmagin yana! – derdilar.

Bir kuni kechasi u muloyim, ammo ma'yus holda:

– Men seni yangi dumyoyingdan chalg'irmasligim lo-zim. Menga ham fransuzchani o'rgat... – dedilar.

Shunday qilib yangi zamoning tuzog'i zaif ildizlaringa bolta urishga ulgurdi. O'sha kunlardagi ahmoqona takabburliklarimi eslasam, o'zimdan uyalib ketaman. Ona qo'llida fransuz журнali bilan o'g'lining stoli ro'parasi-

da suqlab o'tirardi. Qahri qattiq maktab bolasi esa undan jim o'tirishni, nima desa shuni ortidan qaytarishni talab qiladi...

Shunday keyin qalbimda farzand va ona o'ritasidagi be-gonalikni his qildim. Birato'la o'z ona tilimni ham, onamni ham boy berayotgan edim!

Oradan yigirma besh yil o'tdi. Qohiradaman. „Al-ah-ram“ ro'znomasining muharriri qo'limga jurnal tutqazdi: livanlik shoir kitobimni o'z ona tilimga o'giribdi. Men esa bu tilda ismimni arang yoza olaman.

Ajdoddarimning tili menga nisbatan shafqatsiz bo'lib borayotgandi go'yo. Ibn Arabiyning olamshumul she'rлari kutilmaganda men uchun yangi ma'no, falsafa kashf etib borayotgandi:

O, qanday karomat!
Bu olov ichra bo'ston.
Har nega qodir turar,
Vujudimda urgan jon...

Baxtsizlik ichidagi bu alamlı va zaif yuksalish, ala-nqa ichidagi bo'ston – darbaderlikda, fransuz tilida qog'oz qoralayotgan jazoir shoirining boshspanasi mana qayerda ekan – bo'rilar komida.

MUNDARIJA

Anil CHANDRA.	So'qmoqdagi so'qir sarguzashti.	3
Olim Otaxon tarjimasi.....	Ikkinchı hayot.	5
Olim Otaxon tarjimasi.....	Nashriyotdan.....	11
Baxt keltingan shabnam.	Kichkina tabib.	16
Olim Otaxon tarjimasi.....	Olim Otaxon tarjimasi.....	20
Minnatdorchilik gullari	Iyuuning mayin shabbodasi	28
Olim Otaxon tarjimasi.....	Olim Otaxon tarjimasi.....	31
Anju KOTVANDU.	Yaratganning yerdagi farishtasi	37
Karim MALLESH.	O'zgargan qaror	40

Ranglar bahsi	67
<i>Olim Otaxon tarjimasi</i>	
Sirk	43
<i>Olim Otaxon tarjimasi</i>	45
Keyur PATEL.	
Kambag'al, ammo boy oila	
<i>Olim Otaxon tarjimasi</i>	47
Kiran KUMAR.	
So'nggi sovg'a	
<i>Olim Otaxon tarjimasi</i>	49
Do'stlik	
<i>Olim Otaxon tarjimasi</i>	51
„Meni qo'llaringda ko'tarib ol“	
<i>Olim Otaxon tarjimasi</i>	53
Abu AMMAR.	
Besh daqqa	
<i>Olim Otaxon tarjimasi</i>	57
Bir shisha sut	
<i>Olim Otaxon tarjimasi</i>	59
Qalam va odam	
<i>Olim Otaxon tarjimasi</i>	61
Yurakdag'i nihollar	
<i>Olim Otaxon tarjimasi</i>	63
Isaah.	
Kichik xonimning katta o'yłari	
<i>Olim Otaxon tarjimasi</i>	64
Li LAN.	
Ertaklar olami	
Chan TXYUI MAY.	
Qaqnus rivoyati	
<i>Olim Otaxon tarjimasi</i>	77
Ketrin MENSFIELD.	
Oqsoch	
<i>Zilola Jalolova tarjimasi</i>	93
Sholizorlar oralab	
<i>Zilola Jalolova tarjimasi</i>	102
Ryunoske AKUTAGAVA.	
A-ba-ba-ba-a	
<i>Oydimiso tarjimasi</i>	127
Kotib YOSIN.	
Olov ichidagi bo'ston	
<i>Saidjalol Saidmurodov tarjimasi</i>	137

Addabiy-badiiy nashr

ANIL CHANDRA

SO'QMOQDAGI SO'QIR SARGUZASHTI

Hikoyalar

„Ziyo nashr“ nashriyoti
Toshkent – 2020

Tarjimonlar:

Olim OTAXON va b.

Muharrir	<i>Abdurahmon Jo'ravev</i>
Badiiy muharrir	<i>Nasiba Ergasheva</i>
Musahhhih	<i>Gulandom Umarova</i>
Sahifalovchi	<i>Habibulloh Haydarov</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 00008, 27.03.2019
04.05.2020da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$.
Offset qog'oz. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 7,56. Adadi 5000. Sharhnoma № 100–20.
Buyurtma raqami 396-20.

„Ziyo nashr“

Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ


Kitob fabrikasiida chop etildi
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.

Tel.: 71 234-44-01/05
www.credoprint.uz

A N I L C H A N D R A



SO'QMOQDAGI
SO'QIR SARGUZASHTI

ISBN 978-9943-6439-3-2

9 789943 643932



ANU MAJHI

Email: anumajhi89@gmail.com
fb: <https://www.facebook.com/anumajhi89/>
Instagram: <https://www.instagram.com/anumajhi89/>